

**M. XUDOYBERGANOVA, S. FUZAILOV,  
M. MUXTOROVA**

# **3- sinfda ona tili darslari**

**O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tasdiqlagan*

74.268.3

**Taqrizchilar:** *N. Ahmedova* — RTM boshlang'ich ta'lif sektorini boshlig'i.

*Sh. Yo'ldosheva* — TDPU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

IO 30740  
3g1

X87

**Xudoyberganova M. va boshqalar**

3-sinfda ona tili darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / M. Xudoyberganova,  
S. Fuzailov, M. Muxtorova. —T.: „O'qituvchi“,  
2004. 128 b.

I. 2. Muallifdosh.

BBK 74.268. IO'zb.

X 4306010200 — 162 Buyurt.var.—2004  
353(04)—2004



© „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi, 2004- y.



## Mualliflardan

Mazkur qo'llanma 4 yillik boshlang'ich sinflar dasturi talablarini asosida 3- sinf „Ona tili“ darsligiga moslab yozilgan bo'lib, o'qituvchilarni darslikning tuzilishi va o'rganiladigan materiallar tizimi bilan tanishtiradi.

Qo'llanmada o'quv yili davomida o'rganiladigan fonetika, grammatika, so'z yasalishi, imlo va nutq o'stirishdan darslik materiallarining choraklar bo'yicha taxminiy taqsimoti ham berildi, har qaysi mavzu materiali darslarga bo'lib ko'rsatildi. Har bir darsda darslikdagi 2—3 mashqdan foydalanish mo'ljallangan. Dars namunalarida darsni tashkil etish o'rganilgan mavzu yuzasidan berilgan uy vazifasini tekshirish, yangi mavzuni bayon etish va uni mustahkamlash metodlari asosida yoritildi.

Yangi mavzuni o'rganishda til materialini kuzatish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Mavzularga ko'ra, har qaysi dars uchun belgilangan mashqlar bajarib bo'lingach, o'rganilgan bilimlarni aniqlash, tahlil etish, mustahkamlash maqsadida mustaqil ijodiy ishlar, ta'limiylar xarakterdagи diktantlar hamda didaktik o'yinlar berildi. Shuningdek, o'quvchilarning husnixat malakalarini takomillashtirish maqsadida 8—10 daqiqaga mo'ljallangan topshiriqlar ham berilgan.

Qo'llanmada o'quvchilarning aqliy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi grammatik topshiriqli materiallar, bayon va inshoga tayyorlanish, uni yozma ifoda qilishga undovchi mashqlarga ham o'rinn berilgan.

Ammo har bir o'qituvchi qo'llanmadan foydalanish jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatları va nutqiy rivojlanish darajalarini hisobga olib, tavsiya etilgan materiallarga o'z ish tajribalari asosida ijodiy yondashishlari mumkin.

## MATERIALNING ASOSIY MAZMUNI VA UNI IZCHIL O'RGANISH

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosida grammatik nazariya emas, balki nutqiy ko'nikma va orfografik malaka hosil qilish turadi. Bu davrda bolalar til materiallarini tahlil qilishga, asosiy tushunchalarni ajratishga o'rgatiladi. Materialni tahlil va tarkib qilish, guruhash va umumlashtirish, o'xshash va farqli tomonlari-ni topish, nutqiy va orfografik ko'nikmalarni amalda tadbiq etish jarayonida bolalar har tomonlama rivojlanadi.

O'quvchilarda bu malakalarni hosil qilish uchun 3- sinfdagi grammatika, imlo va nutq o'stirish dasturiga ko'ra o'quvchilar so'z oxirida kelgan **b**, **d** jarangli undoshlarning **p**, **t** jarangsiz jufti kabi talaffuz etilishi, ammo yozuvda jarangli undoshni ifodalovchi harf bilan yozilishini, ulardagi farqni shu so'z oxiriga unli qo'shish bilan tekshirib aniqlashni (*paroxod* — *paroxodim*, *adib* — *adibi*, *ozod* — *ozoda* kabi) bilib oladilar; *farzand*, *xursand* kabi so'zlarda so'z oxiridagi **d** va **t** undoshi talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda saqlanishi haqidagi qoidani mustahkamlaydilar.

3- sinf o'quvchilari „So'z“ bo'limi yuzasidan ancha keng ma'lumot oladilar. „So'z tarkibi“ yangi mavzu sifatida 3- sinfdagi o'rganiladi. O'quvchilarga o'zakdosh so'zlar va ularning umumiyligi qismi (o'zak) haqida ma'lumot beriladi. O'zak, so'z yasovchi (-chi, -la, -li, -kor, -dosh, -siz) va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni o'rganadilar. O'quvchilar o'zakni aniqlashga; so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni bir-biridan farqlay olishga; tovush jihatidan o'xshash bo'lgan o'zaklarni bir-biri bilan qiyoslab, ularga mos o'zakdosh so'zlar tanlab olishga; so'z yasovchi qo'shimchalar bilan yangi so'zlar hosil qila olishga; so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarning vazifasini bilib olish bilan birga, berilgan so'zlardan so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar yordamida gaplar tuzishga; so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarning farqini izohlay olishga o'rgatiladi.

Ma'lumki, grammatika, imlodan yangi materialni tushuntirishda ko'rgazma qurollardan foydalanishning ahamiyati katta. Shuning uchun o'qituvchilar har bir mavzuni ko'rgazma asosida tushuntirishlari lozim. O'qituvchi o'quvchilarning yangi til hodisalarini ongli o'zlashtirishlariga erishmoq uchun bolalarni o'z tushunchalarini izohlab bera olishga o'rgatishi, buning uchun esa ona tili darslarida nega? va nima uchun? so'roqlarini tez-tez

takrorlab, undan o'rinli foydalanish, savolga aniq, to'g'ri javob berishga odatlantirish talab etiladi.

3- sinfda leksik mashqlarga ham alohida ahamiyat beriladi: o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar (ot — ish hayvoni, ism, buyruq fe'li); yaqin ma'noli (ahil, do'st, ittifoq; qiyin, murakkab, og'ir) va qarama-qarshi ma'noli (uzun-qisqa, og'ir-yengil, oq-qora) so'zlar bilan amaliy tanishtiriladi. Bunday leksik mashqlar o'quvchilarni so'zning ma'nosiga ko'ra bir-biridan farqlay olishga, shuningdek, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos so'zlar tanlay bilishga o'rgatadi.

„Gap“ bo'limi mavzusi o'tilganda o'quvchilar gapning turi, gap bo'laklari va gapda so'zlarning bog'lanishi haqida ma'lumot oladilar; „Darak va so'roq gap“, „His-hayajon gap“, „Gapning bosh bo'laklari“ (ega va kesim), „Ikkinch darajali bo'laklar“ mavzularini; gapda bir-biri bilan bog'langan so'zlarni juft-juft qilib ajrata olishni o'rganadilar. Darslikdagi yangi materialni o'rganishga kirishish oldidan o'quvchilarning ijodiy fikr yuritishlari, izlanishlari, qiziqishlari va faolliklarini oshirish maqsadida „Nutq nima?“, „Nima uchun nutqimizda turli gaplar qo'llanadi?“, „O'zak nima?“, „Nutqimizda minglab so'zlar bor. Ular orasida bir-biriga o'xhash so'zlar bor. Ular nimasi bilan o'xhash?“ kabi savollar qo'yilgan. Bu savollar darsning maqsad va vazifasini belgilaydi.

Dasturning „Bog'lanishli nutq“ bo'limida bayon va insho tipidagi yozma ishlarga ko'proq e'tibor berish uqtiriladi. Boshlang'ich sinflarda bayon va inshoning hajmi unchalik katta bo'imaydi. Sinfda bajariladigan bayon va insho hamisha bir soatda o'tkazilmaydi. Ta'limiy xarakterdagi bayon va insho uchun darsning ma'lum bir qismi ajratiladi, tekshirish maqsadi ham ko'zda tutilgan bayon va insho uchun maxsus dars ajratiladi. O'qituvchi tekshirish xarakteridagi bayonni o'tkazishga ancha oldin tayyorgarlik ko'radi.

O'quv yilining birinchi yarim yili oxirlarida diktant uchun 50—60 so'zli, yil oxirida 70—75 so'zli matn tanlanadi. O'qituvchi o'quvchilarni ogohlantiradi va tegishli qoidalarni takrorlab kelishi ni topshiradi.

Bayon quydagicha o'tkaziladi: biror o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan matn o'qiladi. Agar matn darslik („O'zbek tili“ yoki „O'qish kitobi“)dan tanlangan bo'lib, kitob barcha o'quvchilarning qo'lida bo'lsa, u holda matnni mustaqil o'qib chiqish topshirilishi ham mumkin. So'ngra o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda matn rejasi tuzilib, doskaga yoziladi. Imlosi qiyin so'zlar izohlanadi. Matn mazmuni reja asosida 1—2 o'quvchiga so'zlatiladi. O'quvchi matn mazmunini so'zlayotganda uning talaffuziga ham e'tibor beriladi.

Shuni ham aytish kerakki, bayon uchun tanlangan matn darak-xabar xarakterida bo'lib, hajmi uncha katta bo'lmasligi, tili sodda, ravon, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak.

3- sinfda ko'pincha bayonning uch turi: **to'liq** (yoki mukammal) **bayon**, **matnga berilgan rasmdan foydalanib yoziladigan bayon**, **boshlab berish yo'li bilan yoziladigan bayon** (insho)dan foydalaniladi.

Matn mazmunini to'liq ifodalab bayon yozish va rasmdan foydalanib bayon yozish o'quv yilining birinchi choragidan boshlanadi. Boshlab berish yo'li bilan bayon (insho) yozish ikkinchi chorakning o'ttalaridan boshlab olib boriladi. Boshlab berish yo'li bilan bayon (insho) yozishga o'rgatishda dastlab rasmlardan ham foydalanish mumkin. Bunda voqeas tasvirlanayotgan 2—3 jumla bilan boshlab beriladi va uni qanday davom ettirishga mos rasm beriladi (ayrim hollarda esa voqeaneing boshlanishi emas, tugallanishini 2—3 jumla bilan berish mumkin). O'quvchilar o'qituvchi boshlab bergen voqeani rasmga qarab davom ettiradilar va uni kichik hikoya tarzida shakllantiradilar.

Ona tili darslarida o'tkaziladigan insholar o'quvchilar nutqini o'stirish, savodxonligini oshirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Inshoda fikrning ravon va savodli ifodalishiga ahamiyat beriladi.

3- sinfda insho yuzasidan ko'pincha jamoa bo'lib ish olib boriladi. Inshoning rejasi o'qituvchi rahbarligida tuziladi. Reja fikrni izchil bayon qilish, uni qanday boshlash, qanday davom ettirish va nimalar bilan yakunlashda o'quvchiga yordam beradi.

3- sinfda inshoning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. O'qilganlar mazmuni asosida insho yozish. Inshoning buturi tahlil va tarkib metodi bilan o'tkaziladi. Buning uchun hikoyaning har qaysi qismidagi voqealar yuzasidan og'zaki rasm chiziladi va unga sarlavha tanlanadi. Sarlavhalardan reja sifatida foydalaniladi.

2. Kuzatish va sayohatlar asosida insho yozish. Bunda o'quvchilar kitobdan o'qiganlarini ko'rgan voqealarini bilan bog'lab hikoya qiladilar va jamoa bo'lib tuzilgan reja asosida insho yozadilar.

3. Seriyali rasmlar asosida insho yozish. Buning uchun o'quvchilar hayotiga yaqin, mazmuni unchalik murakkab bo'lma-gan matn asosida yaratilgan bir necha rasm tanlanadi. Har qaysi rasmida tasvirlangan voqealar aniqlanib, ularga sarlavha tanlanadi. Sarlavhalardan reja sifatida foydalaniladi. Seriyali rasmlarga qarab insho yozishda ba'zi o'quvchilar birinchi rasm bilan ikkinchi rasm

yoki ikkinchi rasm bilan uchinchi rasm o'rtasidagi bog'lanishni unutib qo'yadilar. Bunday hollarda o'quvchilarga rasmni yana bir bor ko'rib, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, unutilgan o'rirlarni xotirlab olish uqtiriladi.

4. Kinofilm, diafilm, bolalar spektakli, bayramda, sinfda yoki maktabda o'tkazilgan ertaliklar hamda bolalarning o'yinlari asosida insho yozish. Bunda kuzatilgan voqealar birma-bir bayon qilinmay, balki ulardagi bolalarni qiziqtiradigan epizod suhabat jarayonida belgilab olinadi. Uning rejasи tuziladi. Reja asosida ma'lum tayyorgarlikdan so'ng insho yoziladi. Masalan, „Biz qanday qilib uycha yasadik“, „Archa bezaklarini tayyorlash“ kabi mavzularda insho yozish mumkin.

Ma'lumki, og'zaki insholar o'quvchilarni yozma insholarga tayyorlab boradi. Buning uchun 3- sinfda tez-tez og'zaki insho o'tkazib turilishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarning og'zaki insholarini kuzatish jarayonida ularning fikrni reja asosida izchil va bog'lanishli ifoda qilishlari, so'z va so'z birikmalarini o'rinni qo'llay olishlariga ahamiyat bermog'i lozim.

Yozma ishlarni baholashda yo'l qo'yilgan xatolarning miqdori va turi, shuningdek, xatoning xarakteri ham hisobga olinadi.

O'quvchilar o'z insholarini solishtirishga qiziqadilar. Yozma ishni baholashda o'qituvchi juda ham adolatli bo'lishi kerak. Chunki har qanday nohaqlik ularning ruhiga salbiy ta'sir qiladi.

Yozma ishlarni tahlil qilish va xatolar ustida ishslash imlo o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday mashg'ulotga har darsda o'n-o'n besh daqiqa vaqt ajratiladi.

## Ikkinci sinfda o'tilganlarni takrorlash

(24 soat)

Kichik yoshdagi bolalar har qanday yangilikni qanchalik tez qabul qilsalar, shunchalik tez unutuvchan bo'ladilar. O'qituvchi bolaning shu tabiatini hisobga olib, o'tilganlarni takrorlab, mustahkamlab borishi lozim. Chunki takrorlash bilimlarni mustahkamlash demakdir.

Bolalar uzoq muddatli yozgi dam olish davrida 2- sinfda olgan bilimlarini biroz unutadilar. Shuning uchun 3- sinfda grammatika, imlo va nutq o'stirish mashg'ulotlari 2- sinfda o'tilganlarni takrorlashdan boshlanadi. Bunga taxminan 24 soat ajratiladi. Bu vaqt ichida dasturda ko'rsatilgan hamma mavzularni to'liq takrorlab

chiqishga ulgurish qiyin, albatta. Shunga qaramay, o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan „Nutq“, „Gap“ mavzulari, Kim?, Ni ma? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar, Ni ma qildi?, Ni ma qilyapti? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar, „Tovushlar va harflar“, „Alfavit“, „Jarangli va jarangsiz undoshlar, ularning yozuvda ifodalanishi“, „Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar“, „Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar“ kabi mavzular ustida to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Takrorlash jarayonida ham o'quvchilarga yangi tushuncha va bilim berish, mavzu yuzasidan xarakterli misollar keltirish ularning darsga qiziqishi va e'tiborini kuchaytiradi.

### Bilimlar kuni

**Mavzu:** 1- sentabr — O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning Vatan haqidagi tushunchalarini aniqlash, ularda ona-Vatanga mehr-muhabbat hissini oshirish. Vatanimiz tarixi, bugungi kuni va kelajagi, Mustaqillik kuni haqidagi tushunchalarini kengaytirish. O'quvchilar nutqini boyitish va o'stirish.

**Darsning turi:** nutq o'stirish.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** davlat ramzları rasmi. Vatanimiz xalqlari hayoti va mehnatini aks ettiruvchi rasmlar. „O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi“ kitobi.

**Darsning borishi.**

1. Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga hozirligi, kayfiyati va sinf xonasini kuzatish.

2. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini kuylash.

3. Suhbat: Bugun qanday kun?

— Bugun O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan kuni. Jumaniyoz Jabborovning „Istiqlol“ she'ri o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali o'qiladi.

— Mustaqillik bizga nima berdi?

— O'z haq-huquqimizni berdi. Ozodlik, erkinlik berdi. O'z boyligimiz o'zimizni bo'ldi. Qullikdan qutildik.

— Endi bizning nimalarimiz bor?

— O'z bayrog'imir, gerbimiz, madhiyamiz bor.

— O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qachon tasdiqlangan? (1991- yilning 18- noyabr kuni.)

- Bayroqning moviy rangi nimani bildiradi? (Tinchlik maz-muni aks etgan osmon va obihayot ramzini.)
  - Oq rangi nimani ifodalaydi? (Muqaddas tinchlik ramzi. Oqrang poklik, beg'uborlik, sokinlik, orzu-havaslar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli.)
  - Yashil rang-chi? (Tabiatning yangilanish ramzi, umid va shod-u xurramlik timsoli.)
  - Qizil chiziqlar nimani ifodalaydi? (Vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.)
  - Yarim oy tasviri nimani ko'rsatadi? (Bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq bo'lib, qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.)
  - Yulduzlar-chi? (O'zbek xalqi madaniyati qandayligini, uning komillikka, o'z tuprog'iда saodatga intilishi ramzi.)
  - Davlatimiz gerbi qachon tasdiqlangan? (1992- yil 2- iyul kuni.)
  - Bu haqda nimalar deya olasiz?
  - Charaqlab turgan quyosh, o'ng tomonda bug'doy boshoglari, chap tomonda paxta chanoqlari, gerbning yuqori qismida sakkiz qirrali yulduz, uning ichidagi yarim oy va yulduzlar mustaqilligining qutlug' ramzidir. Bu ramzlar tinchlik, baxtsaodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarimizni ifodalaydi.
  - O'zbekiston madhiyasining so'zi kim tomonidan yozilgan? (O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan.)
  - Xalqimizning erki, haq-huquqlari qayerda ko'rsatilgan? (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida.)
  - Konstitutsianing 4- moddasida nima deyilgan? („O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir“ deyilgan.)
  - O'zbekistonda qaysi millat xalqlari yashaydi? (Turli millat xalqlari yashaydi, ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, ular boshqa millat xalqlari bilan inoq, do'st bo'lib yashaydilar.)
4. Kitob bilan ishlash. Darslikning 4- betidagi „Istiqlol“ she'ri 3—4 o'quvchiga o'qitiladi.
5. Lug'at ustida ishlash.
- Istiqlol** — erkinlik, mustaqillik, ozodlik mevasi.
- Sabo** — shamol.
- Ma'vosi** — turar joyi, manzili.
- Qachon mustaqillikka erishdik? (1991- yilda.)
- Mustaqilligimiz uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Cho'pon, Abdulla Qodiriylar turli davr kishilari

bo‘sa ham, ularning maqsadi ozod yurt farzandi bo‘lish ekani haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Vatanimiz, xalqimiz hayoti va mehnati, bugungi shodiyona kuminizni tasvirlovchi turli rasmlar bilan suhbat davom ettiriladi.

## 6. Husnixat malakalarini shakllantirish.

*1- sentabr — O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni. Shu vatanda yashashning o‘zi baxtdir* gaplarini yozdirish.

## 7. Darsni yakunlash.

1. Mustaqillik kunini biz qanday nishonlaymiz?
2. Ko‘chalar, maydonlar qanday bezatiladi?
3. Mustaqillik maydonida bo‘lganmisiz?
4. I- sentabr kuni xalqimiz nima uchun u yerga to‘planishadi?
5. Siz Vataningizni sevasizmi? Nima uchun? va h.k.



## 1- DARS

**Mavzu:** nutq, gap, so‘z.

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarning gap, so‘z, nutq haqidagi tushunchalarini aniqlash;

— rasmlar asosida so‘z, so‘zlar ishtirokida gaplar va gaplardan hikoya (matn) tuzish qobiliyatlarini o‘stirish;

- gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishiga e’tibor qaratish;
- chirolyi yozuv malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** takrorlash, mustahkamlash.

**Darsning metodi:** suhbat metodi.

**Darsning jahozi:** turli xil rasmlar. „Maktab“, „Birinchi qo‘ng‘iroq“.

**Darsning borishi.**

1. Tashkiliy qism. Uzoq muddatli ta’til davrida o‘quvchilar bir-biridan biroz uzoqlashib qoladilar. Shu sababli o‘quvchilarning faolligini oshirib, ular orasida do’stlikni mustahkamlab olish maqsadida „Muzyorar“ mashg‘uloti o‘tkaziladi.

Mashg‘ulot quyidagi tartibda olib boriladi. Donli ekinlardan biri (loviya, no‘xot yoki guruch) solib tikilgan kichik xaltacha o‘qituvchi tomonidan biror o‘quvchiga, ismini aytgan holda („Farhod“ deb) otiladi. Xaltachani ilib olgan Farhod boshqa o‘rtog‘ining ismini aytib xaltachani unga uloqtiradi. Mashg‘ulot shu tartibda davom etadi. Endi o‘quvchilar navbatdagi xaltachani irg‘itganda o‘rtoqlarining ismlarini va ismlarining bosh harfidan boshlanadigan insoniy xislatlarni qo‘sib aytib, xaltachani uloqtishi.

radilar. Masalan: *Gulnoza – go'zal, fazilat – farosatli, Jasur – jas-oratlari*.

## 2. Darslik bilan ishslash. 1- mashq.

Rasm asosida suhbat. O'quvchilar darslikdagi rasmni diqqat bilan kuzatadilar, rasmdagi narsa va shaxslarni navbat bilan aytadilar. O'qituvchi yoki o'quvchilar galma-gal har bir aytilgan so'zni doskaga yozib boradilar.

Masalan: *daraxt, barg, bino, o'quvchilar, gul, papka, qo'ng'iroq, qiz, ...* Ana shu so'zlar ishtirokida gaplar tuziladi.

Masalan: *Xolida – a'luchi qiz. Birinchi qo'ng'iroqni chalish huquqi unga berildi.*

*Oltin kuz keldi, daraxt barglari sarg'aydi.*

Tuzilgan gaplar tartibga keltirilib, matn tuziladi. Matnga sarlavha topib qo'yiladi. Masalan: „Bilimlar kuni“ yoki „Maktabim—qadrdom“ kabi sarlavha ostida, matn yoziladi.

Oltin kuz fasli keldi. Daraxtlarning barglari sarg'ayib, to'kila boshladi. O'quvchilar bir qo'llarida gul, bir qo'llarida sumka bilan qadrdom maktablariga keldilar. O'qituvchi o'quvchilarni mehr bilan kutib oldi. Mana qo'ng'iroq ham chalindi. Qo'ng'iroqni chalish huquqi a'luchi qiz Xolidaga berildi.

## 3. Darslikdagi 2- mashq ustida ishslash.

Mashq matnidagi gaplar o'quvchilarga o'qitiladi. Mashqning shartiga ko'ra bir-biridan qanday ajratilganligi, gaplar nimalardan tuzilganligi aniqlanadi. O'quvchilar oxirgi gapni ko'chirib yozadilar va yozganlarini kitobdan tekshiradilar.

Har ikki mashq yuzasidan quyidagi savol-javob o'tkaziladi:

- Biz rasm orqali nimani bildirdik?
- Rasm orqali fikrimizni bildirdik.
- Fikrimizni nima orqali bildirdik?
- Fikrimizni gaplar orqali bildirdik.
- Gaplar orqali bildirilgan fikr nima deyiladi?
- Gaplar orqali bildirilgan fikr nutq deyiladi.
- Nutq nimalardan tuziladi?
- Nutq gaplardan tuziladi.
- Gaplar nimalardan tuziladi?
- Gaplar so'zlardan tuziladi.

Savollarga berilgan javoblardan darslikdagi qoida chiqariladi.

## 4. Husnixat mashqlari o'tkazish.

Mashq uchun quyidagi material beriladi.

*Aa. Adolat — aqli. Adolat — aqli qiz.*

O'qituvchi husnixat qoidalarini o'quvchilarga eslatadi. Jumladan, partada o'tirish, daftar va ruchkadan to'g'ri foydalanish, harf unsurlariga e'tibor berish, harflarning yozuvda bir-biriga ulanishi, qo'lni uzmasdan yozish va so'zlar orasidagi oraliqlar qanday bo'lishini tushuntiradi. Berilganlarning har biri bir qatordan yoziladi. O'quvchilar ishga kirishishdan avval:

*„Yozsang xat, chiroyli yoz!*

*Yozuvning bo'ladi soz!“* shiorini aytib, so'ng ishga kirishadilar.

5. Darslikdagi 5- mashq ustida ishlash.

Mashqning topshirig'i o'qiladi. O'quvchilarning yozda qilgan ishlarni eslash, u haqda fikr yuritish, fikrlarini umumlashtirishlari uchun vaqt beriladi. Fikrlar to'plab olingach, 2—3 o'quvchi ta'tildagi ishlari, eng qiziqarli voqeа-hodisalar haqida so'zlab beradi.

6. Ijodiy diktant.

Ijodiy diktant uchun quyidagi so'zlar beriladi.

*Yoz, ta'til, oromgoh, qishloq, dala, ish, yordam, mashg'ulot, kitob, ertak.*

O'quvchilarga berilgan so'zlardan foydalaniб, bog'lanishli gaplar tuzish topshiriladi.

7. „Quvnoq daqiqa“, „Men kimman?“ mashg'ulotlarini o'tkazish.

Bir o'quvchi doskaga chaqirilib, unga ko'rsatmay, pomidor rasmi yopishtirilgan toj boshiga kiydiriladi. Toj kiygan o'quvchi sinfdagi o'quvchilardan so'raydi.

- Men jonlimanmi? (Yo'q.)
- Jonsizmanmi? (Ha.)
- Mevamanmi? (Yo'q.)
- Sabzavotmanmi? (Ha.)
- Shirinmanmi? (Yo'q.)
- Achchiqmanmi? (Yo'q.)
- Chuchukmanmi? (Ha.)
- Ko'kmanmi? (Yo'q.)
- Qizilmanmi? (Ha.)
- Shakarob qilsa bo'ladimi? (Ha.)
- Unda men pomidormanmi? (Ha.)

O'zini to'g'ri topgani uchun barakalla, to'g'ri topding, aqlii ekansan, zehning o'tkir kabi so'zlar bilan o'rtoqlari uni rag'batlantiradilar. O'quvchilar pomidor haqida gaplar tuzib aytadilar. Ulardan ayrimlari (grammatik jihatdan to'g'ri va mazmunli gaplar) aytib turib yozdirilishi mumkin.

8. Darsda o'rganilgan bilimlarni savol-javoblar bilan umumlashtirish va mustahkamlash, o'quvchilar bilimini baholash.

9. 3- mashq uygaz vazifa qilib topshiriladi. Matnda nechta gap borligini aniqlash, matn mazmunini hikoya qilish va unga sarlavha topib kelish aytildi.



## 2- DARS

**Mavzu:** nutq.

**Darsning maqsadi:** a) nutq o'stirishga e'tibor berish, fikrni to'liq ifoda etishga o'rgatish, so'z boyligini oshirish, husnixat malakalarini takomillashtirish; b) tabiatni, vatanni sevish va arashga o'rgatish.

**Darsning turi:** aralash dars.

**Darsning metodi:** klaster (shingil) usuli.

**Darsning jihizi:** turli o'simliklar, gullar tasvirlangan rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Uyga berilgan vazifani tekshirish. 2—3 o'quvchidan 3- mashq topshirig'iga ko'ra matn mazmunini so'zlab berish talab etiladi. Bir nechta o'quvchi matnga qanday sarlavha tanlaganini aytadi. Eng yaxshi sarlavha tanlagan o'quvchi rag'batlantiriladi. Matn necha gapdan tuzilganligi o'quvchilardan so'rab aniqlanadi.

2. Klaster usulini qo'llab, so'z, gap, matn tuzish.

Doskaga „O'zbekiston“ so'zi yozib qo'yiladi. O'qituvchi „O'zbekiston deganda ko'z o'ngingizda nimalar jonlanadi?“ de gan savol beradi. O'quvchilar O'zbekiston haqida bilgan so'zlarini aytadilar. O'qituvchi so'zlarni quyidagi taxlitda doskaga yozib boradi. So'ngra savollar orqali o'quvchilarning O'zbekiston haqidagi bilimlari mustahkamlanadi.



- O'zbekiston qanday davlat?
- O'zbekiston — mustaqil davlat.
- Vatanimizni qanday so'zlar bilan madh etsak bo'ladi?
- Serquyosh, chamanzor, go'zal, keng, bepoyon, oltinga kon.
- Vatanimizni ulug'lash uchun nimalar topdik?
- So'zlar.
- Topgan so'zlariningizdan gaplar tuzing-chi?
- Paxta milliy boyligimiz. Xalqlar tinch-totuv yashaydilar.

Navoiy — g'azal mulkining sultonasi. O'zbekistonning o'z bayrog'i, tamg'asi, madhiyasi bor. Shahar va qishloqlari go'zal va h.k.


O'quvchilar tuzgan gaplardan matn tuzish ham mumkin.

3. Husnixat mashqlari o'tkazish. Mashq uchun material.

*Bb. Buxoro, bayroq.*

Husnixat qoidalari eslatiladi. „Inson go'zalligi husnixatda bili-nar!“ shiori aytilgach, berilgan harf va so'zlarning har biridan bir qatordan yozish tavsija etiladi.

4. Kitob bilan ishlash. 5- mashqni bajarish. Mashqni bajarishdan oldin klaster usulida o'quvchilarga tanish bo'lgan dorivor o'simliklar aniqlab olinadi. So'ngra ularga notanish ayrim dorivor o'simliklarning rasmlari doskaga osib qo'yiladi.



Bu usul bilan o'quvchilarning dorivor o'simliklar haqidagi tushunchalari kengaytirilib, so'z boyliklari oshiriladi. So'ngra 5- mashq topshirig'iga ko'ra bajariladi. Mashq avval doskada va so'ngra daftarda bajariladi.

5. Test bilan ishlash.

Test: Nutq nima?

1. Gaplar orqali bildirilgan fikr.
2. So'zlar orqali bildirilgan fikr.
3. Gap va so'zlar orqali bildirilgan fikr.

Test savoli doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi javoblarni bir-ma-bir aytadi. O'quvchilar diqqat bilan tinglab, to'g'ri javobni raqamli kartochkalar bilan ko'rsatadilar. Yoki har bir o'quvchiga test yozilgan kartochkalar tarqatib chiqiladi. O'quvchilar bir da-qiga ichida javoblarni qalamda belgilab, testni o'qituvchiga topshiradilar. Kartochkalarning orqa tomoniga o'quvchining ismi, familiyasi yozib qo'yilgan bo'ladi. O'qituvchi tezgina ularni ko'rib chiqib, javoblarni e'lon qiladi.

6. O'quvchilarning gap haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Buning uchun 7- mashq ustida ishlanadi. Mashqdagi gaplarni mustaqil ichda o'qishga topshiriladi. So'ngra 2—3 o'quvchiga gaplar ovoz chiqarib o'qitiadi. Shundan so'ng darslik olib qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilardan gap haqidagi bilimlarini so'zlab berishni talab etadi.

7. Uyga vazifa: 6- mashq. Mashqni bajarishda har bir gap oxirini aniqlash va tegishli tinish belgisini qo'yishni unutmaslik aytildi. Gaplarning oxiriga qanday tinish belgilari qo'yilishi aniqlab olinadi.

8. O'quvchilar bilimini baholash.



### 3- DARS

**Mavzu:** matn tuzish.

**Darsning maqsadi:** gap haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, matn tuzishga o'rnatish, topqirlik, ziyraklik qobiliyatlarini o'stirish, o'quvchilar faolligini oshirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat metodi.

**Darsning jahozi:** kapalak, paxta, kuz manzarasi tasvirlangan rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Matn haqida tushuncha berish. Tushuncha 9- mashq asosida beriladi. Buning uchun o'qituvchi darsga qadar doskaning chap tomoniga tarqoq gaplarni, o'ng tomoniga bog'lanishli gaplarni yozib, ustini to'sib qo'ygan bo'ladi. Dars boshlanishi bilan o'qituvchi o'quvchilar diqqatini doskaga qaratib, avval chap tomonagi gaplarni, so'ngra o'ng tomonagi gaplarni o'qitadi. Har

ikki tomondag'i gaplar qiyoslab chiqiladi. U haqda o'quvchilarining fikrlari savollar orqali aniqlanadi. Chap tomonda qanday gaplar berilgan? O'ng tomonda-chi? O'ng tomonda mazmun jihatdan bir-biri bilan bog'langan gaplar berilgan. O'qituvchi o'quvchilarining javoblarini umumlashtirib, darslikdagi qoidani aytadi va u bolalarga kitobdan o'qitiladi. Matnga o'quvchilar bilan birgalikda sarlavha tanlanadi. O'quvchilar: „Tabiat hadyasi“, „Kuz“, „Saxiy kuz“, „Kuz hosili“ kabi sarlavhalarni aytadilar. Ulardan biri tanlab olinadi va doskada yozilgan matnning yuqori tomoniga yozib qo'yiladi. O'quvchilar sarlavha qo'yib, matnni kitobdan ko'chirib yozishdan oldin o'qituvchi ko'chirib yozish qoidasini eslatadi. Ko'chirib yozishda har bir so'z avval bo'g'inga bo'lib o'qiladi, har qaysi bo'g'indagi harf (tovush) birma-bir aytib chiqiladi, so'ngra yoziladi. Matndagi gap va so'zlar yuqoridagi tartib bilan yozilgach, ular yana kitobdan tekshiriladi.

## 2. Kitob bilan ishlash. 11- mashq.

O'qituvchi mashqdagi topshiriqdan kelib chiqib, o'quvchilarga quyidagi savollarni beradi.

1. Oilada necha kishi turasiz?
2. Uyda qanday ishlar qilinadi?
3. Kim nima ish qiladi?
4. Sen-chi?
5. Sen nima ishlar qilasan?
6. Qaysi ishlarda onangga, opa-singillaringga yordam berasan?
7. kabilar.
8. O'quvchilarining javoblari tinglanadi.
- „Uy ishlariga yordam“ mavzusida mustaqil 5—6 gapdan iborat matn tuzish topshiriladi.
- Ayrim o'quvchilarining matnlari o'qitiladi, yutuq va kamchiliklari aytildi.

3. Dam olish daqiqasi: hamma o'quvchilar partadan chiqib, tik turadilar. O'qituvchi qo'lida koptokni tutib turgan holda topishmoq aytib, koptokni irg'itadi. Koptokni ilib olgan o'quvchi topishmoqning javobini aytib, boshqa bolaga irg'itadi. O'yin shu tariqa davom etadi. Topishmoqning javobini aytolmagan bola uzr aytib, boshqa bolaga irg'itishi kerak.

## 4. 8- mashqni bajarish.

Mashqning topshirig'i va birinchi topishmoq o'qiladi. O'quvchilar javobini aytadilar. O'qituvchi paxtaning chanoqda turgan holatini yoki rasmini ko'rsatib, uni ekish, parvarish qilish haqida so'zlab beradi va „Paxtadan nimalar olinadi?“ degan savol bilan o'quvchilarga murojaat qiladi. O'quvchilar bilganlarini birma-bir aytadilar. O'qituvchi o'quvchilarining javoblaridan kelib chiqib, paxta bizning boyligimiz, milliy g'ururimiz ekanini tushuntiradi. Ikkinci topishmoq o'qilib, javobi topiladi. Birinchi topishmoqni javobi bilan birgalikda ko'chirib yozadilar.

## 5. Husnixat mashqlari.

Mashq uchun material: *Dd. Doniyor, daftar. Doniyor daftarni tartibli va ozoda tutadi.*

O'qituvchi katta **D** va kichik **d** harflarining yozilishini doskada yozib ko'rsatadi. Husnixat qoidalarini eslatib, berilgan harflarni yozishni tavsiya etadi.

## 6. O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

Matn nima? Matn nimalardan tuziladi? Matn nimaning yozma shakli? Matnga nima uchun sarlavha qo'yish mumkin? O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini umumlashtiradi. Matn — mazmun jihatdan bog'langan gaplar. Matn — nutqning yozma shakli, matnga sarlavha topiladi.

7. Darsga faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish, bilimlarini baholash.

## 8. Uyga vazifa: 10- mashq.

Rasmga qarab bir-biri bilan bog'langan gaplar (matn) tuzish. Buning uchun rasmda qaysi fasl tasvirlanganligi, unda bolalar nima ish qilayotganlari aniqlanadi.



## 7- DARS. INTERFAOL DARS

**Mavzu:** nutq, gap va so'z.

**Darsning maqsadi:** a) bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar faolligini oshirish, mantiqiy fikrlarini rivojlantirish; b) halollik va hamjihatlikda ishlashga o'rgatish.

**Darsning metodi:** interfaol.

**Darsning jihizi:** tarqatma materiallar, testlar.

**Darsning borishi:**

1. Interfaol usul bilan guruhlarga bo'linib ishslash davomida quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- intizomli bo'lish;
- bir-birlarini hurmat qilish;
- faoliyk ko'rsatish;
- hamkorlikda ishslash;
- do'stining fikrlarini qadrlash;
- vaqtadan unumli foydalanish;

2. O'quvchilarni guruhlarga bo'lish.

O'quvchilar stoldagi rasmlli kartochkalardan xohlaganlarini tanlab oladilar va o'zlarining qaysi guruhga mansubliklarini ras-

lar orqali (ovozsiz) topib oladilar. O'quvchilar 6 guruhga bo'linadilar. Har qaysi guruhda 5—6 tadan o'quvchi bo'ladi.

1- guruh: mevalar — olma, anor, nok, uzum, olcha.

2- guruh: sabzavotlar — sabzi, karam, kartoshka, piyoz, turp.

3- guruh: don ekinlari — mosh, guruch, no'xat, loviya, mak-kajo'xori.

4- guruh: daraxtlar — terak, tol, chinor, archa, majnuntol.

5- guruh: poliz ekinlari — qovun, tarvuz, handalak, qovoq, bodring.

6- guruh: dorivor o'simliklar — yalpiz, ismaloq, otquloq, isiriq, beda.

O'quvchilar guruhlarini topib, belgilangan joyga doira shak-lida o'tiradilar.

3. Darsning birinchi topshirig'i e'lon qilinadi.

1- **topshiriq.** Kartochkalardagi so'zlarni ma'no jihatdan bir-biriga bog'lab, she'r hosil qilish. Bunda davlatimiz madhiyasi uchun yaratilgan she'rdan foydalanish mumkin. Madhiyaning birinchi to'rtligini naqorati bilan 1,2,3- guruhlarga, ikkinchi to'rtligini naqorati bilan 4,5,6- guruhlarga tarqoq holda kartochkalarda beriladi. Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lgach, chapak chalib, ishni tugatganlarini bildiradilar.

Shundan so'ng quyidagi savollar orqali o'quvchilarga muro-jaat qilinadi:

— Topshiriq berilganda o'zingizni qanday his qildingiz?

— Topshiriqni bajarayotganingizda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

— Bajarib bo'lganiningizdan so'ng o'zingizni qanday his qil dingiz?

— Ish taqsimotini qanday yo'lga qo'ydingiz?

— Madhiya matnnini nimalar orqali hosil qildingiz? (So'zlar.)

2- **topshiriq.** Berilgan so'zlar ishtirokida matn tuzish. Guruh-larga aralash so'zlar yozilgan konvertlar tarqatiladi. Bu so'zlardan qiziqarli hikoya tuziladi.

1- guruhga: fil, sichqon, mazali non, dush, qochdi.

2- guruhga: olma, malla soch, qayiq, tush, afsus.

3- guruhga: taksi, teatr, pul, sahna, xolam, uyalib qoldik.

4- guruhga: yo'lbars, hayvonot bog'i, muzqaymoq, onam.

5- guruhga: kino, qor odam, bolakay, bo'ri.

**6- guruhga:** akam, tuqli, koptok, oyna, xola.

Guruhlар chapak chalish orqali ish yakunlanganligini bildiradilar va navbat bilan tuzgan matnlarini o'qib eshittiradilar. Guruhlар rag'batlantirib boriladi.

**3- topshiriq.** Test bilan ishslash. (Hamma guruhga bir xilda ushbu 4 ta test topshiriladi).

1. Nutq nima?

- a) gap;
- b) tugallangan fikrning yozma shakli;
- d) tugallangan fikrning og'zaki shakli.

2. Qaysi qatordagi gapda so'zlar tartibi to'g'ri berilgan?

- a) non yopiladi tandirda;
- b) tandirda non yopiladi;
- d) non — tandirda yopiladi.

3. So'z nimalardan tashkil topadi?

- a) harflardan;
- b) bo'g'inlardan;
- d) gaplardan;

4. Qaysi qatordagi so'zlar xatosiz yozilgan?

- a) paraxod, yalpiz;
- b) paroxod, yalpiz;
- d) paraxot, yalpis.

**4- topshiriq.** Sovg'alar topshirish.

4. Guruhlар bir-birlarini baholaydilar va esdalik uchun sovg'a beradilar. Har bir guruh qanday ishlagani, ish davomida o'zlarini qanday tutganligi, Dars qoidasiga qanday rioya qilganliklari haqida fikrlar bildiradi.

5. Darsni yakunlash (baholash).

6. Har bir guruh o'zining eng faol qatnashgan, bilimdon va zukko a'zolarini baholaydi.

Darsni yakunlash, mustahkamlash:

1. Guruhingiz a'zolaridan mammunmisiz?
2. Topshiriq bajarayotganda qanday xatoliklarga yo'l qo'yganingizni bilasizmi?
3. Bugungi darsdan nimalar oldingiz?
4. Qanday tushuncha hosil qildingiz?
5. Bugungi interfaol usulidagi darsni qanday baholaysiz? (a'lo, qoniqarli)



## 10- DARS

**Mavzu:** o'zbek alifbosi.

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarni „Alifbo“dagi harf nomini to'g'ri aytishga o'rgatish, ularda alifboni tartib bilan yod olish malakalarini shakllantirish; b) husnixat ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyliklarini oshirish, ziyrak, hushyor, chaqqon harakat qilishga o'rgatish.

**Darsning turi:** aralashgan.

**Darsning metodi:** suhbat. „Alfobingo“ mashg'ulotini o'tkazish.

**Darsning jahozi:** har bir o'quvchi uchun „Alifbo“ yozilgan plakat.

**Darsning borishi.**

1. Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini kuzatish.

2. Uy ishini tekshirish.

3. Yoddan yozuv diktanti.

Yoddan yozuv diktantida doskaga yozib qo'yilgan quyidagi she'rdan foydalaniлади:

*Onajonim, mehribonim,  
Men gul bo'lsam, siz bog'bonim.  
Ko'zim ochib sizni ko'rdim,  
Siz tufayli inson bo'ldim.*

She'r doskadan 2—3 marta o'qib beriladi. Turli usullar bilan (ichdan mustaqil o'qish, ovoz chiqarib o'qish, xor bo'lib o'qish, harakatlar bilan o'qish) bir necha bor o'qitilib, mazmuni so'zlatiladi. Doskadagi she'r parda bilan to'sib qo'yilgach, o'quvchilar yoddan yozadilar. Ma'lum vaqt o'tgach, o'qituvchi she'rni ochadi, o'quvchilar yozganlarini tekshiradilar. Birorta so'zni tushirib qoldirmay, imlo xatolarga yo'l qo'ymay yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

4. Alifbo haqida tushuncha berish.

Doskaga plakatga chiroyli qilib yozilgan alifbo osib qo'yiladi. O'quvchilar diqqati unga qaratiladi va savollar beriladi.

— Plakatda nimalarni ko'ryapsiz?

— Harflarni.

— Ularni o'qing. (hamma harflar tartib bilan birma-bir o'qib chiqiladi.)

- Harflar qanday qilib berilgan? Tartib bilan berilgan.
- Tartib bilan berilgan barcha harflar nima deyiladi? Alifbo deyiladi.
- Qani, sanab chiqaylik-chi, ular nechta ekan? (O'quvchilarning har biri harflarni mustaqil sanab chiqadi.)
- 29 ta.
- Unlilar nechta? 6 ta.
- A unlisi nechanchi o'rinda turibdi? Birinchi o'rinda.
- O unlisi-chi? 14 o'rinda.
- Har bir harfning nimasi bor ekan? Har bir harfning o'z nomi bor.

Suhbatdan quyidagicha xulosa chiqariladi. Tartib bilan berilgan barcha harflar alifbodir. Alifboda 29 ta harf bor. Har bir harfning o'z o'mni va nomi bor.

Mazkur qoida darslikdan topib o'qitiladi.

5. Darslik bilan ishlash. 27-mashqda berilgan so'zlarning birinchi harfi bilan boshlanuvchi so'zlar topib, ular yonma-yon yoziladi: *ariq, anor, oliygoh, oromgoh* va h.k. Mashq doskada va o'quvchilarning daftarlari bajariladi.

28- mashq avval og'zaki, so'ngra yozma bajariladi. Alifboning birinchi beshta harfi ajratib o'qiladi. So'ngra ularning har biriga o'quvchilar ismlar topib, navbat bilan aytadilar va doskaga chiqib yozadilar. Bu mashq mustaqil bajarishga topshirilishi ham mumkin. Bunda har bir o'quvchi har qaysi harfga 5 tadan tanlagan ismlarini o'qiydi.

6. „Alfibingo“ mashg'uloti. Bu mashg'ulot „Alifbo“ dagi harflarni tartibi bilan tez-tez yoza olishga, o'quvchilar lug'atini boyitishga yordam beradi. O'quvchilarning har biriga A-4 bichimli qog'ozga yozilgan harflardan tarqatiladi. O'quvchi o'ziga berilgan harf bilan boshlanadigan bir necha so'zlar topib yozadi. Masalan: A — *anor, asal, ari, ayiq...* Yozganlarini maxsus belgilangan joyga „Alifbo“ tartibida osib qo'yadilar. O'quvchilar bir-birlarining yozganlarini imlo tomondan ko'rib chiqadilar va zarur bo'lsa, qo'shimcha kiritadilar. O'quvchilarning o'zlari tuzgan Alifbo sinfa uzoq saqlab turilsa, yangi-yangi so'zlar har kuni qo'shib boriladi.

7. Husnixat mashqlari.

Husnixat uchun material. *Hh. Halima, rayhon.*

8. Darsni mustahkamlash.

Savollar:

1. Alifboda nechta harf bor?
2. Unli harflar nechta?
3. Nечта harf birikmasi bor?
4. Alifbo deb nimaga aytildi?
9. Uyga vazifa: 29- mashq. Mashqda tushirib qoldirilgan harflar o‘rniga qo‘yiladi. Alifbodagi harflar tartibini yod olish, harflar nomini to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rganish.



## 14- DARS

**Mavzu:** tutuq belgisi.

**Darsning maqsadi:** tutuq belgili so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish qoidalari:

- ko‘chish (‘) tutuq (‘) belgilarining so‘zlarda ifodalanishi va ishlatalishiga e‘tibor berish;
- tutuq belgisi so‘zda qanday vazifa bajarishini o‘rganish;
- lug‘at so‘zlar ustida ishlash va lug‘atga *qal‘a, e’lon, san’at* so‘zlarini kiritish.

**Darsning turi:** takrorlash, mustahkamlash.

**Darsning uslubi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** „Buyuk i pak yo‘li“ tushirilgan xarita.

**Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. 36- mashq tekshiriladi. Hindistonning sobiq bosh vaziri Indira Gandhi haqida o‘quvchilarning tushunchalari mustahkamlanadi.

1. Indira Gandhi kim edi?
2. Uning bobosi qanday inson bo‘lgan?
3. Hindiston kimlarga qaram edi?
4. Gandining bobosi qanday niyatda edi?
5. Mustaqillik, ozodlik deganda nimani tushunasiz?
2. Chiroyli yozuv daqiqasi.

Shior: „*Go‘zal bo‘lsa husnixat,  
Bu ham erur bir san’at*“.

Har bir harf, so‘z va gap I qatordan yozdiriladi.

Kk. Karomat, kotiba. Karomat sinf yig‘ilishlariga kotibalik qiladi.

Chiroyli yozishda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerakligi aytildi:

- qo‘lni uzmasdan yozish.

Daftар chiziqlariga e'tibor bergen holda harflarni chiroylи va to'g'ri yozing, so'zlar orasidagi oraliqqa e'tibor bering.

3. Darslik bilan ishlash. 37- mashq.

So'zlar bo'g'inlab o'qiladi.

— Birinchi so'zni bo'g'inlab o'qing.

— *An'-a-na*.

— So'zda nechta bo'g'in bor?

— 3 ta.

— Birinchi bo'g'inda qanday belgi qo'llangan?

— Tutuq belgisi.

— Bo'g'in ko'chirishda tutuq belgisi qaysi yo'lida qoladi?

— Birinchi yo'lida qoladi.

Javoblar umumlashtiriladi. Tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib ko'chirishda tutuq belgisi oldingi yo'lida qoldiriladi.

Bu qoida kitobdan o'qitiladi. Shundan so'ng mashqdagи barcha so'zlar bo'g'inga ajratib yoziladi. Tutuq belgili so'zlarning bo'g'inlari tagiga chiziladi:

*An'-ana, a'-zo, ma'-ri-fat, ma'-yus, ma'-qul, ta'-na, ta'-zi-ya, ma'-lu-mot.*

4. Lug'at bilan ishlash.

*ta'-zi-ya* — biror yaqin kishisi vafot etgan odamning ko'nglini so'rash, g'amiga sherik bo'lisch;

*an'ana* — avloddan-avlodga o'tib keladigan urf-odat;

*ma'rifat* — ilm, bilim;

*ta'na* — minnat qilish, qilingan yaxshilikni gapirish.

Mashqdagи so'zlarda bosma о' va g' harflarida ishtirok etgan ko'chish (') belgisiga, tutuq (') belgisining so'zlarda qo'llanishiga e'tibor beriladi. о' harfi ishtirok etgan 4 ta so'z va g' harfi ishtirok etgan 4 ta so'z yozdiriladi.

**q** — *qo'g'irchoq, qo'rg'on, g'avvos, qo'ng'iroq.*

**g'** — *bo'g'oz, qo'ziqorin, qo'g'irchoq, g'o'za.*

5. Lug'at ishi.

Mashqda berilgan bir nechta so'zning ma'nolarini tushuntirish.

**Qur'on** — muqaddas diniy kitob.

**Qo'rg'on** — mustahkam, baland hamma tomoni devor bilan o'rab olingan bino.

**Mo'g'il** — xitoy xalqiga mansub millat.

**Da'vat** — biror yo'nalishga chaqirish, yig'ish-yig'ilish, va'zxonlik qilish.

**Qit'a** — dunyo bo'yicha eng yirik davlatlar (ular 6 ta: Yevropa, Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya, Antarktida).

6. 40- mashqni bajarish.

„Buyuk ipak yo'li“ matnini o'qishdan oldin quyidagi savollar beriladi:

- Bolalar, „Buyuk ipak yo'li“ haqida eshitganmisiz?
- „Buyuk ipak yo'li“ nimaga xizmat qiladi?
- Endi to'liq tushunchani matndan bilib olamiz.

Matn o'qiladi.

Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar (yo'li, qit'alar, o'tgan, o'lkalarda, qal'alari, to'ldirgan, yo'qotgan, o'z)ning yozilishiga o'quvchilarning e'tibori qaratiladi.

- Matnda birinchi ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi? (*Yo'li.*)
  - Keyingi ajratib ko'rsatilgan so'zni o'qing (*Qit'alar.*) Bu so'zlarning bosma harflardagi holati ham doskaga quyidagicha yozib boriladi: *yo'li* (yo'li), *qit'alar* (qit'alar).
  - *Yo'li* so'zining yozma va bosma holdagi ko'rinishiga e'tibor bering.
  - Kitoblarda, ya'ni bosma shaklda bu harfning belgisi qaysi tomonga qaratib berilgan? (O'ng tomonga qaratib, yon tomonda berilgan.)
  - Yozma holatda-chi? (Yuqorida, ya'ni harfning ustida berilgan.)
  - *Qit'a* so'zida qanday belgi qo'llangan? (Tutuq belgisi qo'llangan.)
  - Tutuq belgisi qayerga va qaysi tomonga qaratib qo'yilgan? (Yozma va bosma holatlarda ham birdek, o'zidan oldindi yoki keyin-gi tovushni ajratib ko'rsatish uchun chap tomonga qaratib, ikki harfning o'rtasida qo'llangan.)
- Matnda ajratib berilgan barcha so'zlar doskaga yozilib, imlosi yuqoridagidek ko'rib chiqiladi va bunday so'zlarning imlosini esda saqlash lozimligi aytildi. Matnning mazmuni yoritiladi.
- „Buyuk ipak yo'li“ nimaga xizmat qilgan? (Qit'alarни bir-biri bilan bog'lashga.)
  - Bu yo'l O'zbekistonning qayerlaridan o'tgan? (O'zbekistonning shahar va qal'alari orqali o'tgan.)
  - Bozorlarni nima bilan to'ldirgan? (Noz-ne'matlar bilan.)
  - Elatlarga qanday hayot baxsh etgan? (To'kin-sochin hayot baxsh etgan.)

— Xalqlar qanday hayot kechirishga intilganlar? (Bir-birlari bilan do'stlikda, tinchlikda, barqaror hayot kechirgan.)

— Hozirgi bu yo'l bormi, ahamiyati qanday? (Hozirgi bu yo'l bor, u o'z ahamiyatini yo'qotmagan.)

„Buyuk ipak yo'li“ haqidagi tushunchani kengaytirish maqsadida B.B.B. mashg'uloti o'tkaziladi. Doskaga quyidagi tartibda jadval chiziladi va o'quvchilarning bilganlari asosida to'ldiriladi.

Bilandik	Bildik	Bilmogchimiz
Savdo yo'li.	Do'stlik yo'li.	„Buyuk ipak yo'li“
Karvon yo'li.	Tinchlik yo'li.	O'zbekistonning
Qadimiy yo'l.	Barqarorlik.	qaysi joylaridan
	To'kin-sochinlik.	o'tgan?
	Qit'alarni bog'lovchi	Bu yo'l qaysi
	O'zbekistondan	davlatdan
	ham o'tgan.	boshlangan?
	Xitoy davlati.	
	Savdo-sotig'i	
	rivojlangan.	

7. Darsni yakunlash va uyga vazifa topshirish. 38- mashq. Mashqdagi birinchi so'z og'zaki bo'g'inga bo'lib aytildi (ma'-navi-yat) va doskaga namuna uchun yoziladi. Bunda tutuq belgining oldingi bo'g'inda kelishiga o'quvchilar diqqati qaratiladi.



## 15- DARS

**Mavzu:** sh, ch, ng harf birikmalari.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarни to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish;

— sh, ch, ng harf birikmalarining har biri bir tovushni ifodalashini va yozuvda birgalikda qo'llanilishi haqida bilim berish, so'zlamni bo'g'inga bo'lish qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish;

— lug'at boyligini oshirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jihosi:** ch, sh, ng harf birikmalari asosida yozilgan so'zlar jadvali.

## Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar va sinfning darsga tayyorgarligini va uy vazifasini tekshirish.

38- mashq. Mashq matnidagi so'zlar bo'g'inga bo'lib o'qitiladi. Ular ishtirokida tuzilgan gaplardan ayrimlari aytib turib yozdiriladi.

,Karimjon musobaqada g'oliblikka da 'vogar“.

2. Lug'at diktant o'tkazish.

Bunda imlosi o'rganilgan quyidagi so'zlardan foydalaniladi:

*Navbatchi, mashina, kitob, savol, javob, shabada, shaftoli, vazifa.*

O'qituvchi har bir so'zni alohida-alohida aytadi, o'quvchilar yozadilar.

O'quvchilar yozganlarini doskadan tekshiradilar.

3. Darslik bilan ishlash. 41- mashq.

So'zlarni bo'g'inga bo'linish holatiga e'tibor berish va mashq-dagi so'zlarni yozishda **sh**, **ch**, **ng** harf birikmalarini keyingi yo'lga qanday ko'chirilishini bilib olish va esda saqlash uqtiriladi.

4. Lug'at ishi.

**shamshod** — daraxt nomi

**qashqa** — belgi (nor, xol)

„Shamshod“ so'zini harf, tovush tomonidan tahlil qilish.

**Shamshod** — 6 ta harf, 6 ta tovush, 2 ta unli, 4 ta undosh, **d** — jarangli, **sh** — jarangsiz. So'z oxiridagi „d“ undoshi talaf-fuzda „t“ bo'lib eshitilsa ham, yozuvda saqlanadi.

5. Darslik bilan ishlash. 42- mashq.

**sh** va **ch** harflarinining yozilishiga e'tibor berish, so'zlarni bo'g'inga bo'lib ko'chirish natijasida **sh**, **ch** harflarinining yozilishi-ni esda saqlashga erishish nazarda tutiladi.

*Choy-shab, chor-shan-ba, ish-chan, sha-har-cha, sham-chiroq, shol-cha, shax-mat-chi, chash-ma, chil-dir-ma-kash, qo'shni-chi-lik, qo'-shim-cha, qo'sh-chi-nor.*

6. Lug'atimizni boyitamiz. Lug'at boyligini oshirish mashg'uloti. O'quvchilar doira shaklida turadilar va qog'ozdan yasalgan qor bilan qorbo'ron o'ynaydilar. Qog'oz „qor“ ni otish bilan ilib olgan o'quvchi **sh**, **ch** yoki **ng** harf birikmasi qatnashgan so'z aytib, o'rtoq'iga otadi. O'yin shu tariqa davom etadi. *Shar — choynak, shim — shingil, tong — bong* va h.k.

7. Husnixat malakalarini rivojlantirish.  
Husnixat uchun material.
- Mehnat bol keltiradi*
- Mehnat — mehnatning tagi rohat.*
8. Darsni yakunlash va mustahkamlash.
1. Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi qaysilar va ular haqida nimalarni o'rgandingiz?
2. Harf birikmasi qatnashgan so'zlarda bo'g'in ko'chirish qanday bo'ladi?
9. Uyga vazifa: 43- mashq.
- „Turnalar“ she'ri ifodali o'qiladi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasi asosida yozish topshiriladi.
10. O'quvchilar faolligi baholanadi.



## 18- DARS. INTERFAOL DARS

**Mavzu:** harf va harf birikmalari.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning bilimlatini mustahkamlash; ularning fikrlesh doiralarini kengaytirish; faolligini, fikrini dadil bayon eta bilish qobiliyatlarini o'stirish; o'quvchilarni birlarini hurmat qilishga o'rgatish.

**Darsning turi:** mustahkamlash.

**Darsning metodi:** interfaol usulda bahs-munozara, musobaqa.

**Darsning jahozi:** konvertlarda topshiriqlar, boshqotirma, sirli parchalar.

**Darsning borishi:**

**1- qadam.** Dars davomida quyidagi qoidalarga rioya qilish eslatiladi:

— faollik; dadillik; tezkorlik; intizomga rioya qilish; o'zaro hurmat; to'g'ri talaffuz; to'g'ri fikrlesh; vaqt — bu oltin;

**2- qadam.** Guruhlarga bo'lish. 5 guruhdan iborat 6—7 kishilik guruhga ajratiladi.

Stol ustiga har xil so'zlar yozilgan qog'ozlarni teskarisi o'girib qo'yilgan bo'ladi, o'quvchilar birin-ketin qog'ozlarni oladilar, qog'ozda yozilgan so'zlarda biror harf yoki harf birikmasi, belgi ajratib qo'yilgan bo'ladi, demak, o'sha ajratilgan harf, harf birikma yoki belgi o'quvchilarning guruhlarga bo'linishiga yordam beradi. Masalan: *o'rdak, a'lochi, shamol, choynak, tong*.

<b>ng</b>	<b>ch</b>	<b>sh</b>	<b>o'</b>	'
tong	choynak	shalola	o'rdak	a'lochi
bong	chinni	shamol	o'tkir	jur'at
ko'ngil	chaman	shaxmat	o'roq	qit'a
singil	charos	shakar	o'rmoq	ma'rifat
	chechak	shirin		
	chuchmoma			

**3- qadam.** Doskaga mana bu holatda ballar jamg'armasini belgilaydigan jadval chiziladi va dars davomida topshiriqlarni bajarishda to'plagan ballari shu jadvalga belgilab beriladi.

guruh nomi	test	boshqotirma	mantiq-fikr	harf-tahlil
sh				
ch				
ng				
o'				
'				

**4- qadam.** Guruhlar ishi.

1- topshiriq. (5 daqiqa ichida test topshiriqlari bajariladi.)

1. Harf nima?

- a) harfni ko'ramiz, eshitamiz, gapiramiz;
- b) harfni ko'ramiz, yozamiz va eshitamiz.

2. Tovush nima?

- a) tovushni ko'ramiz, yozamiz;
- b) tovushni eshitamiz, talaffuz qilamiz.

3. Qaysi qatorda harf birikmalari bo'g'inga ajratish qoidasiga muvosiq to'g'ri ajratib berilgan?

- a) sha-jara, olcha, tong;
- b) shaja-ra, o-lcha, tong;
- d) sha-ja-ra, ol-cha, tong.

4. Tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlar qaysi qatorda berilgan?


- a) sava, sher, tana;
- b) sa'va, she'r, ta'na;
- d) surat, rasm, asl.

5. Qaysi qatorda jarangli undoshlar berilgan?

- a) g', m, n, ng, r.
- b) d, r, t, s, ch.
- d) p, f, k, sh, j.


Guruhlarning ishi 5 ballik sistemada baholanadi va guruhlarning bali jadvalga qo'yib boriladi.

2- topshiriq. Boshqotirmaga 5 daqiqa vaqt ajratiladi (hamma guruhlarga ham shu chizmadagi boshqotirma beriladi).




1. O'zbekistonning poytaxti. (Toshkent)
2. Tabiat hodisasi bo'yicha. (Shamol)
3. Erta bahor guli. (Chuchmoma)
4. Subhidam. (Tong)
5. Uy-ro'zg'or buyumi. (Chelak)

3- topshiriq. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini o'stirish maqsadida „Sirli sharcha“ mashg'uloti o'tkaziladi. Bu mashg'ulotda biror-bir qattiqroq qog'ozga chizilgan turli narsalar rasmi har xil holatda qirqib olinadi va konvetrga solinadi. Konvertdag'i turli xil shakllarni 3 daqiqa ichida o'rniغا qo'yish kerak. Masalan, qirqma shar shaklini ko'raylik.



Yaxlit, tayyor holat



Qirqma holat

„Sirli sharcha“ 3 ballik sistemada baholanadi.

4- topshiriq. Berilgan so'zni harf-tovush tomondan tahlil qilish.

- 1- guruhga: *binafsha*
- 2- guruhga: *chinnigul*
- 3- guruhga: *boychechak*
- 4- guruhga: *chuchmoma*
- 5- guruhga: *gulbeor* so'zlari beriladi.

Topshiriqlar tugagandan so'ng guruhlar bir-birlariga interfaol darsidagi ishtiroki haqida o'z fikrlarini aytadilar. Jadvaldag'i ballar jamlanib, eng yuqori bal to'plagan guruh g'olib deb topiladi.

## 20- DARS

**Mavzu:** talaffuzda tushib qoladigan undoshlar.

**Darsning maqsadi:** a) talaffuzda tushib qoladigan undoshlarning imlosini takrorlab, mustahkamlash; b) chiroyli yozuv malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish; d) vatanni sevish, unga mehr-muhabbat hissini tarbiyalash.

**Darsning turi:** takrorlash, mustahkamlash.

**Darsning metodi:** suhbat, savol-javob, kuzatish.

**Darsning jahozi:** shahar va qishloqlar tasvirlangan rasmlar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi kuzatiladi.

2. Yoddan yozuv diktanti.

53- mashqdagagi she'r kitobdan bir necha marta o'qitiladi (o'qituvchi bilan birgalikda xor bo'lib, ovozsiz, ichdan, yakka holda). O'qituvchi o'quvchilar she'rni yod olganlariga ishonch hosil qilgach, kitoblar olib qo'yiladi. O'quvchilarga she'rni yod-dan mustaqil yozish tavsiya etiladi. O'quvchilar yozganlarini kitobdan tekshiradilar.

3. Talaffuzda tushib qoladigan undoshlarning imlosini kuzatish, o'rgatish.

So'z oxirida tushib qoladigan **t**, **d** undoshlarning imlosi

54- mashqni o'quvchilar jamoasi bilan doskada va daftarda bajarish orqali eslatiladi.

O'quvchilar mashq talabini bajarib, so'zlarni qayta o'qib yozganlariga qiyoslaydilar. O'qituvchi rahbarligida bunday so'zlarning talaffuzi va yozilishidagi farqni aniqlaydilar, shu so'zlar bilan og'zaki gaplar tuzadilar. O'qituvchi qoidani tushuntirgach, o'quvchilar uni kitobdan o'qiydilar, qoidaga mos misollar tanlaydilar, o'quvchilar aytgan so'zlardan 6—8 tasi doskaga (talaffuzda tushib qoladigan undoshlar o'rniga nuqta qo'yib) ikki ustun shaklida yozib boriladi.

Samarqan .

payvan .

bahraman .

Toshken .

darax .

kaf .

O'quvchilar birinchi ustundagi so'zlarning oxiriga „d“, ikkinchi ustundagi so'zlarning oxiriga „t“ undoshlarini qo'yib,

so'zlarni ko'chiradilar. O'qituvchi so'zlarni o'qiydi. Bolalar so'zlarning aytilishi bilan yozilishini kuzatib boradilar. Birinchi ustundagi so'zlar o'qilganda „d“ undosh tovushining tushib qolayotganini, ikkinchi ustundagi so'zlar o'qilganda esa „t“ undosh tovushi tushib qolayotganini aniqlaydilar. Qoidani bilganlarini aytib beradilar. So'ngra 55- mashqni bajaradilar.

#### 4. Mustaqil ish.

O'qituvchi doskaga *farzan.*, *mush.*, *balan.*, *mashinis.*, *dilban.*, *g'ish.*, *ros.* so'zlarini yozib qo'yadi, o'quvchilarga nuqtalar o'miga „t“, „d“ undoshlaridan mosini qo'yib, doskada berilgan so'zlarni ikki ustun shaklida yozishni topshiradi va birinchi ustunga oxirida „d“ harfi yoziladigan, ikkinchi ustunga esa oxirida „t“ harfi yoziladigan so'zlarni yozish tushuntiriladi. Mustaqil ish o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi.

#### 5. Mantiqiy mashq.

57- mashq. Bu mashq topshirig'iga ko'ra og'zaki bajariladi. O'quvchilarning diqqati juft, *to'rt* so'zlarining talaffuzi va imlosiga qaratiladi. Bu so'zlar o'quvchilarga takror-takror talaffuz qildiriladi. Talaffuzda *to'rt* emas *to'r* eshitilayotgani, bunda so'z ma'no butunlay o'zgarib ketganligi, *juft* so'zini talaffuz qilishda *juft* emas, *jup*, ya'ni „f“ o'mida „p“ talaffuz etilayotgani, shunga qaramay, bu so'zlar aslicha yozilishi tushuntiriladi. So'ngra gap mazmunan qanday gap ekanligi aniqlanadi. Gap mantiq tomondan ko'rib chiqiladi va unda so'ralayotgan narsa qanday joylashtirilishi haqida xulosa chiqariladi.

#### 6. Husnixat mashqlari.

Husnixat uchun material. *Uu. Umid, Murod, Umid Murod bilan inoq.*

#### 7. Darsni yakunlash.

8. Uyga vazifa: 56- mashq. Talaffuzda „T“, „D“ undoshlari tushib qoladigan so'zlardan 10 ta topib yozish.



### 23- DARS

**Mavzu:** yonma-yon kelgan bir xil undoshlar.

**Darsning maqsadi:** yonma-yon kelgan bir xil undoshlar haqidagi bilimlarni to'ldirish:

- bo'g'in ko'chirish qoidasi va so'zlarning imlosini yodda saqlash;
- topishmoqlarni tezkorlik bilan topishga o'rgatish.

**Darsning turi:** mustahkamlovchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat-musobaqa metodi.

**Darsning jihozi:** yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlar yozilgan jadval.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasini tekshirish: 60- mashqning bajarilishi doskada tekshiriladi. O'quvchilar doskaga mashqdagi so'zlarni 3 ustunga bo'lib belgilangan joyga yozib chiqadilar:

kk	mm	m
ikki	hammom	tonna
xokkey	kilogramm	tennis
murakkab	hamma	antenna

2. Husnixat mashqlari. Husnixat uchun material. *Rr ruxsat, raftor, raqobat, ramazon, Registon, Rim, Rossiya, Respublika.*

Bular husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yoziladi.

3. Darslik bilan ishlash. Topishmoqlar berilgan 61- mashq o'quvchilar bilan birgalikda og'zaki bajariladi. Topishmoqlar va topishmoqda yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlar bo'g'inga bo'lib aytildi.

Masalan: *op-poq, am-mo, til-la.*

4. Saylanma diktant.

Diktant uchun material — *sakkiz, jizza, katta, koptok, hassa, kassa, xirmon, albatta, sado, xokkey.*

O'qituvchi so'zlarni aytib turadi. O'quvchilar yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni yozadilar.

5. Dars bilan ishlash. 62- mashq. Mashqdagi yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlar o'qiladi, talaffuziga ahamiyat beriladi.

*Tabarruk, tabassum, alla, mahalla* so'zlari bilan gaplar tuziladi va shundan 2 tasi doskaga o'quvchilar ishtirokida yoziladi.

Masalan: *Onajon tabarruk yoshingiz qutlug' bo'lsin! 2003- yil — Obod mahalla yili bo'lgan. Ona allasida qancha-qancha orzu-umidlar bor. Ona farzandiga tabassum ila boqdi.*

63- mashqni bajarishdan oldin o'quvchilar 3 guruhgaga bo'linib, o'zlariga nom tanlaydilar va ustunda berilgan so'zlarda tushirib qoldirgan harflarni o'rniغا qo'yib so'zlarni o'qiydilar, quyidagicha yozadilar. Masalan:

1 - guruh

*omad*

*mukammal*

2 - guruh

*ibrat*

*minnatdor*

3 - guruh

*sadoqat*

*tanaffus*

Shundan so'ng guruhlar bir-birlarining ishlarini kuzatib, xatolarini to'g'rileydilar. Har qaysi guruh navbat bilan so'zlarni o'qiydi. O'qituvchi shu so'zlarning imlosini yodda saqlash lozimligini ta'kidlaydi.

6. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

— Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarning talaffuzi qanday bo'ladi?

— Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inga ko'chirishdag'i holatini tushuntiring.

7. Uyga vazifa: 64- mashq.

Tez aytishlar tez va to'g'ri o'qish qoidalari asosida ifodali o'qiladi. Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inga bo'lib yozish doskada ko'rsatiladi.

8. O'quvchilar faolligi reyting ball sistemasida baholanadi.

### GAP

(29 soat)

O'quvchilar 2- sinfda gap bilan amaliy tanishganlar, nutqdan gaplarni ajratishni, gapning tugallangan mazmun bildirishini, gap oxirida ovozning pasayishi va to'xtam bo'lishini, yozuvda nuqta qo'yilishini, gap kim yoki nima haqda aytiganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni aniqlashni, gap tuzishni va gapni savollar orqali kengaytirishni, gapning bиринчи so'zi bosh harf bilan boshlanishini bilib olganlar. 3- sinfda o'quvchilarning „Gap“ mavzusi yuzasidan olgan bilimlari takrorlanib, mustahkamlanadi va kengaytiriladi.



### 25- DARS

**Mavzu:** gap haqida egallangan bilimlarni umumlashtirish.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning gap haqidagi bilimlarini aniqlash; matndagi gaplarni ohang bilan o'qish, nima haqda ekanligini anglash; o'quvchilar nutqini o'stirish; gap tugagandan so'ng keyingi gapning bosh harf bilan yozish qoidalari eslatiladi;

o'quvchilarga tinchlik, do'stlikni qadrlash kabi xislatlarni singdirib borish; yaxshi niyatlar qilishga o'rgatish.

**Darsning turi:** umumlashtiruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** „Orzular shaharchasiga sayohat“ plakati, darslik.

**Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga hozirligini aniqlash. O'tgan darsda yozilgan „bayon“ haqida biroz to'xtalib, ballar e'lon qilinadi.

2. „Orzular shaharchasiga sayohat“ yozuvi yozilgan plakat doskaga osib qo'yiladi va o'quvchilar kelgusida nimalarni orzu qilishlari haqida o'zlarining fikrlarini aytadilar va bu haqda gaplar tuzadilar. Orzularga erishish yo'lida tinmay izlanish, o'qish, o'rganish kerakligi aytildi. Tuzilgan gaplardan eng mazmunli, chiroyli va dolzarb mavzudagisi tanlab olinadi. Gap tuzgan o'quvchi doskaga chiqib, tuzgan gapini yozadi. Boshqa o'quvchilar ko'chirib yozadilar.

3. Husnixat mashqlari. „*Chiroyli yozuv — insonning husni*“ shiori ostida. Samarcand, sayqal.

*Ss Samarcand — qadimiy, tarixiy shahar. U yerdagi me'moriy obidalarga berilgan sayqal xorijiy mehmonlarni ham hayratga soladi.*

4. Lug'at ishi.

**Sayqal** — jilo berish, zeb berish.

**Xorijiy** — chet ellik kishi.

**Me'moriy obidalar** — asrlar davomida saqlanib kelinayotgan tarixiy imoratlar.

5. Darslik bilan ishlash. 66- mashq shartiga ko'ra bajariladi.

Birinchi gapni o'qing.

— *Dunyodagi barcha erksevar xalqlar bir so'zni sevib aytadilar* gapi necha so'zdan tuzilgan (8 ta so'zdan.)

— Gap oxirida ovoz nima qilyapti? Ovoz pasayyapti.

— U nimani bildiryapti? Tugallangan fikrni.

— Gap oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilgan? (Nuqta.)

Erksevar xalqlar ovozi mavzusidagi matnda berilgan har bir gap o'quvchilarga alohida-alohida o'qitilib, yuqoridagidek suhbat asosida barcha gaplar tahlil qilinadi va gap haqida berilgan darslikdagi qoida keltirib chiqariladi (gap tugallangan fikrni bildiradi). Bu qoidani darslikdan topib o'qish o'quvchilarga tavsiya etiladi,

so'ngra matndagi gaplar ko'chirib yozdiriladi. Yozilgan gaplar — matn qayta o'qiladi. So'ngra quyidagicha savol-javob o'tkaziladi.

- Matnda nechta gap bor? (4 ta.)
- Barcha xalqlarning orzusi nima? (Tinchlik.)
- *Tinchlik* so'zi turli xalqlar tilida qanday yangraydi? (Turli-cha yangraydi.)

— Siz nechta millatni bilasiz?

— Qaysi millatning tilida tinchlik so'zini ayta olasiz?

— *Tinchlik* deganda siz nimani tushunasiz?

Siz savollarga javob berishga harakat qildingiz. Firk bildirdingiz.

Demak, har bir gap tugallangan fikrni bildiradi.

6. 67- mashq.

O'quvchilarga gaplarning chegarasini aniqlab, matnni mustaqil o'qib chiqish topshiriladi. So'ngra mashqdagagi gaplar ustida ishlanadi.

- Birinchi gapni o'qing (biz do'stlikni ulug'laymiz.)
- Gap oxirida ovoz nima qildi? (Pasaydi.)
- Gap oxiriga qanday tinish belgisini qo'yamiz? (Nuqta.)
- Nuqtadan keyingi gapning birinchi so'zi yozuvda qanday harf bilan boshlanadi? (Bosh harf bilan boshlanadi.)
- Ikkinchi gapni o'qing.(Do'stlikda katta hikmat bor.)
- Gap oxiriga nima qo'yiladi? (Nuqta.)
- Gap oxirida ovoz nima qiladi? (Pasayadi.)
- Bir gap ikkinchi gapdan nima bilan ajratiladi? (Nuqta bilan.)
- Nuqtadan keyin kelgan gapning birinchi so'zi qanday harf bilan boshlanadi? (Bosh harf bilan boshlanadi.)

Gaplar ana shunday tahlil qilinib, doskaga yozib boriladi. O'quvchilar daftarlariiga ko'chirib oladilar.

Mashqdagagi gaplar yozib bo'lingach, matnning mazmuni va tarbiyaviy jihatini ochish uchun savollar beriladi.

- Matn necha gapdan tashkil topgan? (5 ta gapdan.)
- Biz nimani ulug'laymiz? (Do'stlikni.)
- Do'stlik kishilarni nima qiladi? (Kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi.)
- Vatan obodligi, yurt tinchligi nimaga bog'liq? (Do'stlikka bog'liq.)
- Sizning do'stingiz kim?
- Do'st nima uchun kerak? (Og'ir kunida yordam berish, maslahatlashish...)
- Do'sti ko'p inson nimalarga erishadi? (Baxtga ...)

## 7. Yoddan yozuv diktanti:

*O'tgan yili bahorda,  
Gul ko'chati o'tqazdim.  
Tezroq gulim ochilsa,  
Do'stga sovg'a qillardim.*

She'r doskaga yozib qo'yiladi, bir nech bor o'quvchilarga o'qitiladi va ushti to'sib qo'yiladi. O'quvchilar she'rni yoddan yozadilar va yozganlarini doskadan tekshiradilar. To'g'ri, tez va chiroyli yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## 8. Darsni mustahkamlash.

— Aziz o'quvchilar, biz siz bilan inson hayoti uchun zarur bo'lgan eng oliv ne'matlarning ba'zilari bilan mashqlarimiz orqali tanishdik. Ular qaysilar? (Tinchlik, do'stlik.)

— Endi uni qadrlay olasizmi?

— Biz siz bilan tinchlik, do'stlikka oid nimalar tuzdik? (Gaplar.)

— Gaplar nimalardan tuziladi? (So'zlardan.)

— Gaplar nimani bildiradi? (Tugallangan fikrni.)

9. Uyga vazifa: 68- mashq. Gaplarning mazmuniga e'tibor berib, matnni ko'chirib yozish.

Siz uyda qanday ishlar qilasiz? Uydagi yumushlar haqida kelgusi darsda o'rtoqlashishga tayyorlanib kelish topshiriladi.



## 27- DARS

**Mavzu:** gapning turlari.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish; rasm asosida gap tuzishga o'rgatish; o'quvchilarda nutq o'stirish, to'g'ri talaffuz qilish malakalarini shakllantirish; gap mazmuniga qarab maqsadlarini anglab olish.

**Darsning turi:** yangi bilim berish.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning johozi:** rasmlar, darslik.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasini tekshirish. O'quvchilarning do'stlik-o'rtoqlik haqida tuzgan bog'lanishli gaplari o'qitiladi. To'g'ri, mazmunan teran, bog'lanishli gap tuzgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

2. Darslik bilan ishlash. 71- mashq. Mashqda berilgan matn o'qitilib, har bir gap qanday mazmun anglatayotgani va oxiriga

qanday belgi qo'yilgani aniqlanadi. Mashqning ikkinchi sharti yuzasidan suhbat tashkil etiladi.

— So'roq mazmunini bildirgan gapni topib, ichingizda o'qing.

— Gul ko'vachalari ichiga boshini suqib turgan asalarini ko'rghanmisiz? (Ha, ko'rghanmiz.)

— Bu gap qanday mazmun bildiryapti? (So'rash mazmunini bildiryapti.)

— Oxiriga qanday belgi qo'yilgan? (So'roq belgisi qo'yilgan.)

Keyingi gaplar o'qiladi.

— Ular nima qiladi? (Gullarning shirasini so'rib oladi.) Bu voqeа qachon bo'lishi va asalarining ishi haqida xabar berayotgan gapni o'qing:

— Ari gul shirasini so'radi. Undan asal tayyorlaydi.

Bu gapdan qanday ma'no anglashilyapti? (Darak ma'nosi anglashilyapti.) Asalning mazasi, foydasi haqida his-hayajon bildirgan gapni o'qing. — Oh, asal juda mazali! Yana uning ko'p dard-larga davoligi-chi!

O'qituvchi javoblarni umumlashtiradi: har bir gap biror maqsad bilan aytildi. Kishilar o'zaro so'zlashganda biror narsa haqida xabar beradilar, biror narsa haqida so'raydilar, biror narsa haqida his-hayajon bilan so'zlaydilar.

Darslikning 34- betidagi o'qitiladi.

3. Chiroli yozuv malakalarini shakllantirish.

*Uu uzum, Urganch, Urumchi, ustoz, uyg'ur.*

*Urumchida uyg'urlar yashaydi.*

Husnixat qoidalariга rioya qilishga daftар va ruchkani to'g'ri ushlashga e'tibor berilishi ta'kidlanadi.

4. Rasm bilan ishslash.

Doskaga „Qovun sayli“ rasmi osib qo'yiladi. O'quvchilar diqqati doskadagi rasmga qaratiladi. Rasm asosida suhbat uyushtiriladi.

— Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? (Poliz, qovun, bobo, kishilar, bolalar.)

— Karim bobo nima qildi? (Qovun ekdi.)

— Kimlar Karim bobonikiga kelishdi? (O'g'illari, nabiralari kelishdi.)

— Ular nega kelishdi? (Qovun sayliga kelishdi.)

— Karim bobo nima qilyapti? (O'g'illariga, nabiralari qovun so'yib beryapti.)

Javoblardan kichik hikoya tuziladi.

Karim bobo qovun ekdi. Kuzda qovunlar pishdi. O'g'illari, nabiralari Karim bobonikiga qovun sayliga kelishdi. Karim bobo shirin qovunlardan so'yib berdi. Oh, shirin qovunlar! Nabira bobsidan so'radi:

— Bobo, yana qovun ekasizmi? Karim bobo kulib qo'ydi.

O'quvchilar hikoyani doskadan ko'chirib yozadilar. Hikoyada qanday gaplar borligi aniqlanadi.

5. Darslik ustida ishlash. 72- mashq shartiga ko'ra bajariladi. She'rdagi gaplar qanday mazmun-maqsadni bildirayotgani aniqlanadi. Avval so'roq, so'ngra his-hayajon bilan aytilgan gaplar ko'chirib yoziladi. Savollar orqali she'rning mazmuni yoritiladi.

— Ammasi Dildoradan niman so'radi?

— Dildora nima deb javob qildi?

— Yana qanday gaplar bor?

— Ular nima haqida?

Avval so'roq gaplarni, so'ngra his-hayajon bilan aytilgan gaplar javobi yozdiriladi.

6. Test mashg'uloti:

1. Xabar mazmunini bildirgan gap qaysi?

a) biram mazali non ekan! b) kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

d) tandirda non yopiladi.

Testning javobini bolalar kartochkalar orqali ko'rsatadilar.

7. Darsni mustahkamlash.

Gaplar turli mazmun-maqsadda qo'llanadi. Ular xabar, darak, so'rash, his-hayajonni ifodalaydi.

8. Uyga vazifa: 73- mashq. Mantda nechta gap borligi, gaplarning turi, ular qanday mazmun anglatishi ko'rib chiqiladi. Mashqning ikkinchi shartini bolalar uyda bajaradilar.



## 28- DARS

**Mavzu:** darak gap.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning darak gaplar haqidagi bilimlarini kengaytirish; matn tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish; lug'at boyligini oshirish; muomala madaniyatini tarbiyalash.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi dars.

**Darsning metodi:** izlanish metodi.

**Darsning jahozi:** uydan maktabgacha bo'lgan yo'l tasviri, 4 fasla oid rasmlar.

## Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish.
2. Uy vazifasini tekshirish. 73- mashq. Matnda nechta gap borligi va ular qanday gap ekanligi aniqlanadi.

3. „Muzyorar“ mashg'uloti o'tkaziladi. Bu mashg'ulotda o'quvchilar iliq so'zlar aytib, bir-birlariga gul beradilar. Ra'no Muhayyoga gul berayotib: „Ozoda kiyinibsan“ desa, Muhayyo Botirga: „Kecha futbolda g'olib bo'libsizlar, tabriklayman“, — deb yaxshi so'zlar aytishadi. Bu bilan o'quvchilarning faolligi os-hadi, bir-birlari bilan tezda muloqotga kirishib ketadilar.

## 4. Darslik bilan ishlash. 74- mashq.

O'quvchilarning uydan maktabga kelguncha kimlarni ko'rganlari, kimlar bilan suhbatlashganlari, qanday voqeа-hodisalarining guvohi bo'lganlari haqida savollar bilan suhbat uysushtiriladi.

- Yo'lda kimlarni uchratdingiz?
- Nima haqida suhbatlashdingiz?
- Yo'lda sizni nima qiziqtirdi?
- Qanday voqeaneaning guvohi bo'ldingiz?

Savollarga berilgan javoblardagi gaplardan 3—4 tasi yoziladi. Gaplarning mazmuni aniqlanadi. Masalan: 1. Bolalar maydonchada o'ynamoqda. 2. Avtobus bekatga kelib to'xtadi. 3. Qo'y-qo'zilar o'tladi.

Gaplar o'qilib, nima haqida aytilgani so'raladi:

- Birinchi gapni o'qing. (Bolalar maydonchada o'ynamoqda.)
- Gap oxirida ovoz nima qildi? (Pasaydi.)
- Gap kim haqida aytilgan? (Bolalar haqida.)
- Gap qanday ma'no bildiryapti? (Xabar ma'nosini.)
- Gap oxiriga nima qo'yiladi? (Nuqta.)

Keyingi gaplar ham xuddi shunday tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi.

Biror narsa haqida darak (xabar) bildirgan gap darak gap deyiladi. Darak gapning oxirida ovoz pasayadi. Darak gapning oxiriga nuqta qo'yiladi. Bu qoida darslikdan topib o'qitiladi. O'quvchilar doskadagi gaplarni ko'chirib yozadilar.

## 5. Ijodiy ish. O'quvchilarga topshiriqlar beriladi.

1 - t o p s h i r i q . Havorang, yumshoq narsalardan 6 ta topib yozing: (ro'mol, junpaypoq, qo'lqop, sochiq, ip, yostiq bo'lishi mumkin). Topshiriqnini o'quvchi yolg'iz bajaradi, shu sababli u biroz cho'chiydi.

**2 - topshiriq.** Qattiq, qora narsalardan 6 ta topib yozing: (ko'mir, temir, qora qalam, stol-stul, marmar, qora tosh bo'lishi mumkin).

O'quvchilar 1—2-topshiriqni yolg'iz bajarganlarida biroz cho'chiydi.

**3 - topshiriq.** Bu topshiriqni bolalar sheriklari bilan bajaradilar. Ular topgan so'zlarini qatnashtirib, 2 ta gap tuzadilar va daftarga yozadilar. Bu topshiriq sheriklari bilan bajarilganligi uchun osonroq kechadi.

6. Darslik bilan ishlash. 75- mashq. Og'zaki bajarish.

Bajarishdan oldin o'quvchilar diqqati fasllar haqidagi rasmga qaratiladi. Bolalar rasmda tasvirlangan qish, bahor, yoz, kuz fasllari haqida o'z fikrlarini bildiradilar. So'ngra Uyg'unning „Kuz“ haqidagi she'ridan parcha ifodali o'qiladi. She'rda gap nima haqida borayotgani aniqlanadi.

7. Uyga vazifa. 76-mashq. Gap chegarasi aniqlanadi. Gap oxiriga nuqta qo'yib, keyingi gap bosh harf bilan boshlanadi.

8. Darsni yakunlash, o'tilganlarni umumlashtirish.

— Darak gap deb nimaga aytildi?

— Darak gapning oxirida ovoz nima qiladi?

— Darak gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

9. O'quvchilarning olgan baholari e'lon qilinadi va baholar izohlanadi.



## 30- DARS

**Mavzu:** so'roq gap.

**Darsning maqsadi:** so'roq gap haqida tushuncha berish; gaplarning o'qilish ohangiga e'tibor berish.

**Darsning turi:** yangi bilim berish.

**Darsning metodi:** savol-javob.

**Darsning jahozi:** telefon o'yinchog'i, turli rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasi: 78- mashq tekshiriladi. Matnda nechta va qanday gaplar borligi aniqlanadi. Matn yuzasidan savollar beriladi.

2. „Men kimman?“ mashg'uloti o'tkaziladi. Bir o'quvchi doskaga chiqariladi, uning o'ziga ko'rsatmay, boshiga toj kiydiriladi. Tojda mushukcha rasmi bo'ladi. Toj kiygan o'quvchi o'zining kimligini o'rtoqlaridan so'rab, bilib oladi. Masalan:

- Men kimman, jonlimanmi? (Ha.)
- Insonmanmi? (Yo'q.)
- Hayvonmanmi? (Ha.)
- Yovvoyimi? (Yo'q.)
- Uy hayvonimi? (Ha.)
- Sut ichamanmi? (Ha.)
- Suyak yeymanmi? (Yo'q.)
- Miyov deymanmi? (Ha.)
- Men mushukmanmi? (Ha, topding.)

„Mushuk“ so'zi tovush-harf tomondan tahlil qilinadi. Bu so'z ishtirokida so'roq va darak gaplar tuziladi.

### 3. Husnixat mashqlari.

Shior: *Solishtirib ko'raylik, kimning xati chiroqli?*

Husnixat uchun material.

*Yy Yo 'Idosh, yetti.*

*Yo 'Idosh qanday yigit?*

*Yo 'Idosh mehnatkash, u bu yil yetti gektar yerga ekin ekdi.*

O'quvchilar bularni husnixat qoidalariiga rioya qilgan holda yozadilar.

4. Darslik bilan ishlash. 80- mashq shartiga ko'ra o'quvchilar bir-birlariga savol beradilar.

- Gulnoza „Sirli xazina“ kitobini o'qidingizmi?
- Ha, u kitob menga juda yoqdi.
- Faxriddin, sport to'garagiga qatnashasizmi?
- Albatta, juda qiziqaman. Sportning „karate“ turiga qatna-shaman.
- Birinchi gapdan qanday mazmun anglashilyapti? (So'roq mazmuni anglashilyapti.)
- Qanday belgi qo'yiladi? (So'roq belgisi qo'yiladi.)
- Ertaga qaysi muzeyga boramiz?
- Ertaga tabiat muzeyiga boramiz.

Turli xil savollarga berilgan javoblardan 2—3 ta gap yoziladi. Gap oxirida tinish belgisi qo'yiladi. O'quvchilar ko'chirib yoza-dilar.

### 5. 81- mashq ustida ishlash.

Q. Muhammadiy qalamiga mansub „Bizning kuz“ she'ri ifo-dali o'qiladi.

- She'rda nechta gap bor? (5 ta.)
- Gaplarning oxiriga qanday belgi qo'yilgan? (So'roq belgisi qo'yilgan.)

- Nima uchun? (Gaplardan so'roq mazmuni anglashilyapti.)
- Birinchi gap nima haqida aytilgan? (Og'aynilar haqida.)
- Gapdan qanday mazmun anglashilyapti? (So'roq mazmuni.)
- Demak, bu qanday gap? (So'roq gap.)

Boshqa gaplar bilan ham ana shunday suhbat o'tkaziladi. She'rlardagi so'roq gaplarga alohida to'xtaladi, so'roq gaplarning oxiriga so'roq belgisi (?) qo'yiladi.

She'rdagi chirolyi o'xshatishlar, oltin kuzning ta'rifi shoirning tili, badiiy uslubi o'tkir ekanligidan dalolat beradi. Savollar o'quvchilarning fikrлari orqali kengaytiriladi.

- „Oq oltin“ deganda nimani tushunasiz?
- Qirqma, uyum-uyum deganda nimani tushunasiz? (*Qirqma — qovun turi, uyum-uyum — xirmon.*)
- Paxtazorda bo'lganmisiz?

6. Darak, so'roq gaplarni mustahkamlash maqsadida o'yin o'tkazish. O'quvchilar o'yinchoq (bolalar telefoni) orqali bir-birlari bilan so'zlashadilar. Imkonli boricha telefonda gaplashish odobiga rioya qilgan holda gaplashishlariga e'tibor qaratiladi. Telefonda, asosan, ikki kishining suhbatni, 1- kishi so'raydi, 2- kishi javob beradi.

Demak, bugungi darsda bir-birimizning savollarimizga qiy-nalmay javob berishni o'rgandik.

7. Uyga vazifa: 82- mashq. Mashqda berilgan so'roq gaplarga mos darak gaplar tuzib yozish haqida namuna ko'rsatiladi.

8. O'quvchilar bilimi ball tizimida baholanadi.



### 33- DARS

**Mavzu:** so'roq gap (takrorlash, mustahkamlash).

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tez aytish qobiliyatlarini o'stirish; gap tuzishni o'rgatish orqali o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish; gaplardan ifoda etilgan mazmunni anglab olish; tabiatni kuzatish va asrashga o'rgatish.

**Darsning turi:** takrorlash, mustahkamlash.

**Darsning metodi:** muammoli ish metodi.

**Darsning jichozi:** tez aytishlar yozilgan tarqatma materiallar.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasini tekshirish. 88- mashq tekshiriladi. Matnda nechta gap borligi, ular mazmun-maqsadga ko'ra qanday gap ekanligi aniqlanadi.

— Q.Muhammadiyning yana qanday she'rlarini bilasiz?  
(Temirlar o'yini.)

— Bolalar shoirlaridan yana kimlarni bilasiz? (Z. Diyor,  
Q. Hikmat, P. Mo'min.)

— Ularning qaysi she'rlari sizga yoqadi? („Kuz“, „Maktab“ ...)

2. Muammoli ish uslubida: „O'yla, izla, top“ o'yini.

O'qituvchi stolga 15—16 ta maqol, topishmoq, tez aytishlar yozilgan qog'ozchalarni teskari holatda qo'yib qo'yadi. O'quvchilardan 3 tasini taklif qiladi. 3 ta o'quvchi stol ustidagi qog'ozchalardan oladi va yozilgan gaplarni o'qiydi va ular xalq og'zaki ijodining (maqol, topishmoq, tez aytish) qaysi turiga kiringini aytib beradi. Qaysi o'quvchi tezroq, ko'proq ishlasa u g'olib sanaladi.

Qo'l-oyoqsiz, chopib tolmas,  
Suvsiz aslo yashay olmas. (*Topishmoq*)

Mard maydonda sinalar. (*Maqol*)

Hakim xokkey o'ynadimi,  
Hokim xokkey o'ynadimi? (*Tez aytish*)

G'olib o'quvchi yuqori ball tizimida baholanadi va rag'bat-lantiriladi.

3. Husnixat mashqlari shiori:

*Chiroylidir yozuvim,*  
*Ko 'rsam kelar havasim.*

Husnixat uchun material.

*G'g' — g'oz, g'ildirak, g'aram, g'am, g'anim, G'ijdivon, G'ani, g'altak.*

Chiroyli, toza, to'g'ri yozish qoidalari eslatiladi.

4. Lug'at ishi. *G'aram, g'anim, g'altak* so'zlarini tovush-harf tomondan tahlil qilish.

**G'aram** — uyum, yig'ilgan, to'plangan. 2 bo'g'inli, 5 harf, 5 tovushdan iborat, 2 ta unli, 3 ta jarangli undosh tovushli so'z.

**G'anim** — dushman, ko'ra olmaslik. 2 bo'g'in, 5 harf, 5 tovush, 2 ta unli, 3 ta jarangli undosh tovushli so'z.

**G'altak** — 2 bo'g'in, 6 harf, 6 tovush; 2 unli, 4 undoshli so'z.

5. Darslik bilan ishslash. 89- mashqdag'i tez aytish ifodali o'qiladi va tez aytish mashq qilinadi.

*Ikki ayiq qayiqqa qaradi,  
Oq ayiq oldin, qayiqqa qaradimi,  
Qora ayiq oldin qayiqqa qaradimi?*

Tez aytish qanday gaplardan tuzilgani aniqlanadi. Gaplar oxi-  
riga kerakli tinish belgisi qo'yib, ko'chirib yoziladi.

6. Uyga vazifa: 90- mashq. „Kapalak“ matnidagi darak gaplarni  
so'roq gaplarga aylantirib namunadagidek yozish.



## 35- DARS

**Mavzu:** undov gap.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga his-hayajon gaplar haqida  
ma'lumot berish; his-hayajon gaplarni o'qish ohangini o'rgatish;  
tabiatdan zavqlanish, bahra olish kabi his-tuyg'ularni tarbiya-  
lash; o'quvchilar yozuvining chiroyli bo'lishiga erishish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jihizi:** turli ko'rinishdagi rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga hozirliklarini kuza-  
tish.

2. Mustaqil ish. Mustaqil ish uchun topshiriq. Berilgan so'roq  
gaplardan darak gaplar tuzish va yozish. Gap oxiriga kerakli tinish  
belgisini qo'yish.

1. Tanlovda kim birinchi o'rinni egalladi?

2. Ziyodaning dadasi nima sovg'a qildi?

3. Qayerda baland-baland yangi binolar qad ko'tardi?

O'quvchilar tomonidan gaplar ichidan eng mazmunlisi doskaga  
yoziladi yoki o'quvchining o'zi yozadi. Mazmuniga qarab, gap  
oxiriga kerakli tinish belgisi qo'yiladi.

3. Yangi mavzuning bayoni. Yangi mavzu e'lon qilinib,  
o'quvchilar diqqati doska oldiga terib qo'yilgan turli xil rasmlarga  
qaratiladi. Rasmlarda sho'x-shodon o'g'il-qizlarning har xil quvnoq  
holatdagi rasmlari tasvirlangan.

O'quvchilar rasmdagi holatni his qilib, shu asnoda his-haya-  
jon anglatgan gaplar tuzadilar. Masalan: *Arg'imchoq uchish qan-  
day maza! Voy-bo', gullarni chiroyligini! Voy, suv biram muzdek!*  
*Oh, tog' havosi biram toza! Oh, buncha shirin tarvuz ekan!* kabi-  
lar.

Gaplarning har biri ustidan suhbat o'tkaziladi.

— Kamola sen qanday gap tuzding?

— Arg'imchoq uchish qanday maza!

— Gapdan qanday ma'no anglashilyapti?

— His-hayajon ma'nosи anglashilyapti. — Bunday gaplarning oxiriga undov (!) belgisi qo'yiladi.

Boshqa o'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplardan yana bir-ikkitasi yuzasidan shunday suhbat o'tkaziladi. O'qituvchi javob-larni umumlashtiradi va qoida chiqariladi: Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap undov gap deyiladi. Undov gapning oxiriga undov (!) belgisi qo'yiladi. Qoida kitobdan bolalarga o'qitiladi.

#### 4. Husnixat mashqlari.

Rasmlar asosida tuzilgan gaplardan chiroyli yozuv qoidalariга rioya qilgan holda 3 tasi doskaga yoziladi. Bu gaplarni yozishda husnixat qoidalariга e'tibor qaratiladi.

Harf unsurlarni to'g'ri qo'llab, qo'llarni uzmasdan chiroyli yozish, tinish belgilarini gap oxirida to'g'ri qo'yishga erishish.

#### 5. Darslik bilan ishslash. 91- mashq.

Mashqdagи matn o'qiladi. Matnda qanday gaplar borligi aniqlanadi. (Darak gap, his-hayajon gap.)

Ajratilgan gaplarni doskadan his-hayajon bilan o'qish mashq qilinadi. O'qilgan gapdan sevinch, shodlik, hayajon sezilishi kerak:

*Eh, muzdek suvda cho'milish qanday rohat!*

*Oromgohda dam olish naqadar yoqimli!*

O'quvchilar bilan savol-javob o'tkazish orqali undov gap haqidagi tushunchalar kengaytiriladi:

— Bolalar yoz fasli sizga yoqadimi?

— Nima uchun?

— Oromgohlarda dam olganmisiz?

— U yerda nima qilasizlar?

— Cho'milish sizga yoqadimi?

Tasavvur qiling, kun juda issiq. Tog'dan sharqirab muzdek, tiniq suv oqib keladi, siz o'zingizni suvg'a otdingiz, shu payt nima degan bo'lardingiz?

— Oh, muzdek suv maza!

— O'zingizda nimani his qildingiz?

— Xursandlik, sevinch, rohat, huzur, shodlik hislari bo'l-dimi? (Ha.)

Ana shunday kuchli hayajon, shodlik, sevinch bilan aytilgan gap qanday gap deyiladi? U gapning oxiriga qanday belgi qo'yiladi?

5. Ijodiy diktant. „Baliq ovi“.

*Eh, anhor, to'qson, katta, so'mga, Xayrulla, qarmoq, ilindi, uy, pishirdik, maza, yedik, qilib, ovi, baliq.*

Yuqoridagi so'zlar ishtirokida matn tuzing va tuzgan matnningizda undov gap qatnashsin.

O'quvchilar taxminan shunday matn tuzishlari mumkin.

Xayrulla to'qson so'mga qarmoq sotib oldi, so'ng katta anhorga baliq ovlash uchun bordi. U yerda qarmoqni suvgaga soldi. Unga katta baliq ilindi. Uyda baliqni pishirdi. Maza qilib yedik. Eh, baliq ovi qanday maza!

6. Darslik bilan ishlash. 92- mashq.

Matn o'qib chiqiladi. Mazmuni yoritiladi. Matnda kuz fasli, saxiy kuz ne'matlari haqida gap boradi.

- Nima uchun so'nggi gap oxiriga undov belgisi qo'yilgan?
- Kuz faslidagi qaysi holat sizni ko'proq hayajonga soladi?
- Nima uchun kuz faslini oltinga o'xshatadilar?

Kuz haqida his-hayajon, shodlik va sevinch ifodalangan 2—3 ta gap tuziladi. Tuzilgan gaplar doskaga va daftarga yoziladi.

7. Yangi mavzuni mustahkamlash.

- Undov gap deb nimaga aytildi?
- Ular qanday aytildi?
- Gap oxiriga qanday belgi qo'yiladi?

Uyga vazifa: 93- mashq. Matn ifodali o'qiladi. Har bir gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilishi aniqlanadi. Har bir gap oxiriga tegishli tinish belgilarini qo'yib, sarlavha topib, matnni ko'chirish uyga vazifa qilib topshiriladi.



## 36- DARS

**Mavzu:** undov gap (takrorlash).

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni bilimlarini mustahkamlash; fikrlash qobiliyatlarini o'stirish; ijodkorlik, izlanuvchanlik kabi harakatlarni rivojlantirish; san'atga, sportga qiziqish uyg'otish; chiroyi yozuv malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** takrorolash, mustahkamlash.

**Darsning metodi:** ijodga yo'naltiruvchi „Klaster“ metodi.

**Darsning jihizi:** sportga oid rasmlar.

## Darsning borishi.

1. Tashkiliy qism. Sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tay-yorgarligini kuzatish.

2. Uyga vazifa. 93- mashq og'zaki tekshiriladi. Matnda nechta gap bor? Ular qanday gaplar?

— Sportning qanday turlarini bilasiz?

— Hozirgi kunda O'zbekistonda qaysi sport turi rivojlanmoqda?

— Sport iftixorlaridan kimlarni bilasiz?

— Siz sportning qaysi turi bilan shug'ullanasisiz?

— Sportning insonga qanday foydasi bor?

— Sport, chiniqish haqida 2—3 ta gap tuzing, gapingizda his-hayajon, shodlik hislari ifodalansin.

3. Husnixat mashqlari. Husnixat — inson ziynati ekani tu-shuntiriladi.

*Ch ch — chaman, charos, chinnigul, Chimkent, Chirchiq, Charvoq.*

Husnixat qoidalariga amal qilib yoziladi.

4. Darslik bilan ishslash. 94- mashqdagi she'r bir necha bor o'quvchilarga ifodali o'qitiladi. She'rning har bir satridagi his-hayajon, g'urur, iftixor, shodlik kabi kuchli holatlar aniqlanadi, she'rning ma'nosi sharhlanadi.

5. Yoddan yozuv diktant. P. Mo'minning quyidagi she'riy parchasidan foydalанилди. She'r bir necha marta o'qilib, yod ol-ingach, kitoblar olib qo'yiladi. O'quvchilar she'rni yoddan yoza-dilar:

*Salom, san'at bayrami!*

*Salom, talant bayrami!*

*Qo'shig'imiz yangrasin!*

*Eshitgan dil yayrasin!*

O'quvchilar yozganlarını kitobdan tekshiradilar.

6. Lug'at so'zlar bilan ishslash: *talant*, *san'at* so'zlarining ma'nolari tushuntirilgach, ular tovush-harf tomonidan tahlil qilinadi.


*Talant — insondagi ijobiliy qobiliyat.* 2 bo'g'in, 6 ta harfli, 6 ta tovushli, 2 ta unli, 4 ta undosh tovushdan iborat.

*I, n — jarangli, t — jarangsiz undosh.*

*San'at — 2 bo'g'inli, 5 ta harfli, 5 ta tovushli, 2 ta unli, 3 ta undosh tovushli, n — jarangli, s, t — jarangsiz tovushlar.*

7. O'quvchilarning fikrlash doirasi va nutqini o'stirish maqsadida „Toshkent — tinchlik, do'stlik shahri“ mavzusida klaster tuzish.

„Toshkent — tinchlik, do'stlik shahri“ mavzusida o'quvchilar Toshkent haqida bilganlarini aytadilar, o'qituvchi doskaga yozib boradi va mana bu holatda gul yasaladi.



8. Darslik bilan ishlash. 95- mashq. Klasterdagi so'zlarni qatnashtirib, og'zaki gaplar tuziladi. Matndagi har bir gap o'ziga xos ohang bilan o'qiladi. Suhbat yo'li bilan matnda qanday gaplar borligi, so'roq va his-hayajonni bildirgan gaplar qanday mazmun anglatayotgani aniqlanadi. Matndagi his-hayajon, quvonch, faxr bilan aytigan oxirgi gap ko'chirib yoziladi:

*Gulla, yashna go'zal Toshkentim!*

O'quvchilar o'zları yashab turgan qishloq yoki shaharlari haqida so'zlab berishlari, unda so'roq va his-hayajon bildirgan gaplardan ham foydalanishlari tushuntiriladi.

9. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.
- Gaplar qanday mazmunni anglatadi?
  - Xabar, so'rash, his-hayajon mazmunini anglatadi.
  - Gaplar oxiriga qanday belgi qo'yiladi?
  - Darak gapning oxiriga nuqta (.), so'roq gapning oxiriga so'roq (?) belgisi qo'yiladi. His-hayajon bilan aytigan gapning oxiriga undov (!) belgisi qo'yiladi.

10. Uyga vazifa: 96- mashqni shartiga ko'ra bajarish topshiriladi.

11. O'quvchilar bilimi ball tizimida baholanadi.

## GAP BO'LAKLARI

(8 soat)

O'quvchilar 2- sinfda gap kim yoki nima haqida aytildigini bildirgan so'zni (egani) va u haqda nima deyilganini bildiruvchi so'zni (kesimni) topishni o'rganganlar. Ular gapda kim yoki nima haqda aytildan so'zni, u haqda nima deyilganini bildiruvchi so'z bilan birgalikda yozishni mashq qilganlar. Dasturga ko'ra, o'quvchilar 3- sinfda ega va kesim atamalari bilan tanishadilar. Gapdagi ega va kesimlarni topib, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizib belgilashni o'rghanadilar. Ular gapning kim yoki nima haqda aytildigini bildirgan so'z ega ekanini, ega k i m ?, k i m l a r ?, n i m a ?, n i m a l a r ? so'rog'iga javob bo'lishini, gapda ega haqida nima deyilganini bildirgan so'z kesim deyilishini, kesim n i m a q i l d i ?, n i m a q i l y a p t i ?, n i m a q i l m o q c h i ? kabi so'roqlarga javob bo'lishini, ega va kesim gapning asosini tashkil qilishini (asosiy mazmunni ifodalashini), shuning uchun ega va kesim gapning bosh bo'laklari deyilishini bilib oladilar. Berilgan gapdan ega va kesimni topishni, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizib belgilashni mashq qiladilar.

O'quvchilar egani topishni mashq qilayotganlarida *Shamol daraxt shoxlarini silkitdi* tipidagi gaplarni bermaslik lozim, chunki bolalar belgisiz qaratqich kelishigida kelgan *daraxt so'ziga ham n i m a ? so'rog'ini berib*, ega bilan chalkashtiradilar. Shuning uchun bu sinfda *Yerga sap-sariq barglar to 'kilmogda. Bulbul yoqimli sayradi* kabi gaplardan foydalanylani ma'qul.



### 40- DARS

**Mavzu:** bosh bo'laklar.

**Darsning maqsadi:** a) bosh bo'laklar haqida tushuncha berish, imlo malakalarini takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqni o'stirish, chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish; b) kasbga havas, mehnatga muhabbat uyg'otish.

**Darsning turi:** yangi bilim berish.

**Darsning metodi:** savol-javob, suhbat uyutirish.

**Darsning jahozi:** darslik, ayrim gaplarning chizmalarda ko'rnishi, mehnat faoliyatini tasvirlovchi rasm.

## Darsning borishi.

1. Darsni tashkil etish.

2. Uy vazifasini tekshirish. 102- mashqda berilgan gaplardan bosh bo'laklar ajratib o'qitiladi (onam yopar, yomg'ir yashnaydi, shamol tebratadi, mehmon keldi, odam yaratdi, fazogir ko'tarildi) va ular nima uchun bosh bo'lak bo'la olishini tushuntirib berish talab etiladi.

3. Bosh bo'laklar — ega va kesim haqida tushuncha berish.

103- mashq darslikda berilgan tartibda bajariladi. Matndan birinchi gap o'qiladi. So'ngra bolalar uni daftarga ko'chirib yozadilar. O'qituvchi bolalar diqqatini doskadagi rasm (yerda sochilgan qirindi, katta-kichik taxtalar, stolcha, stulcha, katta stol ustida yog'och randalayotgan bola, uning yonida bir kishi tasvirlangan)ga qaratadi, quyidagi savollar beriladi:

- Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?
- Bola nima qilyapti?
- Oldidagi kishi-chi?
- Stolcha, stulchalarni kim yasagan deb o'ylaysiz?
- Bu bola katta bo'lganda kim bo'ladi?
- Siz qanday kasblarni sevasiz?
- Kelajakda kim bo'lishni orzu qilasiz?
- Haydovchi, shifokor, duradgor, oshpaz, o'qituvchi bo'lish uchun nima qilish kerak?

Bolalarning javoblaridan xulosa chiqariladi: Ha, bolalar, kim bo'lsangiz ham ko'proq o'qishingiz, o'rganishingiz kerak. Men ham kelajakda duradgor bo'lish uchun harakat qilyapman.

O'quvchilar matndagi gaplarni o'qiydilar, savollarga javob beradilar.

Suhbat yordamida o'quvchilar birinchi gap Yamin haqida aytilgani, *Yamin so'zi k i m ?* so'rog'iga javob bo'lishini, *qatnaydi so'zi n i m a q i l a d i ?* so'rog'iga javob bo'lishini, ikkinchi gap bolalar haqida aytilgani, *bolalar so'zi k i m l a r ?* so'rog'iga javob bo'lishi, bolalar haqida nima deyilganini bildirishi, *o'rgandilar so'zi n i m a q i l d i l a r ?* so'rog'iga javob bo'lishini aniqlaydilar. Suhbatda *Yamin so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi?* Yamin haqida nima deyilgan? *Qiynaydi so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi?* *Bolalar so'zi-chi?* Bolalar haqida aytilgan so'z qaysi? *O'rgandilar so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi?* kabi savollardan foydalani-ladi.

O'qituvchi suhbat davomida gaplarni doskaga yozib boradi:

Kim? (Yamin) nima qiladi? (Qatnaydi.)

Kimlar? (Bolalar) nima qiladilar? (O'rganadilar.)

O'qituvchi o'quvchilar javobini umumlashtiradi: Demak, birinchi gap Yamin haqida aytildi. *Yamin* — gapning egasi. Yamin haqida nima deyilganini bildirgan so'z — *qatnaydi*. *Qatnaydi* — gapning kesimi. Shunday qilib, *Yamin duradgorlik to'garagiga qatnaydi* gapida *Yamin* — ega, eganing tagiga bir chiziq chizamiz, qatnaydi — kesim, kesimning tagiga ikki chiziq chizamiz va hokazo.

Gapning kim yoki nima haqida aytildanini bildirgan bo'lagi **ega** deyiladi. Gapning ega haqida nima deyilganini bildirgan bo'lagi kesim deyiladi. Ega va kesim gapning bosh bo'lagidir. Ular birlashtirishda gapning asosiy mazmunini bildiradi.

Bolalar bu qoidani darslikdan topib o'qiydilar. Matndagi gaplarni ko'chiradilar. Eganing tagiga bir chiziq, kesimning tagiga ikki chiziq chizadilar.

#### 4. So'roqlarga mos so'zlar tanlash.

104- mashq. Mashq avval og'zaki, so'ngra doskada va o'quvchilarning daftarlarida yozma bajariladi.

O'quvchilardan biri doskaga chiqib, mashqdagi birinchi gapni o'qiydi. Mashq ostida berilgan so'zlardan so'roqqa va gapning mazmuniga mos so'zni tanlab, u so'zni so'roq so'zdan keyinga qo'yib, gapni o'qiydi va uni doskaga yozadi. Gapdag'i kim yoki nima haqida aytildan so'zning tagiga bir chiziq chizadi (**Kim?**). Haydovchi mashinni yurgizdi.

Boshqa o'quvchilar ham mashqdagi gaplarni shu taxlitda yozadilar.

#### 5. Husnixat mashqlarini o'tkazish. Husnixat uchun material.

*Ko'p o'qigan ko'p biladi,  
Bilim baxt keltiradi.*

#### 6. Lug'at so'zlar bilan ishlash.

*Savol, javob, shkaf* so'zlarining talaffuzi va imlosi tahlil asosida tushuntiriladi. Shu so'zlar ishtiroyida gaplar tuzdiriladi. Tuzilgan gaplardan 1,2 tasi aytib turib yozdiriladi.

#### 7. Darsni yakunlash. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

— Ega deb nimaga aytildi?

— Kesim deb nimaga aytildi?

— Ega va kesim gapning qanday bo'lagi?

— Ular birgalikda gapning nimasini bildiradi?

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini quyidagicha umumlash-tiradi. Biz bugun gapning bosh bo'laklarini aniqlashni o'rgandik. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo'lak ega deb ataladi. Gapdagi ega haqida nima deyilganini bildirgan bo'lak kesim deyiladi. Ega bilan kesim gapning bosh bo'laklaridir. Ular birgalik-da gapning asosiy mazmunini bildiradi.

8. Uyga vazifa: 105- mashq.



## 42- DARS

**Mavzu:** bosh bo'laklar (takrorlash).

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning bosh bo'laklar haqida egallagan bilimlariga asoslanib, ega va kesim gapning asosini tashkil etishi, bosh bo'laklar qanday savollarga javob bo'lishini anglatish, o'quvchilar faolligini oshirish, ularning qiziqish va intilish-larini rivojlantirish, husnixat malakalarini takomillashtirish.

**Darsning turi:** o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash.

**Darsning metodi:** suhabat va ijodiy ish.

**Darsning jichozi:** narsalar, rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Uyga topshirilgan 105- mashqning bajarilishini tekshirish.  
Birinchi gap o'qiladi.

— Gap nima haqida aytilgan? (O'rdakcha, jo'ja haqida.)

— O'rdakcha, jo'ja so'zlariga so'roq bering. (Nima?) Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo'lak nima deyiladi? (Ega deyiladi.)

— O'rdakcha, jo'ja haqida nima deyilgan? (Do'st bo'lishdi, deyilgan.)

— Do'st bo'lishdi so'ziga so'roq bering. (Nima qilishdi?)

— Ega haqida nima deyilganini bildirgan gap bo'lagi nima deyi-ladi? (Kesim deyiladi.)

— Ega bilan kesim gapning qanday bo'lagi? (Bosh bo'lagi.)

Keyingi gaplar ham o'qilib, shunday tahlil qilinadi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar gapning qanday bo'lagi (bosh bo'lagi) ekanini o'quvchilar to'g'ri aniqlaganliklari tekshirib chiqiladi.

2. Darslik bilan ishslash.

106- mashqdagi she'r o'qiladi.

— Jo'ja nima dedi? (Qoch, o'rtoqjon, mushuk yetib keladi.)

— O'rdak nima qildi? (O'rdak alpon-talpon qochdi.)

- Mushuk nima qildi? (Quvladi.)
  - O'rdak-chi? (O'rdak o'zini suvgaga otdi.)
  - Mushuk-chi? (Ko'l bo'yida qotib qoldi.)
  - *Otdi so'ziga yaqin ma'noli qanday so'zni bilasiz?* (*Tashladi.*)
  - *Qotib qoldi so'zini yaqin ma'noli qanday so'z bilan almashtirish mumkin?* (*Qimirlamay qoldi, to'xtab qoldi.*)
- Shu so'zlarni qatnashtirib gap tuzing. O'quvchilar tuzgan gaplaridan ayrim namunalar: *1. Bilmasvoy yomon odaitini tashladi. 2. Mashina katta yo'lning o'rtasida to'xtab qoldi. 3. Mushuk itdan qo'rqib, qimirlamay qoldi* yoziladi.
- She'rdagi birinchi gapni o'qing. Gap nima haqida aytilgan? (Jo'ja haqida.)
  - Jo'ja so'ziga so'roq bering. (N i m a ?)
  - Gapning kim yoki nima haqida aytilgan bo'lagi nima deyiladi? (Ega deyiladi.)
  - Ega haqida nima deyilgan so'zni aytинг. (Dedi.)
  - Dedi so'ziga so'roq bering. (N i m a q i l d i ?)
  - N i m a q i l d i ?, n i m a q i l a d i ?, n i m a q i l y a p t i ?  
kabi so'roqlarga javob bo'lgan so'z gapning qanday bo'lagi? (Gapning kesimi.)
  - Ega va kesim gapning qanday bo'lagi? (Ega va kesim gapning bosh bo'lagi.)
  - Egani qanday belgilaymiz? (Eganing tagiga bir chiziq chiziladi.)
  - Kesimni-chi? (Kesimning tagiga ikki chiziq chiziladi.)
- She'rdagi boshqa gaplar ham xuddi shunday tahlil qilinib, bosh bo'laklar ajratib yoziladi. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq chiziladi.
- |                       |                                   |
|-----------------------|-----------------------------------|
| <u>Jo'ja dedi.</u>    | <u>Mushuk quvib qoldi.</u>        |
| <u>O'rdak qochdi.</u> | <u>O'rdak otdi. Mushuk qotdi.</u> |
3. 107- mashqni bajarish.
- Mashqdagi so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi.
- Nimalarni o'qidingiz? (So'zlarni.)
  - Bularдан biror narsani angladingizmi? (Yo'q.)
  - Nima uchun? (Chunki bular alohida-alohida so'z.)
  - So'zlardan nimalar tuziladi? (Gaplar.)
- Mashqda berilgan so'zlardan nechta gap tuzish mumkin?  
(4 ta, 3 ta, 5 ta.)

— Qani, gap tuzib ko'raylik-chi? Kim qanday gap tuzdi?  
*Kichkintoylar bog 'chada yayrab o'smoqda.*

— O'qiyaptilar, bolalar, kitobni, qiziqib so'zлari bilan gap tuzing. — *Bolalar kitobni qiziqib o'qiyaptilar.*

— Yana qanday gap tuzish mumkin? — *Karim she'rni yod-dan o'qidi.*

— Yana qaysi so'zlar qoldi? — *Xushovoz, aytdi, Nafisa, ashula.*

— Shu so'zlarni qatnashtirib gap tuzing. — *Xushovoz Nafisa ashula aytdi.*

— Nechta gap tuzdik? (4 ta.)

— Tuzilgan gaplar doskaga yozib boriladi.

O'quvchilar uni daftarlariغا ko'chirib yozadilar, yozganlarini tekshiradilar.

Ulardagi bosh bo'laklar ajratiladi.

— Birinchi gap kim haqida aytildi? (Kichkintoylar haqida.)

— Kichkintoylar so'ziga so'roq bering. (Kim lar?)

— Kichkintoylar so'zi gapda nima vazifada kelyapti? (Kichkintoylar so'zi gapda ega vazifasida kelyapti.)

— Ega gapning qanday bo'lagi? (Bosh bo'lagi.)

— Kichkintoylar haqida nima deyilgan? (*O'smoqdalar* deyilgan.)

— *O'smoqdalar* so'zi gapda nima vazifada kelmoqda? (Kesim vazifasida kelmoqda.)

— *O'smoqdalar* so'ziga so'roq bering. (Nima qilmoq-dalar?)

— Ega gapning qanday bo'lagi? (Bosh bo'lagi.)

— Kesim-chi? (Kesim ham bosh bo'lak.)

— Ega va kesim gapning qanday bo'lagi ekan? (Ega bilan kesim gapning bosh bo'lagi.)

Har bir gap ana shunday tahlil qilinib, gapdag'i bosh bo'laklar yonma-yon yoziladi. (1. Kichkintoylar o'smoqdalar. 2. Bolalar uxlayaptilar. 3. Karim o'qidi. 4. Nafisa aytdi.)

O'qituvchi o'quvchilarning javoblari asosida bajarilgan ishlarni umumlashtirib xulosa chiqaradi. Ega bosh bo'laklardan biri. U kim?, kim lar?, nima?, nima lar? so'roqlariga javob bo'ladi. Kesim ham bosh bo'lak. Unima qildi?, nima qildilar?, nima qiladilar?, nima qilyaptilar? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. O'quvchilar qoidani darslikdan o'qiydilar.

#### 4. Husnixat mashqlari.

Husnixat uchun material.

*Bilim manbayi kitobni seving! Kitob — oftob. U sizga ko'p narsalarni o'rnatadi.*

Gaplarni chiroqli yozish talab etiladi.

#### 5. Saylanma diktant.

Saylanma diktantda quyidagi gaplardan foydalaniлади.

1. *Munira qo'g'irchog'ini uxlatdi.* 2. *Karim musobaqada birinchi o'rinni egalladi.* 3. *Erkin qo'yalarini yaylovdan boqdi.* 4. *Munisa onasiga yordamlashdi.*

O'qituvchi gaplarni navbat bilan o'qiydi, o'quvchilar gapdag'i bosh bo'laklarni yozadilar. (1. Munira uxlatdi. 2. Karim egalladi. 3. Erkin boqdi. 4. Munisa yordamlashdi.)

#### 6. Darsni yakunlash, bilimlarni mustahkamlash.

— Ega va kesim gapning qanday bo'ladi?

— Ega deb nimaga aytildi?

— Ega qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

— Kesim deb nimaga aytildi?

— U qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

#### 7. Uya vazifa: 108- mashq.

Qavs ichida berilgan so'zdan so'roqlarga mos so'zlarni tanlab yozish, ega vazifasida kelgan so'zlarni topib, tagiga chizish topshiriladi.



### 47- DARS

**Mavzu:** ikkinchi darajali bo'laklar.

**Darsning maqsadi:** a) ikkinchi darajali bo'laklar haqida umumiy tushuncha berish, o'quvchilarning gapda ega va kesimdan tashqari, ularni izohlab keluvchi ikkinchi darajali bo'laklar ham bo'lishini anglab olishlariga erishish; b) tabiatga bo'lgan qiziqishni o'stirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat, savol-javob.

**Darsning jihozi:** gaplarning chizmalardagi tasviri.

**Darsning borishi:** yangi mavzuni bayon etish.

Doskaning bir tomoniga bosh bo'lakdan tuzilgan gap, ikkinchi tomoniga bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan tuzilgan gap yoziladi. Avval birinchi gapdag'i so'zlarga so'roq berib, gap bosh bo'laklardan, keyin ikkinchi gapdag'i so'zlarga so'roq berib,

u gap bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan tuzilganligi, ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarni izohlab kelishi ko'rsatiladi.

1. *Qo'shiqchilar tayyorlandilar.*

Kimlar? (tayyorlandilar) — qo'shiqchilar (ega).

(Qo'shiqchilar) nima qildilar? — tayvorlandilar (kesim).

II. *Yosh qo'shiqchilar tanlovga puxta tayyorlandilar.*

Qanday qo'shiqchilar? — *yosh* (ikkinchi darajali bo'lak).

Nimaga? (tayyorlandilar) — *tanlovga* (ikkinchi darajali bo'lak).

Qanday? (tayyorlandilar) — *puxta* (ikkinchi darajali bo'lak).

— *Qo'shiqchilar tayyorlandilar* gapning qanday bo'lagi? — Bosh bo'lagi.

— *Yosh, tanlovga, puxta so'zлari* gapning qanday bo'lagi? — ikkinchi darajali bo'lagi.

— Gaplar qanday bo'laklardan tuzilar ekan? — Bosh bo'laklardan.

Gapning asosiy mazmuni qaysi bo'lakdan anglashiladi? — Bosh bo'lakdan

— Ikkinci darajasi bo'laklar gapda qanday vazifani bajardi? — Fikrni yana ham to'liq ifodalash vazifasini bajaradi.

— Ikkinci darajali bo'laklar qaysi bo'lakka bog'lanib kelyapti? — Bosh bo'laklarga.

— Ular nimani to'ldiradi? — Gapning mazmunini to'ldiradi. Javoblar umumlashtiriladi.

Gapning asosiy mazmuni bosh bo'laklardan anglashiladi. Gapdagi fikr yana ham to'liq bo'lishi uchun boshqa so'zlar ham ishtiroy etadi. Bular *ikkinci darajali bo'laklar* deyiladi. Ikkinci darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan bog'lanib, gapning mazmunini to'ldiradi. Ikkinci darajali bo'laklar ham gapda ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi.

Qoida darslikdan o'qitiladi.

2. Darslik bilan ishslash.

119- mashqda berilganlarni mustaqil o'qib, matnda nechta gap borligini aniqlash vazifasi topshiriladi.

— Matnda nechta gap bor ekan? (3 ta.)

— Gaplarni qanday aniqladingiz? (Mazmuni va ovozning pasayishiga qarab.)

— Matnda qanday gaplar berilgan? (Darak gaplar.)

- Ulardan qanday mazmun anglashilyapti? (Darak, xabar mazmuni.)
- Darak gapning oxiriga qanday belgi qo'yiladi? (Nuqta.)
- Birinchi gapni o'qing. *Do'lana tog'larda o'sadi.*
- Gapni oxiriga qanday belgi qo'yasiz? (Nuqta.)
- Nima uchun? (Chunki bu darak gap.)
- Gap nima haqida aytilgan? (Do'lana haqida.)
- *Do'lana so'ziga so'roq bering.* (N i m a ?)
- Do'lana haqida nima deyilgan? (O'sadi.)
- Osadi so'ziga so'roq bering (N i m a q i l a d i ?)
- *Do'lana so'zi gapda qanday vazifada kelyapti?* (Ega vazifasida.)
- *O'sadi so'zi-chi?* (Kesim vazifasida.)
- Egani qanday belgilaymiz? (Tagiga bir chiziq chizamiz.)
- Kesimni-chi? (Kesimning tagiga ikki chiziq chizamiz.)
- Gapda yana qanday so'z ishtirok etgan? (*Tog'larda.*)
- Bu so'z nima uchun ishlataligan? (Gapning mazmunini to'ldirish uchun.)

Matndagi har bir gap doskaga yozib, ana shunday tahlil qilinadi, gapning bosh bo'laklari tagiga chiziladi. (Do'lana tog'larda o'sadi. Olimlar do'lana darmondorilarning borligini aniqladilar. Hozir uning mevasi va gulidan shifobaxsh dorilar tayyorlanadi.)

3. *Shifobaxsh* so'zining imlosini ko'rib chiqish. So'z harf va tovush tomonidan ko'rib chiqiladi. Talaffuzi va imlosidagi farq aniqlanadi. So'z bo'g'inga bo'lib o'qiladi.

*Shi-fo-baxsh* — 3 bo'g'in, 8 harf, 8 tovushdan iborat. 3 ta unli, 5 ta undosh.

*Shifobaxsh* so'zi talaffuz qilinganda so'z bir nechta o'quvchiga talaffuz qildiriladi. Ikkinci bo'g'indagi f undoshi jarangsizlanib, p tarzida eshitiladi, lekin yozuvda f yozilishiga o'quvchilar diqqati qaratiladi.

#### 4. Husnixat mashqlari.

*Eh, jannatmakon Vatanim! Men seni sevaman! Shunday Vatanda yashashning o'zi — bir baxt.*

Gaplar doskadan o'qilib, savollar bilan o'quvchilarning vatan haqidagi tushunchalari kengaytiriladi. Ularda vatanga muhabbat tuyg'ulari o'stiladi.

- Nima uchun jannatmakon vatanim deymiz?
- Vatanimiz sizga yogadimi? Nima uchun?
- Vatan deganda nimani tushunasiz?

- Vatan qayerdan boshlanadi?
  - Sizning vataningiz qayer?
  - Siz vataningizni nima uchun sevasiz?
- O'quvchilar gaplarni husnixat qoidalariiga rioya qilib yozadilar.

### 5. 120- mashqni bajarish.

Matn ko'chirib yozilgach, gapning ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklari aniqlanadi va ular bir-biridan chiziqlar bilan ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi gap o'qiladi. (*Tokzorlarda bog'bonning ishlari ko'payadi.*)

— Gapdan qanday mazmun anglashilyapti? (Darak, xabar mazmuni.)

— Nima? (ko'payadi) (Ishlar).

— *Ishlari* so'zi qanday vazifada kelyapti? (Ega vazifasida.)

— Egani qanday belgilaymiz?

— Eganing tagiga bir chiziq chiziladi. (Gapdag'i ega bir chiziq bilan belgilanadi.)

— Nima qiladi? (Ko'payadi.)

— Ko'payadi gapning nimasi? (Kesimi.)

— Kesim qanday belgilanadi?

— Kesimning tagiga ikki chiziq chizamiz. (Kesimning tagiga ikki chiziq chizib belgilanadi.)

— Qachon ko'payadi? (Kuzda.)

— *Kuzda* so'zi gapning qanday bo'lagi? (Ikkinchi darajali bo'lagi.)

— Qayerlarda ko'payadi? (*Tokzorlarda.*)

— Tokzorlarda so'zi gapning qanday bo'lagi? (Ikkinchi darajali bo'lagi.)

— Ikkinchi darajali bo'laklarni qanday chiziq bilan belgilaymiz? (To'lqinli chiziq bilan, *kuzda*, *tokzorlarda* so'zlarining tagiga to'lqinli chiziq chiziladi).

— Ikkinchi darajali bo'laklar gapning qaysi bo'lagi bilan bog'lanadi? (Bosh bo'laklar bilan bog'lanadi.)

— U nima vazifani bajaradi? (Gapning mazmunini to'ldiradi.)

Matndagi gaplar ana shunday tahlil qilinib, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar bir-biridan chiziqlar bilan ajratib ko'rsatiladi. (*Tokzorlarda bog'bonning ishlari kuzda ko'payadi.*)

*Qo'ndoqlanadi* so'zining ma'nosi tushuntiriladi. (Ko'mish uchun tokni bog'lab qo'yish.)

6. Yangi mavzuni mustahkamlash.
- Gapning asosini qaysi bo'laklar tashkil etadi?
  - Gapda qanday bo'laklar mavjud?
  - Gapning mazmunini to'ldirib keladigan bo'laklar nima deyiladi?
  - Ikkinchchi darajali bo'laklar gapdagi qaysi bo'lak bilan bog'lanadi?

7. Uyga vazifa: 121- mashq. Mashqning sharti tushuntiriladi. Gapdagi chiziqlar o'rniga mashq ostida berilgan so'zlardan mosini tanlash; tanlangan so'zni o'miga qo'yib, gaplarni to'ldirib yozish; qo'yilgan so'zlarga so'roq berib, ular gapning qanday bo'lagi ekanini aniqlash; bosh va ikkinchi darajali bo'larlarni aniqlash va tagiga chizish.

N a m u n a : O'quvchilar sinfga baliqchalarni keltirdilar.

### **Gapda so'zlarning bog'lanishi (5 soat)**

O'quvchilarga gapda so'zlarning bog'lanishi yuzasidan sintaktik bilim berish alohida ahamiyatga ega. Gapdagi so'zlarning ma'no jihatdan bog'langan juftini topa bilishga o'rgatish o'quvchilarning mustaqil gap tuzishlarida muhim ahamiyatga ega. Gapda ma'no jihatdan o'zaro bog'langan so'zlarni to'g'ri aniqlash yuqori sinflarda otlarning kelishiklar bilan turlanishini hamda kelishiklar bilan turlangan so'zlarning fe'l, sifat kabi grammatik shakllar bilan bog'lanishini oson o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quvchilar faqat ega va kesimdan tuzilgan gaplarda so'zlarga savol berishni o'rganish jarayonida gapda so'zlarning bog'lanishini bilib oladilar. Ular egaga k i m ? yoki n i m a ? so'rog'ini berishni o'rganganlardan keyin egadan kesimga qarata n i m a q i l d i ?, n i m a q i l a d i ?, n i m a q i l y a p t i ? so'roqlarini berishni bilib boradilar. Masalan, *Bulbul sayradi* (n i m a ?) *bulbul* — ega. *Bulbul* (n i m a q i l d i ?) *sayradi* — kesim.

O'quvchilar endi gapda so'zlarning bog'lanishini savollar bilan aniqlashni mashq qila boshlaydilar: egadan kesimga, kesimdan ikkinchi darajali bo'lakka qarata savol berib, ularning bog'lanishini aniqlaydilar.

Gapdagi so'zlarning bog'lanishini o'rganishda faqat egani yoki faqat kesimni izohlaydigan ikkinchi darajali bo'laklarga ega bo'lgan „*Har xil sabzavotlar yig'ishtirildi. Kechqurun momaqaldiroq qat-*

*tiq gumburladi. Quyosh yerni qattiq qizdirdi*“ kabi gaplarnigina tanlamay, balki ikkinchi darajali bo'laklarni ham izohlaydigan „*Kechagi shamol yosh nihollarning shoxini egdi*“ kabi gaplarni ham tanlash talab etiladi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi yuzasidan berilgan mashqlar keyingi mavzularni o'rganish jarayonida ham mavzu bilan bog'liq holda davom ettiriladi.

Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishini chiziqlar bilan belgilab ko'rsatish mumkin.

Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishini ko'rsatishning ikkinchi usuli mazmunan bog'langan so'zlarni juftlab yozishdir. Masalan, yuqoridagi gapda o'zaro bog'langan so'zlar shunday yoziladi: *qushlar uchadilar, kuzda uchadilar, mamlakatlarga uchadilar, issiq mamlakatlarga*.

Uchinchi usul — savollar bilan yozish: qushlar (n i m a q i-l a d i l a r ?) uchadilar, (q a c h o n ?) kuzda uchadilar, (q a y e r -g a ?) mamlakatlarga uchadilar, (q a n d a y ?) issiq mamlakat -larga.

O'quvchilar faqat tayyor gaplarni tahlil qilish bilangina shug'ullanmay, balki gap tuzish yuzasidan ham mashq qilishlari kerak. Quyidagi mashqlar shular jumlasidandir: o'qituvchi tomonidan berilgan gaplarning ega yoki kesimini izohlaydigan ikkinchi darajali bo'laklarini qo'shib, ularni kengaytirish, ikkinchi darajali bo'lakni izohlaydigan boshqa ikkinchi darajali bo'lakni qo'shish (*Osmonda bulut ko'rindi. Ko'm-ko'k osmonda bulut ko'rindi*). Kesimni izohlaydigan ikkita ikkinchi darajali bo'lak topish. Masalan: *Qushlar uchadilar. Kuzda qushlar janubga uchadilar*.

Gap mavzusi yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar tuga-gach, bolalar darslikdag'i savollarga va o'qituvchining quyidagi kabi qo'shimcha savollariga javob bera olishlari kerak:

- Gap deb nimaga aytildi?
- Gapning bosh bo'laklariga nimalar kiradi?
- Gapning qanday bo'lagi ega deyiladi?
- Kesim deb nimaga aytildi?
- Gapning oxiriga qanday tinish belgilar qo'yiladi? Misollar keltirin.



**Mavzu:** gapda so'zlarning bog'lanishi.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Gapda so'zlarning bog'lanishi haqida tushuncha berish. Gapda so'zlarning ma'no jihatdan bog'-lanishini amaliy ko'rsatish. Gapda ma'no jihatdan bir-biriga bog'-langan so'zlarga so'roq berishga o'rgatish. Yig'iq gaplardan yoyiq gaplar tuzishga o'rgatish. Chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat va ijodiy ish.

**Darsning jihozi:** g'o'zapoyadan tozalanayotgan dala va kuzgi shudgorlash ishlarini tasvirlovchi hamda gulzorning ko'rinishini ifodalovchi rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasining bajarilishini tekshirish.
  - 125- mashqda nimalar berilgan? (So'zlar.)
  - Ular qanday holatda? (Ular bir-biri bilan bog'lanmagan, tarqoq.)
  - So'zlardan nimalar tuziladi? (Gaplar.)
  - Birinchi qatorda qanday so'zlar berilgan, ularni o'qing. (*Dalani, g'o'zapoyadan tozaladilar, dehqonlar.*)
  - Bu so'zlardan tuzgan gapingizni o'qing. (*Dehqonlar dalani g'o'zapoyadan tozaladilar.*)
  - Gapda qanday bo'laklar bor? (Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar bor.)
  - Gapdag'i bosh bo'laklarni o'qing. (*Dehqonlar tozaladilar.*)
  - Bosh bo'laklarni qanday aniqladingiz? (So'roqlar orqali.)
  - Bosh bo'laklarga nimalar kiradi? (Ega va kesim.)
  - Ularning tagiga qanday chiziq chizdingiz? (Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq chizdik.)
  - Ikkinci darajali bo'laklarni qanday belgiladingiz? (To'lqinli chiziqlar bilan.)

Tahlil qilingan gaplardan biri doskada ko'rib chiqiladi: *Dehqonlar dalani g'o'zapoyadan tozaladilar.*

Boshqa gaplar ham shunday tahlil qilish bilan tekshiriladi.

2. Husnixat mashqlari.

Husnixat uchun quyidagi gaplar husnixat qoidalariga rioya qilgan holda doskaga yozilgan bo'ladi.

*Non aziz! Nonni isrof qilmang!*

*Nonning uvog'i ham non.*

Gaplar doskadan o'qiladi. So'ngra nonning hayotdagi o'rni, ahamiyati ochib beriladi. Non haqidagi kichik rivoyatlardan aytib berish ham mumkin. So'ngra o'quvchilar gaplarni husnixat qoidalariga rioya qilib yozadilar.

3. Yangi mavzuni bayon etish. O'quvchilar diqqati avvaldan doskaga yozib qo'yilgan gapga (*Kecha o'quvchilar musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritdilar*) qaratiladi. Gap bolalardan biriga o'qitiladi. Gapning bosh bo'laklari aniqlanadi va doskaga yoziladi. Suhbat yordamida ma'no jihatdan o'zaro bog'langan so'zlar aniqlanadi.

— *Kim lar? kiritdilar — o'quvchilar kiritdilar.*

— *O'quvchilar nima qildilar? — o'quvchilar kiritdilar.*

— *Qachon? kiritdilar — kecha kiritdilar.*

— *Nimada? kiritdilar — musobaqada kiritdilar.*

— *Nimani? kiritdilar — g'oliblikni kiritdilar.*

— *Nimaga? kiritdilar — qo'lga kiritdilar.*

Gapda so'zlarning bo'g'anishi doskaga yozib boriladi.

— Gapda so'zlar mazmunan bir-biri bilan qanday bog'langan?  
(Mazmunan o'zaro bog'langan.)

— Gapda so'zlarning bog'lanishini nimalar yordamida aniqladik?  
(Savollar yordamida.)

— Gapdag'i so'zlar bir-biri bilan mazmunan bog'lanmasa nima bo'ladi?  
(Mazmun anglashilmaydi.)

Javoblar umumlashtiriladi: gapda so'zlar mazmunan o'zaro bog'lanadi. Gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar orqali aniqlanadi.

Qoida darslikdan o'quvchilarga o'qitiladi.

Tahlil qilingan gapni o'quvchilar doskadan ko'chirib yozadilar.

4. Darslik bilan ishslash.

126- mashqdag'i matn o'qiladi. Birinchi gap ko'chirib yoziladi. Mashqning shartiga ko'ra, bosh bo'laklar aniqlanib, tagiga chiziladi. Dastlab ega va kesimga so'roq beriladi. So'ngra ega va kesimga bog'lanib kelayotgan so'zлarni so'roqlar orqali aniqlab, namuna-dagidek yoziladi.

*Namuna: Yozda quyosh yerni qattiq qizdiradi.*

*Nima qizdiradi? — quyosh qizdiradi.*

*Quyosh nima qiladi? — quyosh qizdiradi.*

*Q a c h o n qizdiradi? — yozda qizdiradi.*

*N i m a n i qizdiradi? — yerni qizdiradi.*

*Q a n d a y qizdiradi? — qattiq qizdiradi.*

Ikkinci gap ham xuddi shunday tahlil qilinadi.

Mashqdagi boshqa gaplarda so‘zlarning bog‘lanishi ham shu tartibda yozib chiqiladi.

5. Ijodiy diktant.

Berilgan savollar o‘rniga so‘zlar qo‘yib, bosh bo‘lakli gaplarga ikkinchi darajali bo‘laklar qo‘shib, gaplarni kengaytirib yozishi tushuntiriladi.

(*Q a c h o n? N i m a l a r d a n?*) *barglar to‘kiladi.*

(*Q a y e r d a g i? Q a n d a y?*) *o‘tlar sarg‘ayadi.*

(*Q a n d a y? Q a y e r d a n?*) *qushlar keladilar.*

O‘quvchilarning bajargan ishlari tekshiriladi.

O‘quvchilar so‘roqlarga tanlagan so‘zlarini so‘roq so‘zlar o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘ldirib o‘qiydilar. Gapdagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi so‘roqlar orqali aniqlanadi.

*N i m a l a r to‘kildi? — barglar to‘kildi.*

*B a r g l a r n i m a q i l d i? — barglar to‘kildi.*

*Q a c h o n to‘kildi? — kuzda to‘kildi.*

*N i m a l a r d a n to‘kildi? — daraxtlardan to‘kildi* kabi.

6. 127- mashqni bajarish. Mashqning topshiriqlari bilan bajarishda 126- mashqdagi namunadan foydalaniladi.

*G u l z o r d a y e n g i l g i n a s h a m o l e s y a p t i .*

— Gapning egasi qaysi? (*Shamol.*)

— Kesimi-chi? (*Esyapti.*)

— Nima esyapti? (*Shamol esyapti.*)

Kesimga savol bering.

— Shamol nima qilyapti? (*Shamol esyapti.*)

Kesimga qarab ikkinchi darajali bo‘laklarga so‘roq bering.

*Q a y e r d a e s y a p t i ? (G u l z o r d a e s y a p t i .)*

*Q a n d a y s h a m o l ? (Y e n g i l g i n a s h a m o l .)*

Boshqa gaplardagi so‘zlarning bog‘lanishi ham ana shunday aniqlanadi.

O‘quvchilar matnni ko‘chirib, gapdagi ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘laklarni chiziqlar bilan ko‘rsatadilar.

7. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Gapda so‘zlar bir-biri bilan qanday bo‘glanadi?

— Gapda so‘zlarning bog‘lanishini nimalar orqali aniqlaymiz?

— Gapda qanday bo‘laklar bo‘ladi?

8. Uyga vazifa: 128- mashq. Mashqning shartini tushuntirish.

Berilgan so'zlardan gap tuzish; gaplarni yozish; gaplarning oxiriga tegishli belgini qo'yish.

O'quvchilarning faolligi reyting ball tizimida baholanadi.



## 50- DARS

**Mavzu:** gapda so'zlarning bog'lanishi (takrorlash).

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarning gap bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi bilimlarini kengaytirish, gapning mazmuniga ko'ra turlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash; „Sinkveyn“ usulida ijodkorlikni o'stirish, husnixat malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** takrorlash.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** gaplarning chizmalarda aks ettirilishi.

**Darsning borishi.**

1. Uyga berilgan 128- mashqning bajarilishi tekshiriladi. Berilgan so'zlardan o'quvchilarning tuzgan gaplari o'qitiladi. Gaplarning oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilganligi va u belgining nima uchun qo'yilganligi savollar bilan aniqlanadi.

2. Husnixat mashqlari.

Husnixat uchun material.

*Tinchlik — farovonlik demakdir.*

*Yurti tinchning eli tinch.*

*Tinch elning bog'i ko'rkan.*

Maqollar o'qiladi. Mazmuni yuzasidan savollar beriladi.

— Xalqlarimiz qanday yashaydi?

— Biz nima uchun tinch yashaymiz?

— *Farovonlik* deganda nimani tushunasiz?

— *Yurt, el* so'zlariga yaqin ma'noli so'zlar tanlab ayting (yurt, vatan, makon, joy, el-xalq.)

— *Tinch elning bog'i ko'rkan* deganda nimani tushunasiz?

— Eng katta vatanimiz qayer?

— Eng kichik vatanimiz-chi?

O'quvchilar husnixat qoidalariga amal qilgan holda maqollarini ko'chirib yozadilar.

3. Darslik bilan ishlash.

129- maqsh shartiga ko'ra bajariladi. Matnda nechta gap borligini aniqlash uchun uni ichdan o'qib chiqish topshiriladi.

- Matnda nechta gap bor? (4 ta.)
- Qanday bildingiz? (Gaplarning oxirida ovozning pasayishi, fikrning tugashidan.)
- Ular qanday gaplar? (Darak gaplar.)
- Darak gaplarning oxiriga qanday belgi qo'yiladi? (Nuqta.)
- Birinchi gap o'qilib, doskaga yozildi. (Osmonni qora bulut qopladi.)
- Gap nechta so'zdan tuzilgan? (4 ta so'zdan.)
- Gapning bosh bo'laklarini aytin. (*Bulut qopladi.*)
- Ularni qanday chiziqlar bilan belgilaymiz? (Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq chizib qo'yamiz.) Gapdag'i bosh bo'laklarning tagiga chizib qo'yiladi.

Gapdag'i so'zlarining bog'lanishi ko'rib chiqiladi.

- Nima qildi? — *bulut qopladi.*
- *Bulut nima qildi?* — *bulut qopladi.*
- Qanday *bulut?* — *qora bulut.*
- Qayerni *qopladi?* — *osmonni qopladi.*

4. 130- mashqni bajarish. Mashqda berilgan birinchi gapdag'i so'zlarining bog'lanish chizmasi yozilgan plakat doskaga osilib, so'zlarining bog'lanishi ko'rib chiqiladi.

- Nima yangradi? — *Kuy yangradi.*
- Nima? kuy — ega — Nima qiladi? *allalaydi* — kesim.
- Qanday kuy? — *yoqimli kuy* (*yoqimli* — ikkinchi darajali bo'lak.)
- Kimni *allalaydi?* — *odamni allalaydi.* (*Odamni* ikkinchi darajali bo'lak.)
- Gapdag'i qaysi bo'laklar bir-biri bilan bog'langan? (Ega bilan kesim.)
- Ikkinci darajali bo'laklar-chi? (Biri egaga, biri kesimga.)
- Ikkinci gap o'qiladi. (*Nay ovozi mayin yangradi.*)
- Ikkinci gapdag'i so'zlarining bog'lanish chizmasi chiziladi. Egaga so'roq beriladi.
- Nima yangradi? — *ovozi yangradi.* (*Ovozi* — ega.)
- Kesimga so'roq beriladi.
- Nima qildi? — *yangradi.* (*Yangradi* — kesim.)
- Nay so'zini *ovozi* so'zi bilan bog'lab, savol beriladi.
- Nima *ovozi?* — *Nay ovozi.* (*Nay* — ikkinchi darajali bo'lak.)
- Yoqimli* so'zini *yangradi* so'zi bilan bog'lab savol beriladi.

— Q a n d a y *yangradi?* *Yogimli yangradi.* (*Yogimli* — ikkinchi darajali bo'lak.)

Gapdag'i so'zlarning bog'lanishi doskaga chizib boriladi. Suhbatdan quyidagi chizma hosil bo'ladi.

N i m a ? *Ovozi* — ega.

N i m a q i l d i ? *yangradi* — kesim.

N i m a o v o z i ? *Nay ovozi.*

Q a n d a y *yangradi?* (*Mayin.*)

3, 4- gaplarning bog'lanishi og'zaki ko'rib chiqiladi va o'quvchilar ularni yozib, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni chiziqlar bilan ajratib ko'rsatadilar va daftarlari ko'chiradilar.

5. Lug'at so'zlar bilan ishslash.

*Yomg'ir, havo, barg* so'zlarining talaffuzi tushuntiriladi. *Yomg'ir* so'zining talaffuzida ikkinchi bo'g'indagi ikki undosh orasidagi **i** unlisi qisqa talaffuz qilinsa ham, yozuvda saqlanishi, *havo* so'zining talaffuzida birinchi bo'g'indagi **a** unlisi **o** bo'lib eshitilsa ham, yozuvda **a** yozilishi, *barg* so'zi *bay* tarzida talaffuz etilsa ham, imloda *barg* holida yozilishiga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Shu so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzdiriladi. Tuzilgan gaplardan 2,3 tasi tanlab diktovka bilan yozdiriladi. Yozilgan gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari chiziqlar bilan belgilanadi.

6. Darsni yakunlash va bilimlarni mustahkamlash.

— So'zlar bir-biri bilan qanday bog'lanadi?

— Gapda ikkinchi darajali bo'laklar qaysi bo'laklarga bog'lanar ekan?

— Bosh bo'laklar-chi?

7. Uyga vazifa: 131- mashq. Gaplarning mazmuniga xos so'zlar tanlab, ularni to'ldirib yozish, gapda o'zaro bog'langan so'zlarga so'roq berishni o'rghanish.

### **So'zning tarkibi.**

### **So'zning o'zagi va o'zakdosh so'zlar**

(7 soat)

Dastur talabiga ko'ra, 3- sinfda bu mavzu yangi mavzu sifatida o'rganiladi. O'quvchilar so'zning morfologik tarkibi, so'z tarkibi haqida dastlabki nazariy ma'lumotni oladilar. Bular asosida keyinchalik zarur grammatik bilim va muhim orfografik malakalarni kengaytirish hamda mustahkamlash bo'yicha ish olib boriladi. So'zning

morfologik tarkibini o'rganish o'quvchilarni so'z qurilishi, so'zlarning ma'nosini yaxshi anglash, so'zlarni nutqda aniq va o'rinali qo'llashga o'rgatadi.

So'zning tarkibi yuzasidan olib boriladigan ishlar quyida gicha tashkil qilinadi.

Dastlab o'zak va o'zakdosh so'zlar haqida ma'lumot beriladi. Bolalar o'zakdosh so'zlarning umumiyligini qismini aniqlash, berilgan so'zlarga o'zakdosh so'zlar tanlash, berilgan matndan o'zakdosh so'zlarni topib, ularning umumiyligini qismi tagiga chizishni mashq qiladilar. Keyin so'z yasovchi qo'shimchalar, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar o'rgatiladi.

„So'zning o'zagi va o'zakdosh so'zlar“ mavzusini o'rganishda matndan o'zakdosh so'zlar tanlash, gapning mazmuniga mos o'zakdosh so'zlarni tanlab, gaplarni to'ldirish, o'zakdosh so'zlarni qatnashtirib, gap tuzish kabi mashqlar bajariladi. Bunday mashqlar bolalarning o'zakdosh so'zlar haqida egallagan bilimlarini chuhurlashtiradi.



## 54- DARS

**Mavzu:** o'zak va o'zakdosh so'zlar.

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarga so'z tarkibi, o'zak, o'zakdosh so'zlar haqida ma'lumot berish; o'zakdosh so'zlarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini ajrata bilish, so'zlarning umumiyligini qismini aniqlash va belgilash malakasini hosil qilish; ko'rsatish diktanti orqali ijodiy faoliyatini oshirish; b) kasb-hunarga qiziqish uyg'otish; hadis namunalari bilan tanishtirib, tarbiyalash.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** narsalarning rasmi, chizmalar.

**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

135- mashq yuzasidan suhbat uyuştırıldı.

— Matn nima haqida?

— Unga qanday sarlavha tanlash mumkin?

— Matnda qanday gaplar bor?

Uchinchi gapning bosh bo'laklarini o'qing. Bosh bo'lak — kesimga bog'langan so'zlarni o'qing.

- Gapda qanday bo'laklar ishtirok etgan?
- Gapdag'i so'zlar bir-biriga qanday bog'langan?
- Ikkinch'i darajali bo'laklar gapda nima uchun kerak?
- Siz ham hayvonot bog'iga borganmisiz?
- Nimalarni ko'rgansiz?

### 3. Yangi mavzuning bayoni.

Bolalar 137- mashqida berilgan o'zakdosh so'zlarni doskadan o'qiydilar va suhbat yordamida nima uchun ular o'zakdosh so'zlar bo'la olishini aniqlaydilar. Suhbatda quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

- *Sinf* so'ziga so'roq bering. (N i m a ? )
- Endi *sinf*dosh so'ziga so'roq bering. (K i m ? )
- K i m ? , n i m a ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi? (shaxs va narsalarni.)
- *Sinf* deganda nimani tushunasiz? — Mana shu biz o'qiyotgan xonani.
- *Sinf*dosh deganda-chi? (Bir sinfda o'qiydigan bolalar bir-biriga sinfdosh.)

Shu ikki so'z uchun umumiy bo'lgan so'zni o'qing. (*Sinf.*)

O'qituvchi suhbatni xulosalab, *sinf* — *sinf*dosh so'zlarining umumiy qismi sinf. Bu so'zlar o'zakdosh so'zlardir. O'zakdosh so'zlar uchun umumiy bo'lgan qism o'zak deyilishini tushuntiradi. Bolalar qoidani darslikdan o'qiydilar. O'zakdosh so'zlarni doskadan yoki kitobdan ko'chirib yozadilar. O'zakni namunada ko'rsatilgandek belgilaydilar. Na m u n a : *sinf* — *sinf*dosh, *ish* — *ishchi*.

### 4. O'quvchilarning o'zak va o'zakdosh so'zlar haqidagi tu-shunchalarini kengaytirish.

O'qituvchi doskaga yozilgan so'zlar (*bosh*, *boshliq*, *boshla*, *boshli*, *boshchilik*; *gul*, *gulchi*, *gulzor*, *guldor*, *gulla*)ga o'quvchilar diqqatini qaratib, bu so'zlarning har biri ustida quyidagicha suhbat o'tkazadi.

- *Bosh* so'ziga so'roq bering. (N i m a ? )
- *Boshliq* so'ziga so'roq bering. ( K i m ? )
- Bu so'zlar nimani bildiryapti? — Shaxs va narsalarni.
- *Boshli* so'ziga so'roq bering. (Q a n d a y ? )

Q a n d a y ? so'rog'iga javob bo'lgan so'z nimani bildiradi? — Shaxs va narsalarning belgi xususiyatini. Shuningdek, *gul*, *gulchi*, *gulzor*, *guldor* so'zлari bilan ham shunday savol-javob o'tkazib, javoblar umumlashtiriladi.

Tilimizda juda ko'p so'zlar bor. Ular orasida ma'no jihatdan bir-biri bilan yaqinlik sezilib turadi. Ularning qismlarida umumiylig seziladi. Ana shu umumiyl qism so'zning o'zagidir.

### 5. 138- mashqni bajarish.

Mashqdag'i she'riy parcha ifodali o'qiladi. Mazmuni yoritiladi. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari tinglanib, quruvchilik kasbi ham alohida mahorat talab qiladigan ajoyib kasb ekanligi uqtiriladi. She'r matnidagi o'zakdosh so'zlar doskada yonma-yon yozilib, aniqlanadi. Ularning umumiyl qismi namunadagidek belgilanadi.

N a m u n a : *quruvchi — quruvchilik*

### 6. Husnixat mashqlari.

Shior: *Go'zal husnixat buyuklardan qolgan merosdir.*

Husnixat uchun material.

*Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling. Odamlarga muomalada xul-qingiz chirolyi bo'lsin. Muloyimlik hikmatning boshidir.* (Hadisdan.)

Gaplar o'qilib, husnixat qoidalariga amal qilingan holda yoziladi. Hadisning mazmuni yoritiladi.

### 7. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilar bilimi quyidagi savollar orqali aniqlanadi va umumlashtiriladi.

— O'zak deb nimaga aytildi?

— O'zakdosh so'zlar deb nimaga aytildi?

— O'zakdosh so'zlarning qaysi qismi bir xil yoziladi?

8. Uyga vazifa: 139- mashq. „Gulchilar“ matnini ko'chirish, o'zakdosh so'zlarni aniqlash. O'zakdosh so'zlardagi o'zaklarni belgilash.

### 9. O'quvchilar rag'batlantirib, baholanadi.



## 57- DARS

**Mavzu:** o'zak va o'zakdosh so'zlar (takrorlash).

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning o'zak va o'zakdosh so'zlar haqidagi tushunchalarini kengaytirish, mustahkamlash; og'zaki va yozma bilimlarini o'stirish; o'zakdosh so'zlar tanlashga o'rgatish; harakatli mashg'ulotlar orqali o'zakdosh so'zlarni o'zaklari atrofiga jamlash.

**Darsning turi:** takrorlash, mustahkamlash.

**Darsning metodi:** suhbat, harakatli mashg'ulot.

**Darsning jihizi:** so'zlar yozilgan qog'oz bo'lakchalari, rasmlar.  
**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish. O'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish.

2. Uy vazifasini tekshirish. 146- mashq matnidagi o'zakdosh so'zlarning umumiyligi qismi *meva*, *bog'* ekani savollar orqali aniqlanadi. Matnning mazmuni yuzasidan quyidagi savollar beriladi.

— Hovlingizda qanday mevali daraxtlar bor?

— Ularni qanday parvarish qilasiz?

— Bahorda ko'chat ekish ishlariga qanday yordamlashmoqchisiz?

3. „Mening o'zagim qani?“ mavzusida harakatli mashg'ulot o'tkazish. Mashg'ulot quyidagicha tashkil etiladi.

Doskaga 7, 8 o'quvchi chaqiriladi. Ular stoldagi orqasi o'girib qo'yilgan paxta, sinf, meva, mashina, bog', urug', tuz rasmi solingan qog'ozlardan tanlab oladilar. Ularni vaqtincha hech kimga ko'rsatmay turadilar. Qolgan o'quvchilarga o'zakdosh so'zlar yozilgan qog'ozchalar tarqatiladi. (Qog'ozchalarga *paxtazor*, *bog'bon*, *tuzsiz*, *mevali*, *sinfidosh*, *mashinachi*, *urug'siz* so'zları yozilgan.) O'quvchilar mening o'zagim qayerda? deb rasmlarga qarab, o'zlarining qaysi o'zakka mansub ekanliklarini ikki daqiqa ichida topib oladilar. Guruhlar (o'zak) o'zlarining o'zakdosh so'zlarini yig'ib olgandan so'ng bir-birlarini nazorat qilib, so'z mazmunini yoritadilar. Guruhlar bir-birlarining ma'no jihatdan bog'liqliklarini tekshiradilar. Eng chaqqon guruhlardan ikkitasi doskaga chiqib o'zak — o'zakdosh so'zlarni yozadilar.

4. Husnixat mashqlari.

Shior: *Kim yozolsa chiroysi,*  
*Ishi bo'lar unumli.*

Husnixat uchun material.

*Quyosh, havo — tanga davo,*  
*Erta tursang soz havo.*

*Erta turganning ishi erta bitar.*

Maqollarning mazmunini ochish uchun quyidagi savollar beriladi.

— „*Erta tursang — soz havo*“ deganda nimani tushunasiz?

— Nima uchun „*quyosh, havo — tanga davo*“ deyiladi?

— Erta turishning xosiyatini gapirib bering.

Maqollarni yozishda harf unsurlariga rioya qilib, so'zlar orasida gi oraliqni saqlab, qomatni tik tutib yozish talab etiladi.

5. Darslik bilan ishlash. 147- mashqda berilgan maqollar ko'chirib yoziladi, mazmuni yoritiladi. Maqolda keltirilgan o'zakdosh so'zlarning o'zaklari odatdagidek belgilanadi.

Masalan:

(*Bilimlining bilimi yuqar,  
Bilimsizning nimasi yuqar?*)

6. 148- mashq shartiga ko'ra bajariladi. Bundan tushirib qoldirilgan o'zaklar topib yoziladi, yozakdosh so'zlarning o'zaklari bir xil yozilishiga e'tibor beriladi.

(*Ishladi, ishchan, ishsiz;  
mevali, mevasiz, mevazor.*)

7. Darsni yakunlash, uyga vazifa topshirish. 147- mashq. Mashqni bajarish yo'li tushuntiriladi. Topishmoqlarning javobini topish, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'zagini aniqlash va odatdagidek belgilash, topishmoqni javobi bilan yozish.

### So'z yasovchi qo'shimchalar (5 soat)

3- sinfda o'quvchilar ko'plab yangi so'zlar yasash uchun xizmat qiladigan unumli so'z yasovchi — -chi, -li, -la, -siz qo'shimchalari bilan tanishadilar. Mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilarga bu so'zlariga qo'shilish, yangi ma'no bildiruvchi boshqa so'zlar hosil qilishi, shuning uchun so'z yasovchi qo'shimcha deyilishini tushuntirish, ularda so'z yasovchi qo'shimchalari bilan yangi ma'no bildiruvchi so'zlar yasash, yasalgan so'zlarning ma'nolaridagi umumiyligi va farqli tomonlarni ajrata bilish, so'z yasovchi qo'shimchalarni boshqa qo'shimchalardan farqlay olish malakalarini hosil qilish ko'zda tutilgan.



### 61- DARS

**Mavzu:** so'z yasovchi qo'shimchalar.

**Darsning maqsadi:** so'z yasovchi qo'shimchalar haqida ma'lumot, -chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz — so'z yasovchi qo'shimchalari bilan tanishtirish, o'zakdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq holda boshqa so'zlar hosil qilishni amaliy ko'rsatish, bog'lanishli nutqni o'stirish, mustaqillikka yo'naltirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jihozi:** darslik va rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish. Sinf va o'quvchilarni darsga tayyorgarligini kuzatish.

2. Yangi mavzuni bayon etish. So'z yasovchi qo'shimchalar haqida ma'lumot. Mavzu 153- mashq asosida tushuntiriladi. Mashq-dagi so'zlar avvaldan doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini doskaga yozilgan so'zlarga qaratadi.

*g'alla* — *g'allakor*  
*tunuka* — *tunukachi*  
*nur* — *nurli*

*vatan* — *vatandosh*  
*so'z* — *so'zla*  
*tuz* — *tuzsiz*

Har qaysi ustunda berilgan o'zakdosh so'zlar doskadan o'qitiladi. So'zlarning umumiy qismi — o'zak aniqlanadi. Suhbat yordamida o'zakdosh so'zlarning ma'nolaridagi umumiylilik va farqli tomonlar aniqlanadi.

- Birinchi juftlikdag'i so'zlarni o'qing. (*G'alla*, *g'allakor*.)
- Birinchi so'zni o'qing. (*G'alla*.)
- *G'alla* so'zi qanday ma'no anglatyapti? (*G'alla bu* — *don*.)
- *G'allakor* so'zi qanday ma'no anglatyapti? (Don yetish-tiruvchi kishini anglatadi.)
- *G'alla*, *g'allakor* so'zlarini uchun qaysi so'z umumiy? (*G'alla so'zi*.)
- *G'alla* so'ziga -kor qo'shimchasi qo'shilganda so'zning ma'nosi nima qilyapti? (*O'zgaryapti*.)
- Qanday so'z hosil bo'lgan? (*Yangi so'z hosil bo'lgan*.)
- Shuning uchun bu qo'shimchani qanday qo'shimcha deyish kerak? (So'z yasovchi qo'shimcha deyish kerak.)

Doskadagi *tunuka* — *tunukachi*, *nur* — *nur-la*, *vatan* — *vatandosh*, *soz* — *sozla*, *tuz* — *tuzla* so'zlari ustida ham ana shunday suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida bu so'zlardagi so'z yasovchi qo'shimchalar doskaga yozib boriladi. -chi, -la, -kor, -li, -dosh, -siz — so'z yasovchi qo'shimchalar. Suhbatdan quyidagi xulosa keltirib chiqariladi:

so'zlardagi -chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz qo'shimchalari so'z yasovchi qo'shimchalaridir. So'z yasovchi qo'shimchalar o'zakdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq bo'lgan boshqa so'zni hosil qildi. Bular **yasama so'zlar** deyiladi.

O'quvchilar qoidani darslikdan o'qiydilar. O'quvchilar doskagi so'zlarni ko'chirib yozadilar.

3. Kitob bilan ishlash. 154- mashq bajariladi. Mashqning topshirig'i o'qiladi, qanday bajarish tushuntiriladi. *Chegarachi*, iz so'zlariga -chi, -la, -siz, -dosh so'z yasovchi qo'shimchalaridan mosini tanlab, so'zlar yasash. Yasalgan so'zlarining o'zak va qo'shimchalarini belgilash kerakligi tushuntiriladi va namuna ko'rsatiladi.

Namuna: *darak, darakchi, daraksiz, darakla*.

Mashq doskada va o'quvchilar daftarlari bajariladi.

4. Husnixat mashqlari. Husnixat uchun material.

*Konstitutsiya — baxtimiz qomusi.*

*Qonun — biz sening himoyangdamiz.*

Bu gaplar darsga qadar doskaga yozib, parda bilan to'sib qo'yilgan bo'ladi. O'qituvchi pardani ko'taradi. Gaplar o'qiladi. Harf unsurlarining ulanishi tushuntiriladi. O'quvchilar uni doskadan yozadilar. Gaplar yozib bo'lingach, o'qituvchi „Solishtirib ko'raylik, kimning xati chiroyli!“ deb o'quvchilarning ishlarini bir-biriga solishtirib, ozoda, chiroyli yozgan o'quvchilarni rag'batlantiradi. Ba'zi o'quvchilarning ishlaridagi ayrim kamchiliklarni ko'rsatib, ularni bartaraf etish yo'llari doskaga yozib tushuntiriladi.

5. Darsni yakunlash, egallangan bilimlarni mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun savollar:

- So'z yasovchi qo'shimchalarini aytинг.
- Nima uchun ularni so'z yasovchi qo'shimchalar deymiz?
- *Gulchi* so'zi qanday ma'noni bildiradi?
- Uning o'zagi nima?
- -chi qo'shimchasi nima yasayapti?
- **Yasama so'z** deb nimaga aytildi?

6. Uyga vazifa: 155- mashq. Vazifani qanday bajarish tushuntiriladi. Nuqtalar o'rniغا -chi, -la, -siz, -li qo'shimchalaridan mosini tanlab, gaplar o'qib chiqiladi. So'ngra gaplar ko'chirib yoziladi. O'zakdosh so'zlarining o'zak va qo'shimchalarini odadagidek belgilash qo'shimcha topshiriq sifatida beriladi va ishni qanday bajarish yuzasidan namuna ko'rsatiladi.

Namuna: *Ilmsiz bir yashar, ilmlı ming yashar.*



## 62- DARS

**Mavzu:** so'z yasovchi qo'shimchalar bilan o'zakdosh so'zlar hosil qilish.

**Darsning maqsadi:** so'z yasovchi qo'shimchalar, o'zak, o'zakdosh so'zlar haqidagi bilimlar mustahkamlanadi; o'quvchilarga

yoddan yozuv diktanti yozdirish orqali, ularning xotiralarini sinab ko'rish; imlosi qiyin so'zlarни tovush-harf tomondan tahlil qilish va imlosini o'rganish, husnixat malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** mustahkamlovchi.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** she'r yozilgan plakat.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasini tekshirish. 155- mashqning bajarilishi ko'rib chiqiladi. Mashqda bajarilgan gaplarni ko'chirishda nuqtalar o'miga qanday qo'shimchalar qo'shilganligi va shu so'zlarning o'zak qo'shimchalari aniqlanadi.

— *Ilm* so'ziga so'roq bering. (Nima?)

— Bu so'z qanday ma'nno anglatadi? (O'qish, o'rganish, bilim egallash ma'nosini anglatadi.)

— *Ilmsiz* so'zi-chi? (O'qimagan, ma'lumoti yo'q degan ma'noni anglatadi.)

— -siz qanday qo'shimcha? (So'z o'zgartuvchi qo'shimcha.)

— *Ilm* so'zning nimasi? (O'zagi.)

Gapdag'i boshqa so'zlar ham xuddi shunday tahlil qilinib, o'tilgan mavzuni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganliklari va uy vazifasining qanday bajarilishi ko'rib chiqiladi.

2. Yoddan yozuv diktanti o'tkazish. Diktant uchun Po'lat Mo'minning „O'zbekiston“ she'ridan olingan quyidagi parcha tanlanadi.

*Farzand bo'lib maqtayman,  
Xursand bo'lib maqtayman.  
Shu o'ika suvin ichdim,  
Dilband bo'lib maqtayman.  
Onajon, O'zbekiston,  
Mehribon, O'zbekiston.*

(P. Mo'min)

She'riy parcha doskaga yozib qo'yilgan bo'lsa, doskadan, yozilmagan bo'lsa, darslikning 26- betidan 4—5 marta (ovoz chiqarib, ovozsiz, xor bilan) ifodali o'qitiladi.

*Farzand, dilband, xursand* so'zlarining imlosi ko'rib chiqiladi. Ayrim o'quvchilarga yoddan o'qitiladi, kitoblar olib qo'yiladi. So'ngra yoddan yozishga topshiriladi.

O'quvchilar yozganlarini kitobdan tekshiradilar, xatolarini tuzatadilar.

3. Darslik bilan ishlash. 156- mashq topshirig‘iga ko‘ra berilgan so‘zlarga so‘z yasovchi qo‘sishchalar qo‘sish bilan o‘zakdosh so‘zlar yasab, ular namunadagidek yoziladi. So‘zlarni o‘zak va so‘z yasovchi qo‘sishchalarini odatdagidek belgilanadi. Mashq doska-da va o‘quvchilar daftarlari bajariladi.

Namuna: *gul, gulchi, gulla*.

Qo‘sishchacha topshiriq: hosil qilingan o‘zakdosh so‘zlardan qatnashtirib, gaplar tuziladi. Ularning ayrimlari yozdiriladi. (*Bos-maxonada kitoblar jadal sur’atda muqovalanmoqda. Ovchi kaptarni tutmoqchi bo‘ladi. Ishlagan tishlar, ishlagagan kishnar.*)

4. 57- mashqni bajarish. Nuqtalar o‘rniga -chi, -la, -siz, -li so‘z yasovchi qo‘sishchalardan mosini qo‘yib, gaplar tuziladi. O‘zakdosh so‘zlarining o‘zak va qo‘sishchalarini belgilanadi. 3, 4, 5- gaplar bilan o‘quvchilar mustaqil ishlaydilar.

Namuna: *Dengizchi uzoq safarga otlandi*.

5. Lug‘at so‘zlar bilan ishlash. *Sinf, dengiz, paroxod, hayot, tunuka* so‘zlarining talaffuzi bilan imlosi o‘rtasidagi farq ko‘rib chiqiladi.

6. Darsni yakunlash va mustahkamlash. O‘rganilgan bilimlar savol-javob yo‘li bilan mustahkamlanadi.

7. Uyga vazifa: 158- mashq. Har bir so‘zning o‘zak va so‘z yasovchi qo‘sishchasi aniqlanadi. Avval -chi, so‘ngra -li, so‘ngra -la va oxirida -siz qo‘sishchasi bilan yasalgan so‘zlarni namuna-dagidek guruhab ustun shaklida yozish tushuntiriladi va namuna ko‘rsatiladi.

Namuna: *gul-chi, suv-li, ish-la, tuz-siz*.

8. O‘quvchilarning darsga qatnashishlari reyting ball tizimda baholanadi.

### **So‘z o‘zgartiruvchi qo‘sishchalar**

(8 soat)

„So‘z o‘zgartiruvchi qo‘sishchalar“ so‘z tarkibini o‘rganish-dagi asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Bolalar 1 -sinfda „Gap“ mavzusini o‘rganish jarayonida so‘zlarining bir-biriga bog‘lanishini savollar yordamida aniqlashni bilib olganlar. Bu mavzuni o‘rganish bilan -ning, -ga, -da, -dan qo‘sishchalarini so‘zlarga qo‘silib, yangi ma‘no bermasligini, faqat gapda so‘zlarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qilishini, shuning uchun so‘z o‘zgartiruvchi qo‘sishcha deyilishini bilib oladilar. Mavzuni o‘rganishdan maqsad ham ana shundan iborat. Gap ayrim so‘zlarining shunchaki

yig'indisi bo'lmay, balki bir yoki bir necha so'z birikmalarining ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida o'zaro birikkan, ohang jihatdan tugallikka ega bo'lgan sintaktik butunlikdir. Shuning uchun ham bolalar bu mavzuni o'rganish jarayonida gapdagi so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan -ning, -ni, -ga, -dan qo'shimchalarini so'z yasovchi qo'shimchalardan farqlash, bu qo'shimchalarni qabul qilgan so'zlarga so'roq bera olish, ulardan gap tuzishda foydalanish, gapda ma'no jihatidan o'zaro bog'langan so'zlarni berilgan so'roqlarga moslab o'zgartirish yuzasidan mashq qiladilar, bog'lanishli matnlar tuzadilar.



## 66- DARS

**Mavzu:** so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar haqida tushuncha berish; so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni so'z yasovchi qo'shimchalardan farqlay bilish, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning gapdagi vazifasini bilib olish; so'z o'zgartiruvchi qo'shimchali so'zlarga so'roq berishga o'rgatish; gap tuzishda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalardan foydalanish, gapdagi so'zlarning ma'no jihatidan bog'lanishlarini anglashga o'rgatish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat va tahlil metodi.

**Darsning jihozi:** qo'shimchalar yozilgan jadval, „ferma“ rasmi.

**Darsning borishi.**

1. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

2. Uyga berilgan 165- mashqning qanday bajarilgani tekshiriladi. Buning uchun, matndagi gaplarda tushirib qoldirilgan so'z yasovchi qo'shimchalarni o'rniqa qo'yib, gaplar o'qiladi, yasama so'zlarni yozib, ularning o'zak va qo'shimchalari qanday belgilanganligi aniqlanadi.

3. Yangi mavzuni bayon etish. Yangi mavzu 166- mashq asosida tushuntiriladi.

O'quvchilar, mashqda berilgan maqollarni o'qiydilar. O'qituvchi rahbarligida o'quvchilar har qaysi gapda *mehnat* so'zi bilan bog'lanib kelgan so'zlarni so'roqlar yordamida aniqlab, so'z birikmalarini (o'zaro bog'langan so'zlar)ni aytadilar. O'qituvchi ularni quyidagi ko'rinishda doskaga yozib boradi.

*Mehnatning (nima ning?) qadrini.*

*Mehnatini ( n i m a n i ? ) ayamaydi.*

*Mehnatda ( n i m a d a ? ) tobulanadi.*

*Mehnatdan ( n i m a d a n ? ) qo 'rqma.*

Doskaga yozilganlar o'qiladi. Suhbat orqali so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning vazifasi aniqlanadi.

— *Mehnat* deganda nimani tushunasiz? (Biror ish, xizmat tushuniladi.)

— *Mehnatning* deganda-chi? (Ma'no o'zgarmagan.)

— Ikki so'z orasida -ning qo'shimchasi nima uchun ishlataligan? (So'zlarni bir-biriga bog'lash uchun.)

— *Mehnatini ayamaydi* deganda qanday qo'shimcha ishlataligan? (-ni qo'shimchasi.)

— *Mehnatda toblandi* deganda-chi? (-da qo'shimchasi.)

— *Mehnatdan qo 'rqma* deganda-chi? (-dan qo'shimchasi.)

O'qituvchi qo'shimchalarni doskaga yozib beradi.


— *-ning, -ni, -ga, -da, -dan* qo'shimchalari qanday qo'shimcha ekan? (So'z o'zgartiruvchi qo'shimcha.)

Javoblar umumlashtirilib, xulosa chiqariladi.

*-ning, -ni, -ga, -da, -dan* qo'shimchalari so'zlarga qo'shilganda yangi ma'noli so'z yasamaydi. So'zlarni o'zgartirib, gapda ikki so'zni bir-biriga o'zaro bog'lash uchun ishlataladi. Shuning uchun bu qo'shimchalar so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar deyiladi. O'quvchilar bu qoidani darslikdan o'qiydilar.

#### 4. Mavzuni mustahkamlash.

Buning uchun quyidagi chizmadan foydalilanadi.



Chizma doskaga osiladi. O'quvchilar *maktab* so'ziga so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qo'shib o'qiydilar. O'quvchilar shu so'z bilan so'z birikmasi tuzadilar. Tuzilgan so'z birikmalari doskaga yozib boriladi:

*maktabning hovlisi,*

*maktabni sevaman,*

*maktabga boraman,*

*maktabda bo 'ldim,*

*maktabdan keldim.*

O'quvchilar doskadagilarni ko'chirib yozadilar.

5. So'z birikmalarini qatnashtirib gaplar tuziladi.

1. *Maktabimizning hovlisi hamisha bolalar bilan gavjum.* 2. *Maktab o'rgatar ilm-u odob, maktabga bor ertalab.* 3. *Nigora ruscha mактабда о'qиydi.* 4. *Ukam mehnatni sevadi.* 5. *Mehnat, mehnatning tagi rohat.* 6. *Mehnatdan baxtimni topdim.* 7. *Mirishkor dehqon yerdan mehnatini ayamaydi kabilar.*

Tuzilgan gaplardan ayrimlari aytib turib yozdiriladi.

6. Egallangan bilimlarni mustahkamlash.

— So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalariga qaysi qo'shimchalar kiradi?

— Gapda bu qo'shimchalar qanday vazifani bajaradi?

— So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar so'zning nimasini o'zgartiradi?

7. 167- mashqni bajarish.

Matn ifodali o'qitiladi, mazmuni yoritiladi. Matnda uchragan *ferma* so'ziga e'tibor qaratiladi. Har bir gapdag'i *ferma* so'zi ajratib ko'rsatilgan so'z bilan birlashtiriladi. Ular bir-biriga bog'lagan qo'shimchalar aniqlanadi va ular namunadagidek yonma-yon yoziladi. *Ferma* so'zidagi so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar belgilanadi.

N a m u n a : *fermaga boraman*, ...

8. Husnixat mashqlari.

Husnixat uchun material.

*Jahondagi barcha xalqlar tinchlikni istaydilar. Yurasin tinchlik so'zi. Yashasin tinchlik!*

Tinchlik, tinch-totuv yashash haqidagi qisqacha suhbatdan so'ng bu gaplar husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozishga tavsiya etiladi.

9. Uyga vazifa: 168- mashq. Mashqni topshirig'i o'qiladi. Berilgan topshiriqqa ko'ra matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berish orqali ularning bir-biriga bog'lanishi aniqlanadi. Mashqni qanday bajarish haqida namuna ko'rsatiladi.

N a m u n a : (Q a y e r g a ? ) ketayotgan edik — uyga.



## 73- DARS. INTERFAOL DARS

**Mavzu:** so'z tarkibi. O'zak va o'zakdosh so'zlar, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar yuzasidan.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning egallagan bilimlarini mustahkamlash; o'quvchilarni o'rtoqlari bilan hamkorlikda ishlashga,

erkin va mantiqiy fikrlashga o'rgatish; o'zining fikri orqali guruhda o'z o'rnnini topa bilishga o'rgatish; mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatini o'stirishga yordam berish.

### Darsning borishi.

#### 1. Interfaol dars qoidasini eslatib o'tish.

Faol bo'lish; fikrni to'liq bayon etish; intizomli bo'lish; o'zgalar fikrini tinglash; yangiliklar sari intilish; vaqtidan unumli foydalanish.

2. Guruhlarga bo'lish. Guruhlarga bo'lishda tabiat hodisalaridan foydalaniadi. Stol ustiga kichik-kichik tarqatmalar: *shamol*, *yomg'ir*, *jala*, *do'l*, *qor* so'zлari yozilgan qog'ozchalar teskari holatda qo'yiladi. Kim qaysi yozuvli qog'ozchani olsa, „Sherigingizni toping“ deb buyruq berilishi bilan, o'sha holatni harakat orqali bajarib, tovush chiqarmasdan sheringini topadi.

Masalan: *shamol* so'zi yozilgan bo'lsa, qo'llarini baland ko'tarib, u yoqdan bu yoqqa tebrantiradi; *yomg'ir* so'zi yozilgan bo'lsa, qo'llarini qarsillatib harakat qiladi; *do'l* so'zi yozilgan bo'lsa, qo'llarini tizzalariga tez-tez urib, shapillatadi; *qor* so'zi yozilgan bo'lsa — kapalakka o'xshab uchadi.

Yuqoridagi harakatlar orqali, o'quvchilar 6—7 kishidan iborat 5 guruhga bo'linadilar va belgilangan joyga o'tiradilar.

3. Guruhlar ishi quyidagicha baholab boriladi. Buning uchun 4 xil rangda (qizil, moviy, sariq, yashil) bir nechta doirachalar yasab olinadi va quyidagicha tarqatiladi:

— har bir topshiriqni to'g'ri, tez bajargan guruhga moviy doirachalar: (3 ball);

— vaqtidan biroz yutqazgan, lekin to'g'ri bajargan guruhlarga yashil (2 ball);

— topshiriqlarni bajarishda orqada qolgan, xatoliklarga yo'l qo'ygan guruhlarga sariq doirachalar (1 ball) tarqatib boriladi. Qizil doirachalar esa trening qoidasini buzgan guruhlarga „jarmma“ tariqasida beriladi.Qizil doirachalari bor guruhning to'plagan ballaridan 3 balldan olib tashlanadi.

#### 4. Guruhlar ishi.

#### 1- topshiriq.

Chiziqlar o'rniga gapning mazmuniga mos so'zlar qo'yib yozing. Gapning ega va kesimini aniqlang (3 daqqaq).

1- guruhga: *O'quvchilar* — *tayyorlandilar*

2- guruhga: *Bolalar* — *kuylayaptilar*.

- 3- guruhga: *Dildora — qiziqadi.*
- 4- guruhga: *Navbatchi — keldi.*
- 5- guruhga: *Qushlar — uchib keladilar.*

**2- topshiriq.** Berilgan so'zlarni bir-biriga bog'lab, gap tuzing.

- 1- guruhga: *Tovuq, don, erta, Xolida, turib, sepedi.*
- 2- guruhga: *Ra'no, parvarish, sevadi, gullarni, doimo, shuning uchun, ularni, qiladi.*
- 3- guruhga: *Shohruh, buzilib qolsa, velosipedini, tuzatadi, o'zi.*
- 4- guruhga: *Kutubxonaga, ko'pgina, va, kitoblarni, Dono, a'zo bo'ldi, o'qidi.*
- 5- guruhga: *Kelajagi, asrashimiz, O'zbekiston, davlat, buyuk, uni, kerak, biz so'zлari beriladi.*

**3- topshiriq.** Berilgan so'zlardan o'zakdosh so'zlar hosil qiling.

- |                       |                          |
|-----------------------|--------------------------|
| 1- guruhga: ov, tuz.  | 4- guruhga: bosh, tish.  |
| 2- guruhga: sut, ish. | 5- guruhga: paxta, meva. |
| 3- guruhga: gul, suv. |                          |

**4- topshiriq.** Topishmoqni toping — topqirlikda o'zing.

- 1- guruh: Qat-qat qatlama, aqling bo'lsa tashlama.
- 2- guruhga: Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
- 3- guruhga: Kessa kesilmas, chopcha chopilmas.
- 4- guruhga: Qoziq ustida qor turmas.
- 5- guruhga: Tilla sandiq ochildi, ichidan zar sochildi.

### **5. topshiriq.**

Guruhlarga quyidagi so'zlar beriladi. Berilgan so'zlarga so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar qo'shiladi.

1 — ferma; 2 — maktab; 3 — deraza; 4 — qozon; 5 — kitob.


Har bir guruh xohlagan kinofilm yoki biron-bir ertakdan kichuk bir parchani sahnalashtiradi. Boshqa guruhlар bu ko'rinish qaysi kinofilmdan yoki qaysi ertakdan parcha ekanligini topadilar.

5. Guruhlар ishini yakunlash va baholash. O'qituvchi o'quv-chilarning qanday ishlaganini aytadi, rag'batlantiradi, qancha, qaysi rangdagi doirachalar yig'ganini hisoblab, to'plagan ballarini aytadi. G'olib guruhlар va har qaysi guruhlardagi faol o'quvchilar reyting ball tizimida baholanadi.

## So‘z turkumlari

(8 soat)

So‘z turkumlarini o‘rganishga tayyorgarlik 2- sinfdan boshlanadi. O‘quvchilar 2- sinfda kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar shaxs-narsani bildirishni, nima qildi?, nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar shaxs-narsanining harakatini, qanday?, qanqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar shaxs-narsanining belgisini, nechta?, qancha? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar narsa va shaxsning sanog‘ini bildirishi haqida ma’lumotga ega bo‘lganlar. Ana shu ma’lumotlar asosida o‘quvchilar 3- sinfda shaxs-narsani bildirgan so‘zlar ot, shaxs-narsanining belgisini bildirgan so‘zlar sifat, shaxs-narsanining harakatini bildirgan so‘zlar fe'l, shaxs-narsanining sanog‘ini bildirgan so‘zlar son deyilishini bilib oladilar. Ot, sifat, son, fe'l so‘z turkumi ekani haqida ma’lumot oladilar va ular ustida amalii mashqlar bajaradilar.



### 74- DARS

**Mavzu:** so‘z turkumlari haqida ma’lumot.

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqida tutshuncha berish; so‘zlarni turkumlarga ajratish yo‘llarini; so‘zlarga so‘roq berishni o‘rgatish; buyuk bobolar merosiga qiziqish uyg‘otish; so‘z zaxiralarini boyitish.

**Darsning turi:** yangi bilimlar berish.

**Darsning metodi:** ijodiy ish asosida, muammoli metod.

**Darsning jahozi:** turli xil rasmlar. Alisher Navoiyning yoshlikdagi rasmi. O‘yinchoq mashina.

**Darsning borishi.**

1. Tashkiliy qism. O‘quvchilarning darsga tayyorgarligi nazorat qilinadi.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

O‘qituvchi bolalarga o‘yinchoq mashinanini ko‘rsatib so‘raydi:

— Bu nima? (Mashina.)

— Mashinanini kim haydaydi? (Haydovchi.)

— Haydovchi so‘ziga so‘roq bering. (Kim?)

— Kim?, Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi? (Shaxs va narsani.)

- Mashinaning rangi qanday? (Qizil.)
- *Qizil* so‘zi shaxs-narsaning nimasi? (Belgisi.)
- Shaxs-narsaning belgisini bildirgan so‘zlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi? (Q a n d a y ?, q a n a q a ?)
- Mashina nechta? (Bitta.)
- *Bitta* so‘zi narsaning nimasini bildiryapti? (Sonini.)
- Narsaning sonini bildirgan so‘zlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi? (n e c h t a ?, q a n c h a ?)
- Mashina nima qiladi? (Yuradi.)
- *Yuradi* so‘zi shaxs-narsaning nimasini bildiryapti? (Hara-katini.)

— Shaxs-narsaning harakatini bildirgan so‘zlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi? (N i m a q i l d i ?, n i m a q i l a d i ?)

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini doskaga quyidagi tar-tibda yozib boradi.

Shaxs-narsani bildirgan so‘zlar (k i m ?, n i m a ?) — *mashi-na, haydovchi*, ... :

Belgini bildirgan so‘zlar (q a n d a y ?, q a n a q a ?) — *qi-zil*, ... :

Sanoqni bildirgan so‘zlar (n e c h t a ?, q a n c h a ?) — *bit-ta*, ... :

Harkatni bildirgan so‘zlar (n i m a q i l d i ?, n i m a q i l a-d i ?, n i m a q i l y a p t i ?) — *yurdi*, ... .

O‘quvchilar shaxs-narsa, belgi, sanoq, harakat bildirgan so‘zlardan aytadilar. Ular ham yozildi. O‘quvchilar ularni doskadan ko‘chirib yozadilar.

3. 182- mashqni o‘qituvchi rahbarligida bajarish. Bir o‘quvchi so‘zlarni o‘qib, ularni shaxs-narsa, belgi, sanoq va harakat bildir-gan so‘zlarni namunadagidek doskaga, qolgan o‘quvchilar daftariga yozadilar. Doskaga yozilganlarning har biri alohida-alohida o‘qitiladi va savol-javob o‘tkaziladi.

- Birinchi qatordagi so‘zlarni o‘qing (qish, qor, kun, dala, bog‘, tog‘, choyshab, bola, chana, qorbobo.)
- Bu so‘zlarga qanday so‘roq beriladi? (K i m ?, n i m a ?)
- K i m ?, n i m a ? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar nima-ni bildiradi? (Shaxs-narsalarni bildiradi.)
- Ikkinci qatordagi so‘zlarni o‘qing. (Sovuq, keng, meva-zor, oq, katta.)
- Bu so‘zlarga qanday so‘roq beriladi? (Q a n d a y ?, q a n a q a ?)

— Qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiryapti? (Belgini.)

— Uchinchi qatordagi so'zlarni o'qing. (Ikki, uch, to'rt.)

— Bu so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? (Qancha?, nechta?)

— Qancha?, nechta?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi? (Sanoqni bildiradi.)

— To'rtinchi qatordagi so'zlarni o'qing. (O'ynayapti, yog'yapti, ko'rindi, uchyapti, yasashyapti.)

— Bu so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? (Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilyaptilar?)

Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilyaptilar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi? (Harakatni bildiradi.)

O'quvchilarning javoblaridan xulosa chiqariladi. Shaxs-narsani bildirgan so'zlar **ot**, belgini bildirgan so'zlar **sifat**, sanoqni bildirgan so'zlar **son**, harakatni bildirgan so'zlar **fe'l** ekanini esda saqlash kerakligi aytildi. Ot, sifat, son, fe'l — so'z turkumidir. Bu qoida darslikdan o'qitiladi.

#### 4. Didaktik o'yin.

O'qituvchi shaxs-narsa nomini bildirgan so'zlar — ot, belgini bildirgan so'zlar — sifat, sanoqni bildirgan so'zlar — son, harakatni bildirgan so'zlar — fe'llardan aralash holda aytadi. Bolalar bu so'zlar nimani bildirishini kartochkalar orqali anglatadilar, ya'ni agar o'qituvchi narsa-shaxs bildirgan so'zlardan aytsa, qizil rangli kartochkani, belgi bildirgan so'zlardan aytsa, sarig rangli kartochkani, sanoq bildirgan so'zlardan aytsa, yashil rangli kartochkani, harakat bildirgan so'zlardan aytsa, ko'k rangli kartochkani ko'taradilar. O'yin oxirida birinchi bo'lib kartochka ko'targan o'quvchilarning nomini aytib, ularni rag'batlantiradi, xatoga yo'l qo'ygan, ikkilangan o'quvchilarga shoshmaslik, o'ylab javob berish lozimligini uqtiradi.

#### 5. Husnixat mashqlari.

Quyidagi she'r doskadan husnixat qoidalariga riosa qilgan holda ko'chirib yoziladi.

*G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,*

*El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.*

*Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,*

*Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish.*

She'r mazmuni yuzasidan suhbat.

— Bu she'rni kim yozgan? (Navoiy.)

— *G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish* deganda nimani tushunasiz? (Qiyinchilikda ezilib yurgan kishi shod bo'lmaydi degan ma'noni tushunish mumkin.)

— *El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish* deganda-chi? (El unga mehribonlik ham, shafqat ham qilmaydi degan ma'noni tushunish mumkin.)

— Shoir she'ring oxirgi ikki qatorida nima demoqchi? (Agar oltin qafasda qizil gul bitsa ham, bulbulga xuddi tikandek yoqmaydi, ya'ni oltin qafasda siqilib o'tirgandan ko'ra, tikanli joyda yurgan yaxshiroq, deyilgan.)

O'qituvchi javoblarni umumlashtirib, inson ham o'zgalarning go'zal shaharida yurgandan ko'ra, unchalik yaxshi bo'lmasa ham o'z shahrida, o'z uyida yurishni afzal biladi, deb xulosalaydi.

## 6. Darsni yakunlash, bilimlarni mustahkamlash.

### *Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

1. Bugun biz nima haqida gaplashdik?

2. So'zlar turkumlarga qanday ajraladi?

3. So'z turkumi deb nimaga aytiladi?

4. Otlarga, sifatlarga misol keltiring.

5. Sonlarga, fe'llarga misol keltiring.

6. Qaysi so'z turkumi gapda kesim vazifasida keladi?

7. Uyga vazifa: 183- mashq. Mashqni bajarish yo'li tushuntiriladi: a) matnni o'qib so'roqlar yordamida ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlarini aniqlash; b) ularni chizmaga qarab guruhlarga ajratib yozish; d) ajratib ko'rsatilgan so'zlarga yaqin ma'noli so'z topib yozish.

N a m u n a : *bahor — ko'klam ...*

8. O'quvchilar dars davomida to'plagan ballarini e'lon qilish.



## 75- DARS

**Mavzu:** so'z turkumlari.

**Darsning maqsadi:** a) so'roqlar yordamida va so'zlarning ma'nolariga ko'ra so'zlarni turkumlarga ajratish malakalarini rivojlantirish, so'z turkumlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish: „Sinkveyn“ usulida o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash; b) kitobga qiziqish uyg'otish.

**Darsning turi:** takrorlash, mustahkamlash.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** darslik.

**Darsning borishi.**

1. So'z turkumlari ot, sifat, son, fe'lni eslatish.

O'qituvchi: men topishmoq aytaman, sizlar javobini aytинг.

— Qishda ham yozda, bir xil kiyimda. (Archa.)

— To'g'ri. Endi *archa* so'ziga so'roq bering. (Nima?)

— Demak, *archa* so'zi ot turkumiga kiradi.

— Archa qanday? (Yashil.)

— *Yashil* so'ziga so'roq bering. (Qanday?)

— *Yashil* so'zi sifat so'z turkumiga kirar ekan.

— Qancha archa? (5 ta archa.)

— *Beshta* so'ziga so'roq bering. (Nechta?)

— *Beshta* so'zi qaysi so'z turkumiga kiradi? (Son so'z turkumiga kiradi.)

— Archa hamisha nima qiladi? (Yashnab turadi.)

— *Yashnab turadi* so'ziga so'roq bering. (Nima qiladi?)

— *Yashnab turadi* so'zi qaysi so'z turkumiga kiradi? (Fe'l so'z turkumiga.)

— Demak, nutqimizda har xil so'zlar bor. Ular narsa, belgi, sanoq, harakatni bildiradi. Bu so'zlar ot, sifat, son, fe'l so'z turkumiga kiradi.

2. Darslik bilan ishslash. 185- mashq.

Mashqda berilgan so'zлами qaysi so'z turkumiga tegishli ekanini aniqlab, ularga -la qo'shimchasini qo'shib so'z yasash va ular qaysi so'z turkumiga tegishli ekanini tushuntirish talab etilgan. Buning uchun quyidagicha suhbat uyuşhtiriladi:

— *Ixcham* so'ziga so'roq bering. (Qanday?)

— Qanday?, Qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi? (Belgini.)

— Belgi bildirgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi? (Sifat so'z turkumiga.)

— *Ixcham* so'ziga -la qo'shimchasini qo'shib aytинг. (Ixchamla.)

— *Ixchamla* so'ziga so'roq bering. (Nima qil?)

— Nima qiladi?, Nima qildi?, Nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi? (Harakatni.)

Harakat bildirgan so'zlar qaysi so'z turkumiga tegishli? (Fe'l so'z turkumiga.)

So'zlar doskaga yozilib, o'zak va qo'shimchalari belgilanadi.

— *Ixcham, ixchamla* so'zlarining o'zagini ayting. (*Ixcham.*)

— -la nima? (Qo'shimcha.)

— Qanday qo'shimcha? (So'z yasovchi qo'shimcha.) *Ixcham — ixchamla.*

Mashqda berilgan so'zlar ustida shunday suhbat o'tkazilib, xulosa chiqariladi. Sifatlarga -la qo'shimchasini qo'shish orqali fe'llar yasaladi.

Tahlil qilingan so'zlar doskaga yozib boriladi. O'quvchilar ularni doskadan ko'chiradilar.

3. Yod diktant. Yod diktant quyidagi she'r bilan o'tkaziladi.

### Ota-onा

*Ota-onা ikki so'z,*

*Biri qosh va biri ko'z.*

*Bir-biridan qimmatli,*

*Mehri daryo himmatli.*

O'quvchilar yod diktantni yozib bo'lgach, so'z yasovchi qo'shimchalarini aniqlab, odatdagidek belgilaydilar.

4. 186- mashqni bajarish. Matn o'qilib, mazmun yoritiladi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, bu so'z qaysi so'z turkumiga tegishli ekanini aniqlanadi. Mashq og'zaki bajariladi.

— Matnda nima haqida gap boradi? (*Kitob haqida.*)

— Kim kitob bilan do'stlashgan?

— Kitobning sahifasi nimalar bilan to'la?

— U qayerdan tushgan nur kabi yiltillaydi?

— Qanday hayotga yo'llovchi eshiklar ochiq?

— Bu nurni kim ochgan?

— Hur sari nima qilmoq kerak?

— Kitob o'qish inson hayotida zarurmi?

— Qaysi kutubxonaga a'zo bo'lgansiz?

— Qanday kitoblar o'qigansiz?

— Qaysi kitob sizga ta'sir qilgan?

— *Kitob — baxt kaliti* deyilgan fikrga qanday qaraysiz?

Suhbat o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi.

— *Yaxshi* so'ziga so'roq bering. (Q anday?)

— *Yaxshi* so'zi nimani bildiryapti? (Belgini.)

— Belgi bildirgan so'z qaysi so'z turkumiga kiradi? (Sifat so'z turkumiga)

- *Kitob so'ziga so'roq bering. (N i m a ? )*
- *N i m a ?, k i m ? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nima-ni bildiradi? (Shaxs va narsalarni.)*
- *Shaxs va narsalarni bildirgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi? (Ot so'z turkumiga kiradi.)*

Ana shunday suhbat orqali *tor, bolalarning, yiltillaydi, tuynuk, katta, eshiklar, nur* so'zlarini qaysi so'z turkumiga mansubligi aniqlanadi.

5. Husnixat mashqlari uchun „sobiq yo'ldoshingiz“ matnida quyidagi gaplar tanlab olinadi.

*Nur sari dadilroq qadam tashlang.*

*Kitobni jon-dilingizdan seving! U sizning umrbod sodiq yo'ldoshingiz bo'lib qolsin.*

Husnixat qoidalari eslatiladi. O'quvchilar uni kitobdan ko'chiradilar.

6. Ijodiy ish. „Sinkveyn“ usulida 5 misrali she'r yozish. 1-misraga kim? yoki n i m a ? so'rog'iga javob bo'lgan 1 ta so'z. 2-misraga q a n d a y ?, q a n a q a ? so'rog'iga javob bo'lgan 2 ta so'z. 3- misraga n i m a q i l d i ?, n i m a q i l a d i ? so'rog'iga javob bo'lgan 3 ta fe'l.

4. Shaxs-narsani ifodalovchi gap.

5. 1- misradagi so'zga sinonim bo'lgan 1—2 ta so'z.

Masalan: *Kitobim* (N i m a ? )

*Gavhar-u obihayotsan. (Q a n d a y ? )*

*Nur taratib, yo'l ko'rsatib, dunyo tanitgan. (N i m a q i l g a n ? )*

*Har qorong'u dilni nurafshon etgan*

*Oftobimsan.*

*Onajonginam,*

*Mehribonim, g'amxo 'rim,*

*Suyub, erkalab, quchib.*

*Mehr bulog'ingizdan to'yib, qondirgan,*

*Azizam, quyoshim.*

Imkon qadar o'quvchilar so'z turkumlariga so'zlar topishga harakat qiladilar, o'qituvchi she'rning qofiyasida, so'zlarni o'z o'mniga qo'ya bilishda yordam beradi.

7. Darsni yakunlash, o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalilanadi.

— So'z turkumlari nima?

— So'zlar so'z turkumlariga qanday ajratiladi?

- Ot turkumiga misol keltiring.
- Nima uchun bu so'zni ot deymiz?
- Belgi bildirgan so'zlarga misol keltiring.
- Qancha?, Nechta?, Nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi?
- Harakat bildirgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi?
- Misol keltiring.

8. Uyga vazifa: 187- mashq. Mashqning bajarilishi tushuntiriladi. Birinchi ustundagi so'zlarga -chi, ikkinchi ustundagi so'zlarga -li qo'shimchasini qo'shib, yangi so'zlar yasash, so'zlarga so'roq berish orqali ularning qaysi so'z turkumiga tegishli ekanini aniqlash, yasalgan so'zlarni yozib, qo'shimchalarni belgilash.

N a m u n a : sut — sutchi.

### Ot (8 soat)

O'quvchilar 2- sinfda so'z turkumlari haqida boshlang'ich ma'lumotni olganlar. Ular kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar shaxs-narsaning tushunchasini bildirishi haqida amaliy ko'nikma hosil qilganlar. Endi o'quvchilarda shaxs-narsa tushunchasi bilan bog'liq „ot“ning leksik va grammatik belgilarini shakllantirish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, o'quvchilarning atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, otlarning birlikda va ko'plikda qo'llanishi yuzasidan olgan bilimlarini boyitish va mustahkamlash lozim.

O'quvchilarning so'z boyligini yangi so'zlar hisobiga boyitish, ularda yangi so'z — otlarni o'z nutqida aniq va o'rini ishlatalish ko'nikmalarini hosil qilish lozim.

„Ot“ mavzusini o'tishda, otlarni leksik ma'nosiga ko'ra guruhlash ma'nolarning xilma-xilligini kuzatish, sinonim va antonimlar bilan tanishtirish yuzasidan lug'aviy-mantiqiy mashqlar o'tkazildi. Otlarning ma'nolari va ularning turli grammatik shaklda qo'llanilishiga oid ishlar nutq o'stirish mashqlari bilan bog'liq holda olib boriladi. O'quvchilar tabiatni kuzatish jarayonida aniq predmetni bildirgan so'zlardan tashqari, tabiatshunoslik darslarida, grammatik mashg'ulotlarda kishilar va ularning kasbi, jonli mavjudotlar, o'simliklar dunyosi, mehnat qilish asbob-qurollari, tabiat hodisalari, turli voqe'a-hodisalar nomlarining ham ot ekanligini asta-sekin bilib oladilar.

„Ot“ mavzusini o‘tishda leksik-grammatik hodisalarning har biri alohida-alohida emas, o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi, asosiy e’tibor kuzatilgan maqsad bilan bog‘liq bo‘lgan vazifani bajarishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ammo nutq o‘stirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mashqlarini mavzuni o‘tish jarayonining hamma bosqichida amalga oshirish lozim bo‘ladi. Ta‘limning samarador bo‘lishi ham shu ishning to‘g‘ri shakllantirilishi bilan uzziy bog‘liqidir.

Xullas, o‘quvchilarda ot turkumi haqida tushuncha hosil qilish uchun otning shaxs-narsa tushunchasini bildirishi, xarakterli grammatik belgilari va nutqimizdagi vazifasi haqida ma’lumot berishga erishishimiz zarur.



## 82- DARS

**Mavzu:** ot haqida tushuncha.

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarga ot so‘z turkumi haqida tushuncha berish, shaxslarni bildirgan otlarga kim?, narsalarni bildirgan otlarga nima? so‘roqlarini berishga o‘rgatish, o‘simlik va hayvonlarga, tabiat hodisalari, qushlar, o‘quv qurollariga to‘g‘ri so‘roq berish va ularni guruhab yozish malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** tahlil va tarkib.

**Darsning jihози:** o‘simliklar, o‘quv qurollari, hayvonlar, qushlarning rasmlari.

**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish. O‘quvchilarning darsga hozirliklarini kuzatish.

2. Yangi mavzuni bayon etish. Mavzu 190- mashqni bajarish orqali tushuntiriladi. Mashqda berilgan so‘zlar o‘qitiladi. Ularning har biriga so‘roq berib, nimani anglatishi aniqlanadi.

— Birinchi so‘zni o‘qing. (Televizor.)

— Televizor so‘ziga so‘roq bering. (Nim a?)

— Nim a? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi?

(Narsalarni bildiradi.)

— Televizor so‘zi nimani bildiryapti? (Narsani.)

— Ikkinchi so‘zni o‘qing. (Bola.)

— Bola so‘ziga qanday so‘roq beriladi? (Kim?)

— Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘z nimani bildiradi?

(Shaxsni.)

So'zlar doskaga narmunada ko'rsatilganidek, shaxs va narsalar-  
ga ajratib yozib boriladi. Mashqda berilgan boshqa so'zlar bilan  
ham shunday savol-javob o'tkaziladi. Javoblar umumlashtiriladi.

Narsa va shaxsni bildirib, k i m ? yoki n i m a ? so'rog'iga ja-  
vob bo'lgan so'zlar **ot** deyiladi. O'quvchilar bu qoidani darslikdan  
o'qiylilar, doskaga yozilganlarni ko'chiradilar.

**N a m u n a :** Shaxslar: k i m ? bola, ...

**Narsalar:** n i m a ? kitob, ...

3. Didaktik o'yin. O'quvchilar o'rinalardan turadilar. Koptokcha  
bilan zanjirli so'z o'yini o'tkaziladi: o'quvchi k i m ? yoki n i m a ?  
so'rog'iga javob bo'lgan biror so'zni aytib, koptokni o'rtog'iga  
irg'itadi, o'rtog'i koptokni ilib oladi va aytilgan so'zning oxirgi  
harfi bilan boshlanuvchi so'z aytib, koptokni boshqa o'rtog'iga  
irg'itadi. (Masalan: *o'qituvchi — ilon — nok — kosib — bola — anor — ...*)

O'yin shunday davom etadi.

4. Darslik bilan ishlash. 191- mashqdagi so'zlar o'qiladi. Ular  
qaysi so'z turkumiga kirishi aniqlanadi. Har bir guruhdagi so'zlarga  
o'quvchilar yana ikkitadan so'z qo'shadilar.

Mashq og'zaki bajariladi. Har bir guruhdagi so'zlar tahlil  
qilinadi.

- Birinchi qatordagi so'zlarni o'qing: *cho'pon, bo'yoqchi.*
- Bu so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi? (K i m ? so'rog'iga  
javob bo'ladi.)
- Yana ikkita k i m ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlardan ay-  
ting. (*Duradgor, surnaychi.*)
- Bu so'zlar qaysi so'roqqa javob bo'ladi? (Bular ham k i m ?  
so'rog'iga javob bo'lyapti.)
- K i m ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi?  
(Shaxsni bildiradi.)
- Shaxsni bildirgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi? (Otga.)
- Ikkinchchi qatordagi so'zlarni o'qing. (*Paxta, bug'doy.*)
- Bu so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi? (N i m a ?  
so'rog'iga javob bo'ladi.)
- Paxta, bug'doy nimani anglatyapti? (O'simliklarni.)
- N i m a ? so'rog'iga javob bo'lgan o'simlik nomlaridan ikkita  
ayting. (*No'xat, lavlagi.*)
- Bu so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi? (Nima?  
so'rog'iga.)
- Bular nimani bildiryapti? (Narsani.)

— Narsani bildirgan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga kiradi? (Ot so‘z turkumiga kiradi.)

— 3, 4, 5- qatordagi so‘zlar ham xuddi shunday tahlil qilinib, uchinchi qatorda hayvonlar, to‘rtinchi qatorda qushlar, be-shinchchi qatorda ish qurollariga tegishli so‘zlar berilgani, ular ham n i m a ? so‘rog‘iga javob bo‘lishini o‘quvchilar bilib oladilar. O‘qituvchi javoblarni umumlashtiradi. Shaxslarni bildirgan otlar k i m ?, o‘simplik, hayvonlar, qushlar, ish qurollarini bildirgan otlar n i m a ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

### 5. Husnixat mashqlari.

Doskaga 8 ta narsanining rasmi qo‘yiladi. Rasmlar o‘quvchilar bilan birgalikda kuzatib chiqiladi. O‘quvchilarga ularning nomlari ayttililadi. Bular kundalik hayotda, ro‘zg‘orda ishlatalishi aniqlanadi. So‘ng‘ra rasmlar doskadan olib qo‘yilib, o‘quvchilar navbat bilan doskaga chiqib, rasmdagi narsalarning nomini yozadilar: *qalam, tulki, daftар, kosa, ayiq, piyola, chizg‘ich, qoshiq*. Bu so‘zlar guruhlarga ajratiladi.

— Qaysi so‘zlar o‘quv qurollariga kiradi? (*Qalam, daftар, chizg‘ich.*)

— Qaysi so‘zlar idishlarga kiradi? (*Kosa, piyola, qoshiq.*)

— Qolgan so‘zlarni aytинг. (*Tulki, ayiq.*)

— Bular nimalarga kiradi? (*Yovvoyi hayvonlarga kiradi.*)

— Bu so‘zlarga qanday so‘roq beriladi? (N i m a ?)

O‘qituvchi so‘zlarni guruhlarga ajratib yozib boradi.

**O‘quv qurollari:** *qalam, daftар, chizg‘ich.*

**Idishlar:** *kosa, piyola, qoshiq.*

**Yovvoyi hayvonlar:** *tulki, ayiq.*

O‘quvchilar bulami husnixat qoidalariga rioya qilib, ko‘chirib yozadilar.

6. 192- mashqni bajarish. Bu mashq ham 191- mashqdagidek bajariladi. Har bir so‘z o‘qilib, tahlil qilingach, guruhlarga ajratib yoziladi. O‘qituvchi ulardan xulosa chiqaradi. Shaxslarni bildirgan otlar k i m ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Kishilardan boshqa narsalarni (narsalarni, hayvonlarni, turli hodisalarni) bildirgan otlar n i m a ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. O‘quvchilar bu qoidani darslikdan topib o‘qiydilar. Doskadagilarni ko‘chirib yozadilar.

### 7. Lug‘at so‘zlar bilan ishlash.

*Piyola, poyezd, javon, farzand, karam* so‘zlarining talaffuzi va imlosiga o‘quvchilar diqqati qaratilib, *piyola — pela, poyezd — poyez,*

*javon — jovon, farzand — farzan, karam — karom* tarzida talaffuz etilsa ham, asliga ko'ra yozilishi uqtiriladi. Bu so'zlarning imlosini yodda saqlash tushuntiriladi.

8. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

— „Ot“ deb nimaga aytildi?

— „Ot“lar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

— Qanday otlarga kim? so'rog'i beriladi?

— Nima? so'rog'i qanday otlarga beriladi?

9. Uyga vazifa 193- mashq. Mashq tushuntiriladi: a) ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berish; b) ularni ko'chirib yozish; d) so'zlarning ustiga so'roqlarini yozish.

Nima? Kim?

Namuna: Quyosh chiqdi. Ishchi zavodga keldi.

### Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishi (11 soat)

O'quvchilarni otlar kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so'rog'iga javob bo'lib, bir shaxs-narsani yoki ko'p shaxs-narsani bildirishini farqlashga o'rgatishda qiyoslash metodidan foy-dalanish yaxshi natija beradi. Bunda bir shaxs-narsa bilan shu xildagi bir necha shaxs-narsalar o'quvchilarga ko'rsatilib, taqqos-lanadi. Masalan, o'qituvchi bitta qaldirg'och rasmini ko'rsatib, o'quvchilardan so'raydi.

— Rasmda nimani ko'ryapsiz? (Qaldirg'ochni.)

— U nechta? (Bitta.)

Shaxs-narsaga so'roq bering.

— Nima?

So'ngra o'qituvchi bir necha qaldirg'ochning rasmini ko'rsatib so'raydi:

— Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? (Qaldirg'ochlarni.)

Ularga so'roq bering.

— Nimalar?

Shu tarzda bir o'quvchi bilan ko'p o'quvchi, bir kitob bilan ko'p kitob qiyoslanadi. Buning natijasida bolalarga bir shaxs-narsani bildirgan ot birgalikda, ko'p (ikki va undan ortiq) shaxs-narsani bildirgan ot ko'plikda bo'lishi uqtiriladi va ko'plikdagi otlar -lar qo'shimchasi yordamida hosil qilinishi tushuntiriladi. O'quvchilar birlik va ko'plikda qo'llangan otlarni matndan topish,

bunday so'zlarga so'roq berish, birlikdagi otni ko'plikda, ko'plikdagi otni birlikda qo'llashga ko'nikma hosil qiladilar.

Mavzularni o'rganish jarayonida 3- sinf o'quvchilarining *qalam* so'ziga n i m a ?, *qalamlar* so'ziga n i m a l a r ?, *bola* so'ziga k i m ?, *bolalar* so'ziga k i m l a r ? so'rog'ini to'g'ri qo'ya olishlariga va ko'plik qo'shimchasi -larning talaffuzi va yozilishini bilib olishlariga erishish lozim.



## 90- DARS

**Mavzu:** otlarda birlik va ko'plik.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni birlik va ko'plikdagi otlar bilan tanishtirish, birlikdagi otlar bilan ko'plikdagi otlarni farqlash, ularga so'roqni to'g'ri qo'yish, birlikdagi otlardan ko'plikdagi otlar hosil qilish vositalari o'rgatiladi. Mustaqillikka yo'naltirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** mustaqillikka yo'naltirish.

**Darsning jahozi:** turli rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish. Sinf va o'quvchilarning darsga tayyorligi kuzatiladi.

2. Yangi mavzuni bayon etish. 211- mashqdag'i ikkita gap o'qiladi. O'quvchilar diqqati o'quvchi, o'quvchilar so'ziga qaratiladi.

- *O'quvchi* so'ziga so'roq bering. (K i m ?)
- *O'quvchi* — ot. O'quvchi nechta ot? (O'quvchi bitta ot.)
- *O'quvchilar* so'ziga so'roq bering. ( K i m l a r ?)
- *O'quvchilar* nechta? (O'quvchilar ko'p.)
- *O'quvchilar* ko'plikdagi ot.
- Keyingi ikkita gap o'qiladi.

Mashqdag'i *bulbul*, *bulbullar*, *qaldirg'och*, *qaldirg'ochlar*, *kitob*, *kitoblar* so'zлari yuzasidan ham yuqoridagidek savol-javob o'tkaziladi.

Birlik va ko'plikdagi otlar aniqlanadi. Ulardan quyidagi xulosa chiqariladi: otlar birlik va ko'plikda bo'ladi. Birlikdagi otlar k i m ? yoki n i m a ?, ko'plikdagi otlar k i m l a r ? yoki n i m a l a r ? so'rog'iga javob bo'ladi. -lar qo'shimchasi birlikdagi otdan ko'plikdagi otni hosil qiladi.

Birlik va ko'plikdagi otlar doskaga quyidagi tartibda yozib boriladi:

## Birlikdagi otlar

*o'quvchi  
bulbul  
qaldirg'och  
kitob*

## Ko'plikdagi otlar

*o'quvchilar  
bulbullar  
qaldirg'ochlar  
kitoblar*

O'quvchilar doskadagi otlarni ko'chirib yozadilar.

3. 212- mashqni bajarish. She'r o'qitilib, so'roqlar yordamida otlarning birlik va ko'plikda ekani aniqlanadi. Ko'plikdagi otlarni birlikdagi otlarga aylantirib yoziladi.

N a m u n a : *sovuqlar — sovuq*

4. Saylanma diktant.

Saylanma diktant uchun quyidagi gaplardan foydalanish mumkin.

1. Navbatchi sinf xonasini shamollatdi.
2. Kuzda daraxt barglari sarg'aydi.
3. Yengil shabada esdi.
4. Kabutarlar osmonga ko'tarildi.

O'qituvchi gaplarni alohida-alohida o'qiydi. O'quvchilar gaplarni diqqat bilan tinglab, birlik va ko'plikdagi otlarni tanlab yoza-dilar.

5. Husnixat mashqlari. Husnixat uchun material.

*Boshni fidо ayla ato boshig'a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig'a...  
Tun-kuningga aylagil nur posh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh!...*

She'r husnixat talablariga rioya qilingan holda ko'chirib yoziladi.

6. Darsni yakunlash, bilimlarni savollar bilan mustahkam-lash.

- Birlikdagi va ko'plikdagi otlar nimasi bilan farqlanadi?
- Ko'plikdagi otlar qaysi qo'shimchaga ega?
- Ko'plikdagi otlarga qanday so'roq beriladi?

O'quvchilarning savollarga bergen javoblari xulosalanadi, darsga yakun yasaladi.

7. Uyga vazifa: 213- mashqda berilgan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirib yozish.



**Mavzu:** ot yasovchi qo'shimchalar.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni ot yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish; **-chi**, **-kor**, **-dosh** qo'shimchalari bilan shaxs nomini bildiruvchi otlar, **-zor**, **-loq** qo'shimchalari bilan o'rinish joy nomini bildiruvchi otlar hosil qilinishini amaliy ko'rsatish, bunday otlarning ma'no va tuzilishi haqida tushuncha berish; o'quvchilarni mustaqillikka, ijodkorlikka yo'naltirish, husnixat malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi dars.

**Darsning metodi:** izlanish, suhbat metodi.

**Darsning jahozi:** turli rasmlar va darslik.

**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish, sinf va o'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

Doskaga paxta, olma, gul, tosh va ikki qizni tasvirlovchi rasmilar osilib, ular yuzasidan quyidagicha suhbat uyuştiriladi:

— Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? (Paxta, olma, gul, tosh, 2 ta teng qizlarni ko'ryapmiz.)

— *Paxta so'ziga -kor qo'shimchasini qo'shib o'qing.* (*Paxta-kor.*)

— *Paxtakor so'zi qaysi so'z turkumiga kiradi?* (Ot so'z turkumiga kiradi.)

— *Paxta, paxtakor so'zlarini uchun umumiyl bo'lgan so'zni ayting.* (*Paxta.*)

— Demak, *paxta so'zning nimasi ekan?* (O'zagi ekan.)

— **-kor** nima? (-**kor** — qo'shimcha.)

— *Paxta so'zi nimani bildiryapti?* (*Narsani.*)

— *Paxtakor so'ziga so'roq bering.* (K i m ?)

— I so'zi nimani bildiryapti? (*Shaxsni bildiryapti.*)

— Narsa bildiruvchi otga **-kor** qo'shimchasini qo'shish bilan qanday ot yasaldi? (*Shaxs oti yasaldi.*)

— **-kor** qanday qo'shimcha ekan? (So'z yasovchi qo'shimcha ekan.)

*Olma, gul, tosh, teng so'zlariga -zor, -chi, -loq, -dosh* qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali otlar hosil qilish, ular

qanday otlar ekanini, nimani anglatishi, bu qo'shimchalar qanday qo'shimchalar ekani haqida yuqoridagi kabi savol-javob o'tkaziladi. Suhbat jarayonida hosil bo'lgan otlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratib, ular doskaga quyidagi ko'rinishda yozib boriladi.

*Paxta* — *paxtakor* (shaxs oti).

*Olma* — *olmazor* (o'rin-joy oti).

*Gul* — *gulchi* (shaxs oti).

*Tosh* — *toshloq* (o'rin-joy oti).

*Teng* — *tengdosh* (shaxs oti).

Javoblar umumlashtirilib, -chi, -kor, -dosh qo'shimchalari shaxs ma'nosini, -zor, -loq qo'shimchalar o'rinni joy ma'nosini bildirgan otlar yasaydi, degan qoida keltirib chiqariladi. O'quvchilar bu qoidani darslikdan o'qiydilar. Doskadagilarni ko'chirib yozadilar.

3. Darslik bilan ishlash. 226- mashqning topshirig'ini mustaqil o'qib chiqish topshiriladi. O'qituvchi mashqni qanday bajarish lozimligini so'raydi.

— Birinchi nima ish qilishimiz kerak?

— Mashqda berilgan ishlarni o'qiymiz. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'zak va qo'shimchalarini aniqlaymiz.

— Ikkinci nima qilish kerak?

— Ajratib berilgan so'zlarning o'zaklarini bir ustunga, so'z yasovchi qo'shimcha olgan otlarni ikkinchi ustunga yozish kerak.

— Uchinchi ishimiz nima?

— Birinchi ustundagi otlar bilan ikkinchi ustundagi otlarning ma'nolarini farqlash.

— Mashqda berilgan birinchi gapni o'qing.

— *Havaskor qo'shiqchi quvnoq ohangda kuyladi.*

— Ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi?

— *Havaskor.*

Bu so'zning o'zak va qo'shimchalarini aytинг.

— *Havas* — o'zak, -kor — qo'shimcha.

So'ngra so'zlar ikki ustunga, ya'ni birinchi ustunga o'zak (*havas*) ikkinchi ustunga qo'shimcha olgan ot (*havaskor*) yoziladi. Suhbat jarayonida mashqda ajratib ko'rsatilgan otlar quyidagicha ko'rinishda doskaga yoziladi va ularning o'zak qo'shimchalarini odadagidek belgilanadi.

*Havas* — *havaskor*. *Qo'shiq* — *qo'shiqchi*. *Temir* — *temirchi*.

*Gul* — *gulzor*. *Ohang* — *ohangdosh*.

So'zlarning ma'nolari aniqlanadi.

- *Havas* so'ziga so'roq bering. (Ni ma?)
- Bu so'z nimani anglatadi? (Narsani.)
- Havaskor so'ziga so'roq bering. (Kim?)
- U nimani anglatadi? (Shaxsni anglatadi.)

Mashqda berilgan boshqa so'zlarning ma'nolari ham shu taxlitda ko'rib chiqiladi.

*Qo'shiq* so'zi narsa nomini, *qo'shiqchi* so'zi shaxs nomini, *temir* so'zi narsa nomini, *temirchi* so'zi shaxs otini, *gul* so'zi narsa nomini, *gulzor* so'zi o'rinn-joy nomini anglatishini o'quvchilar bilib oladilar.

4. 227- mashqni bajarish. O'quvchilardan biri mashqning shartini o'qib, uni qanday bajarish kerakligini tushuntirib beradi. O'qituvchi doskada namuna ko'rsatadi. Namuna: *o'yinchi, surnaychi....*

O'quvchilar mashqni mustaqil bajaradilar. Mashqni tekshirshda o'quvchilar yozganlarini o'qib, qo'shimchalarni aytadilar va so'zlarning ma'nosini izohlaydilar.

5. Lug'at ishi. *Bastakor* so'zining ma'nosini izohlanadi, *surnay, ohang, havaskor* so'zlarining imlosi ko'rib chiqiladi.

*Bastakor* — kompozitor, qo'shiq, kuy yaratuvchi.

*Surnaychi, ohangdosh, havaskor* so'zları bo'g'in, harf, tovush tomonidan ko'rib chiqiladi. Har bir so'zning talaffuzi bilan imlosi o'tasidagi farq aniqlanadi. Har qanday holatda ham bu so'zlar qoidaga mos ravishda yozilishi va bu so'zlarning imlosini yodda saqlash uqtiriladi. Imlosi o'rganilgan so'zlar bilan og'zaki gaplar tuzdiriladi, ularning ayrimlari aytib turib yozdiriladi: *Havaskor qizlar raqsni zavq bilan ijro etdilar. Hofizlar ohangdosh qo'shiqlardan kuyladilar. Surnaychi surnayni ba'zan yuqoriga, ba'zan pastga qarab chalardi.*

6. Husnixat mashqlari.

Shoir: *Ko'rkam bo'lsin yozuvning,*

*Yozuvga ber bor mehring.*

Husnixat shioriga amal qilgan holda quyidagi she'r ko'chirib yoziladi:

*Bog'larimizda yayraymiz har dam,  
Bilim olamiz, kuylaymiz bardam.  
Dunyoda xalqlar kun kechirsa tinch,  
Ota-onalar tashvish tortmas hech.*

(I. Muslim)

7. Darsni yakunlash va o'quvchilar bilimini mustahkamlash.  
Mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalaniлади.
  - Bugun darsimizda nimalar bilan tanishdik?
  - Qaysi qo'shimchalar shaxs oti yasovchi qo'shimchalar ekan?
  - Qaysi qo'shimchalar o'rinn-joy oti yasovchi qo'shimchalar ekan?
  - Ot yasovchi qo'shimchalar qanday vazifani bajarar ekan?
  - Ot yasovchi qo'shimchalar so'zning qaysi qismiga qo'shiladi?

8. Uyga vazifa: 228- mashq.

So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil bo'lgan otlarni aniqlab, ularni ko'chirib yozish, ot yasovchi qo'shimchalarni belgilash lozimligi tushuntiriladi va namuna ko'rsatiladi.

N a m u n a : *tashuvchi*.

9. O'quvchilar bilimini baholash.



## 97- DARS

**Mavzu:** ot yasovchi qo'shimchalar (mustahkamlash).

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning ot yasovchi qo'shimchalar haqidagi tushunchalarini kengaytirish, otlarga ot yasovchi qo'shimchalar qo'shib, yangi ma'noli otlar hosil qilishni o'rgatish, test topshiriqlari bilan ishslash, aqliy faoliyatini rivojlantirish.

**Darsning turi:** takrorlash.

**Darsning metodi:** mustaqillik va ijodkorlikka yo'naltiruvchi metod.

**Darsning jahozi:** rasmlar, plakatlar.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasining bajarilishini tekshirish. O'quvchilar 228-mashqdagi she'riy parchalardan yasovchi qo'shimchali otlarni (*gulzorda, tashuvchi, ishchilardan, dengizchilar, baliqchiga, paxtalari*) o'qib, ulardag'i ot yasovchi qo'shimchalarni aytadilar va qo'shimchalarga izoh beradilar.

2. Darslik bilan ishslash. 229- mashqda berilgan otlar o'quvchilarga o'qitiladi, ularga ot yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, otlar hosil qilinadi. Hosil qilingan otlar yonma-yon yoziladi. Yasovchi qo'shimchalar odatdagidek belgilanadi. Mashq doskada bajariladi. O'quvchilar o'z ishlarini doskadagilar bilan solishtiradilar.

*Ijod — ijodkor. Pardoz — pardozchi. G'alla — g'allakor.*

Savollar yordamida so'zlarning ma'nolari, qo'shimchalarining qanday qo'shimcha ekani aniqlanadi.

### 3. 230- mashqni bajarish.

O'quvchilar ikki guruuhga bo'linadilar: birinchi guruuhga -chi, -kor, -dosh qo'shimchalari bilan shaxs otlari hosil qilib yozish, ikkinchi guruuhga -zor, -loq qo'shimchalari bilan o'rinn-joy otlari hosil qilib yozish vazifasi topshiriladi. O'quvchilar lug'atdan yoki o'z lug'atlaridagi so'zlardan foydalaniib, topshiriqni bajaradilar. O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, daftarlarini almashtirib, bir-birlarining ishlarini tekshiradilar. Yozilgan so'zlar o'qitiladi va so'zlarning ma'nolarini tushuntirib berish talab etiladi. Eng ko'p so'z aytgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'quvchilar yozgan so'zlar ishtirokida og'zaki gaplar tuzadilar va tuzgan gaplarini aytadilar.

### 4. Husnixat mashqlari.

Quyidagi maqollar husnixat qoidalariiga amal qilgan holda doskadan ko'chiriladi. Bilim — baxt keltirar. *Bilimsiz kishiga ish yo'q, ishsiz kishiga osh yo'q.*

Maqollarning mazmuni yoritiladi.

- Bilim nima?
- Inson uchun bilim nima uchun kerak?
- Ilm-tariqatga hissa qo'shgan buyuk allomalardan kimlarni bilasiz?
- Qanday kasblarni bilasiz?
- Ulardan qaysi biri sizga yoqadi?
- Kelajakda kim bo'lishni xohlaysiz?
- „Ishsiz kishiga osh yo'q“ deganda nimani tushunasiz?

### 5. O'quvchilarining fikrlash doirasini aniqlash, kengaytirish maqsadida aqliy hujum (erkin fikrlash — pingbord) o'tkaziladi.

O'qituvchi kitobni o'quvchilarga ko'rsatib, bu haqda nima deyish mumkin, deb so'raydi. O'quvchilar kitob haqida bilganlarini aytadilar. O'qituvchi ularni doskaga yozib boradi.

Kitobni o'qiymiz. Kitob bilim beradi. Kitobda ertaklar yozildi. Kitobni yozadilar. Kitobda rasmlar bor. Kitob qog'ozdan ishlanaadi. Kitobning muqovasi bor. Bosmaxonada bosiladi. Sovg'a qilib beriladi. Do'konda sotiladi. Kitobni yirtish mumkin emas. Kitob — o'quv quroli. Kitobni ozoda saqlash kerak. Ko'p o'qish kerak.

Unda topishmoq, maqollar bor. „Qur'on“ kitobi. Javonda saqlash kerak. Uni sevish kerak. Ko'p narsalarni kitobdan o'rganamiz. Kitob — do'st. Kitob — ostob.

O'qituvchi o'quvchilarning kitob haqidagi fikrlarini umumlashtiradi: kitob haqida juda ko'p narsalarni bilar ekansiz. Kitob bizning qurolimiz, kitob bilim manbayi, kitobdan ko'p narsalarni bilib olamiz. Kitob bizga kelib yetishi uchun ko'p vaqt va mehnat kerak. Shuning uchun ham kitob yozgan kishilarni hurmat qilishimiz, kitobni yaxshi saqlashimiz kerak.

Bilim, rasm, muqova, yozuv so'zlariga so'z yasovchi qo'shimchalardan qo'shib, qanday yangi ma'noli so'zlar hosil qilish mumkinligi so'raladi. O'quvchilar *bilimli*, *bilimsiz*; *rasmli*, *rasmsiz*, *rasmchi*; *muqovali*, *muqovasiz*, *muqovala*, *muqovachi*; *yozuvli*, *yozuvsiz*, *yozuvchi* so'zlarini aytib, ularning o'zak va qo'shimchalari va ma'nolarini izohlaydilar.

#### 6. Darsni yakunlash.


— Darsda nima ishlar qildingiz?

— Qaysi mavzuni mustahkamladik?

— Dars sizga yoqadimi?

7. Uyga vazifa: 231- mashq. Nuqtalar o'rniga ot yasovchi qo'shimchalar qo'yib, bиринчи, иккинчи gaplar o'qiladi. O'qilganidek yozish tushuntiriladi.

### Sifat — so'z turkumi



**Mavzu:** sifat — so'z turkumi.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga sifat — so'z turkumi ekanligi, uning so'roqlari, gapdagi vazifasi haqida ma'lumot beriladi. Sifatning nutqimizdagi roli, sifatlardan nutqda o'rinni foydalinish, shaxs va narsalarning belgi xususiyatlarini yaqqol ko'ra bilish, sifatlarga so'roqlarni to'g'ri qo'ya bilish, ta'sirchan so'zlash, go'zallikka intilish kabi his-tuyg'ularni tarbiyalash.

**Darsning turi:** yangi bilim berish.

**Darsning metodi:** suhabat metodi.

**Darsning jichozi:** narsalar rasmi.

**Darsning borishi.** 1. Yangi mavzuning bayoni. Buning uchun topishmoqlardan foydalinish yaxshi natija beradi. Chunki topish-

moqlar narsaning belgisiga ishora qilish bilan diqqatni o'ziga tor-tadi. Fikr belgi orqali narsaga tomon yo'nalgan bo'ladi.

O'qituvchi darsga qadar doskaga anor haqidagi topishmoqni quyidagi ko'rinishda yozib qo'yadi.

\_\_\_\_\_, yoqutday \_\_\_\_\_,

\_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_,

\_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_,

Hamma yerda do'sti bor.

Mayda, yoqutday qizil,  
Shirin, nordon, xilma-xil.  
Qalin, taxir po'sti bor,  
Hamma yerda do'sti bor.

O'qituvchi avval chap tomondagi gaplarni o'qishni topshiradi va savollar beradi.

- Gap nima haqida boryapti? (Anor po'sti haqida.)
  - Endi o'ng tomondagi topishmoqni o'qing.
  - Topishmoqda qaysi meva haqida gap boryapti? (Anor haqida.)
  - Topishmoqning javobidagi so'zni ayting. (Anor.)
  - Anorning donachalari qanday ekan? (Mayda, qizil ekan.)
  - Uning mazasi-chi? (Shirin, nordon.)
  - Po'sti qanday ekan? (Qalin, taxir ekan.)
  - Q a n d a y ?, Q a n a q a ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiryapti? (Narsaning belgisini.)
  - Narsaning belgisi deganda nimani tushunasiz? (Narsaning belgisi deganda, otning rangini (qizil), mazasini (shirin, nordon, taxir), shaklini (mayda, qalin, yupqa) va xususiyatini (xilma-xil) tushunamiz.)
- Shunday savol-javobdan so'ng o'qituvchi suhbatga yakun yasab, xulosasini aytadi: narsa-shaxs belgisini bildirgan so'zlar sifat deyiladi. Sifatlar Q a n d a y ?, Q a n a q a ? so'roqlariga javob bo'ladi. Qoida o'quvchilarga kitobdan o'qitiladi.

O'quvchilarga topishmoqni doskadan yozib, sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizish tushuntiriladi.

2. Sifat haqidagi tushunchani mustahkamlash. 237- mashq shartiga ko'ra, she'r 2—3 o'quvchiga o'qitilib, sifatlar aniqlanadi. Ma'no jihatdan qaysi so'z bilan bog'lanib kelayotgani belgilanadi. So'ng ularni birgalikda daftarga ko'chirib yozish topshiriladi.

N a m u n a : *Go'zal bog'lar.*

3. 236- mashqni ishlash. Matn ifodali o'qiladi. O'quvchilar diqqati ajratib ko'rsatilgan so'zli gaplarga qaratiladi.

- Ikkinchchi gapni o'qing.
- Ajratib ko'rsatilgan so'zni o'qing. (*Go'zal*.)
- Shu so'zga so'roq bering. (Q a n d a y ? )
- Q a n d a y ? so'rog'iga javob bo'lgan so'z qaysi so'z turkumiga kiradi? (Sifat so'z turkumiga kiradi..)
- *Go'zal* so'zi qaysi so'z bilan bog'langan? (*Tabiat* so'zi bilan bog'langan.)
- Ularni so'roqlari bilan birgalikda o'qing. (Q a n d a y tabiat?)
- *Go'zal* tabiatning nimasi? (Belgisi.)

Matndagi gaplar shu taxlitda ko'rib chiqiladi. So'ngra sifatlar o'zaro bog'lanib kelgan so'zlar bilan namunadagidek yoziladi.

N a m u n a : (q a n d a y f a s l ? ) *ko'rkam fasl*.

4. Saylanma diktant. Saylanma diktant quyidagi gaplar bilan o'tkaziladi. 1. *Moviy osmonda oppoq bulutlar sayr qilmoqda*. 2. *Mussaffo osmonda qushlar galasi qanot qoqmoqda*. 3. *Oq, sariq, qizil kamalaklar quyoshda tovlanmoqda*. 4. *Quyoshli o'lkamizning go'zal tabiatini kishini o'ziga tortadi*.

O'qituvchi gaplarni birma-bir o'qiydi.

— O'quvchilar gapni diqqat bilan tinglab, sifatlar bilan bog'lanib kelayotgan so'zlarni aniqlab, ularni birgalikda yozadilar.

5. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

- Sifat deb nimaga aytildi?
- Sifat qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- Sifat shaxs yoki narsa-buyumning qanday belgi-xususiyatlarini bildiradi?

6. Darsni yakunlash va uyga vazifa. 238- mashq. So'roqlar o'rniغا mos sifatlar tanlab, otlar bilan birgalikda ko'chiriladi.

N a m u n a : q a n d a y y u n g ? — *yumshoq yung*.

7. O'quvchilar bilimini baholash.



## 102- DARS

**Mavzu:** sifatlarning otga bog'lanishi.

**Darsning maqsadi:** sifat haqidagi tushunchalarni kengaytirish, sifatlarning otga bog'lanib, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishini tushuntirish, rang-tus, maza-ta'm va hajmni bildirgan sifatlarni farqlay bilishga o'rgatish, go'zallikka intilish, uni sevish hissini tarbiyalash.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** yaylovdagи toychoq rasmi.

**Darsning borishi:** 1. Uy vazifasini tekshirish. 238- mashqda berilgan topshiriqqa ko'ra, so'roqlar o'rniga qanday sifatlar qo'yilganligi va ular otlar bilan birligida yozilganligi kuzatiladi. Bunda so'roqlar yordamida sifatlarning qaysi so'z turkumi bilan bog'lanib kelganligiga o'quvchilar diqqati qaratiladi.

— Qanday yung? — *yumshоq yung*.

— Yumshоq nima? — *yumshоq yung*.

— Ni ma? so'rog'iga javob bo'lган so'z qaysi so'z turkumiga kiradi? (Ot so'z turkumiga kiradi.)

— *Yumshоq so'zi-chi?* (Sifat so'z turkumiga.)

— Sifat qaysi so'z turkumi bilan bog'lanypi? (Ot so'z turkumi bilan.)

Demak, sifatlar ot bilan bog'lanib kelar ekan, deb javoblar xulosalanadi.

2. Sifatlarning otga bog'lanib kelishini mustahkamlash va sifatlarning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi quyidagicha tushuntiriladi.

O'qituvchi yaylovda o'tlab yurgan toychan tasvirlovchi rasmni doskaga osib, unga o'quvchilar diqqatini qaratadi.

— Rasmida nimalarni ko'ryapsiz? (Yaylov, o'tloq, toycha, bolalarni ko'ryapmiz.)

— Yaylov qanday? (Keng, ko'm-ko'k, bepoyon.)

— O'tlar qanday? (Ko'm-ko'k, barra.)

— Toycha qanday? (Yosh, jippi, sho'x, o'ynoqi.)

— Toycha nimaning bolasi? (Otning bolasi.)

— Toychoq, o'tloq, yaylov haqida 5—6 so'zli gaplar tuzing.

O'quvchilar tuzgan gaplaridan ikitiasi tanlab olinadi va doskaga yoziladi. (*Ko'm-ko'k o'tloq qo'y-qo'zilarni chorlaydi. Sho'x, o'ynoqi toycha yaylovda o'tlayapti.*)

— Birinchi gapni o'qing. Gap nima haqida aytilgan? (O'tloq haqida.)

— O'tloq haqida nima deyilgan? (*Chorlaydi* deyilgan.)

— *O'tloq chorlaydi* birikmasi gapning qanday bo'lagi? (Gapning bosh bo'lagi.)

— Qaysi so'z ega? (*o'tloq* — ega, eganing tagiga bir chiziq chiziladi.)

- Kesim-chi? (*chorlaydi* — kesim, kesimning tagiga ikki chiziq chiziladi.)
- Qanday o'tloq? (Ko'm-ko'k o'tloq.)
- *Ko'm-ko'k* gapning qanday bo'lagi? (Ikkinch darajali bo'lagi, ikkinchi darajali bo'lakning tagiga to'lqinli chiziq chiziladi.)
- Ikkinch darajali bo'lak gapning qaysi bo'lagiga bog'lanadi? (Bosh bo'laklardan biriga.)
- *Ko'm-ko'k* bosh bo'laklarning qaysi biriga bog'langan? (Egaga bog'langan.)
- Shu gapda ega nima bilan ifodalangan? (Ot bilan tfodalangan.)
- Ikkinch darajali bo'lak nima bilan ifodalangan? (Sifat bilan ifodalangan.)

Ikkinch gap ham xuddi shunday tahlil qilinadi.

Demak, sifat gapda otga bog'lanib, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelar ekan, degan xulosa chiqariladi.

Doskadagi gaplar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

*Ko'm-ko'k o'tloq qo'y-qo'zilarni chorlaydi.*

*Sho'x, o'ynoqi toycha yaylovda o'tlayapti.*

O'quvchilar doskadagi gaplarni ko'chirib, egalar (*o'tloq, toycha*)ning tagiga bir (—), kesimlar (*chorlaydi, o'tlayapti*)ning tagiga ikki (\_\_\_\_\_), ikkinchi darajali bo'laklar (ko'm-ko'k, sho'x, o'ynoqi)ning tagiga to'lqinli (~~~) chiziq chiziladi.

3. Darslik bilan ishlash. 239- mashqdag'i she'riy parcha 2—3 o'quvchiga ifodali o'qitiladi. *Uyur* (orasida bir ayg'iri bo'lgan biyalar to'dasi, otlar to'dasi), *yo'rg'a* (mayda qadam tashlab yurmoq, pildirab yurmoq, yo'rg'alab yurmoq) so'zlariga izoh beriladi va quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat etiladi.

- Bu she'rni kim yozgan? (*Ro'zimat Doliyev.*)
- Sho'ir toychoqning harakatini qanday so'zlar bilan tasvirlagan? (*Chopib keling, kishnab keling* degan so'zlar bilan.)
- Toychoqni qaysi sifatlari bilan maqtagan? (*Jajji, quvnoq, yo'rg'a, o'ynoqi, munchoq* kabi sifatlari bilan.)
- Uni qanday o'tloqqa chaqiryapti? (Ko'm-ko'k o'tloqqa chaqiryapti.)
- She'rda nimalar haqida aytilgan? (Toycha, o'tloq haqida.)
- She'rdan toychoqning belgilarni toping. Ular qaysi so'zlar? (*Jajji, quvnoq, yo'rg'a, o'ynoqi.*)
- O'tloqning belgisi-chi? O'tloq qanday ekan? (*Ko'm-ko'k.*)

— *Jajji, quvnoq, yo'rg'a, o'ynoqi* so'z turkumlaridan qaysi biriga kiradi? (Sifatga.)

— *Toycha-chi?* (Ot.)

— *Ko'm-ko'k* so'zi qaysi so'z turkumiga kiradi? (Sifat so'z turkumiga kiradi.)

— *O'tloq so'zi-chi?* (Ot so'z turkumiga kiradi.)

— Sifat gapda qaysi so'z turkumi bilan bog'langan? (Ot bilan bog'langan.)

*Toycha, o'tloq so'zleri* (otlari) bilan bog'langan so'zlar (sifatlar) birgalikda doskaga yoziladi va ular tegishli chiziqlar bilan ko'rsatiladi.

— Qanday toycha? (*Jajji, quvnoq, yo'rg'a, o'ynoqi toycha.*)

— Qanday o'tloq? (*Ko'm-ko'k o'tloq.*)

O'quvchilar ularni doskadan ko'chirib yozadilar.

4. 240- mashqni bajarish. Mashq shartiga ko'ra bajariladi. O'qituvchi belgi, shakl va hajmi hamda maza-ta'm bildirgan sifat-larga misol keltirishni so'raydi. O'quvchilar og'zaki misollar keltiradilar, o'qituvchi ularga mos otlar topib yozishni aytadi. O'quvchilar kitobdag'i namunaga qarab, mashqni mustaqil yozma bajaradilar.

O'quvchilar yozganlarini o'qib, sifatlar otlarning qanday belgisini bildirayotganligini aytadilar.

5. Husnixat mashqlari.

Saf Ochilning „O'z tilim“ she'ridan quyidagi to'rtlik husnixat qoidalari amal qilgan holda yoziladi:

Burro-burro so'zlayman,

Kelajagim ko'zlayman.

Istiqlolim, iqbolim,

O'zbek tilim, o'z tilim.

6. Dars quyidagi savollarga o'quvchilarining javoblarini eshitish bilan yakunlanadi.

— Sifat gapda qaysi so'z turkumiga bog'lanadi?

— Sifatlar gapda qanday vazifada keladi?

— Sifatlar nimaning belgi-xususiyatini bildiradi?

— Nutqimizda sifatlar nima uchun ishlataladi?

7. Uyga vazifa: 241- mashq. Otlarga xos belgini bildirgan sifatlarni tanlab, birgalikda yoziladi.

N a m u n a : *Halol mehnat, to'g'ri yo'q...*

8. O'quvchilar bilimlarini reyting ball tizimida baholash.



**Mavzu:** sifat yasovchi qo'shimchalar.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni sifat yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish; **-li, -dor, -siz** qo'shimchalari bilan sifatlar hosil qilish; **-li, -kor** qo'shimchali sifatlar bilan **-siz** qo'shimchali sifatlarni qiyoslash, ularning ma'nolaridagi farqni aniq ajrata bilishga o'rnatish.

**Darsning turi:** yangi bilim berish.

**Darsning metodi:** induktiv metod.

**Darsning jahozi:** bahor manzarasi rasmi.

**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish. Sinf va o'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish, uy vazifasini tekshirish.

2. Yangi mavzuni bayon etish 248- mashqni bajarish orqali tushuntiriladi. Mashqda berilganlar alohida-alohida o'qitilib, gaplardagi ajratib ko'rsatilgan o'zakdosh so'zlar doskaga yoziladi. O'zakdosh so'zlardagi yasovchi qo'shimchalar ajratiladi.

*Kuch—kuchli, mador—madorsiz, xabar—xabardor.* O'zakdosh so'zlar bir-biri bilan solishtiriladi.

— *Kuch* deganda nimani tushunasiz? (Insonda to'plangan quvvat, qudrat degan ma'noni tushunamiz.)

— *Kuchli* deganda nimani tushunasiz? (Kuchi, quvvati ko'p, baquvvat degan ma'noni tushunamiz.)

— *Mador* deganda nimani tushunasiz? (Inson quvvati, qudrati ma'nolarini tushunamiz.)

— *Madorsiz* deganda-chi? (Kuchsiz, holsiz, nimjon degan ma'noni tushunamiz.)

— *Xabardor* deganda nimani tushunish mumkin? (Biror voqeadan xabar topgan, voqeani bilgan ma'nolarini tushunish mumkin.)

— *Kuch, kuchli* so'zining o'zagini aytинг. (Kuch.)

— *Mador, madorsiz* so'zining o'zagini aytинг. (Mador.)

— *Xabar, xabardor* so'zining o'zagi qaysi? (Xabar.)

— **-li, -siz, -dor** so'z yasovchi qo'shimchalari o'zakka qo'shilib, nima hosil qilyapti? (-li, -siz, -dor so'z yasovchi qo'shimchalari o'zakka qo'shilib, sifat hosil qilyapti.)

— **-li, -dor** qo'shimchalari bilan yasalgan sifatlar nimani anglatyapti? (Biror belgiga ega emaslikni, egasizlikni bildiryapti.)

Javoblar umumlashtirilib, xulosa chiqariladi. Chiqarilgan xulosa darslikdan o'qitiladi.

3. 249- mashqni bajarish orqali sifat yasovchi qo'shimchalar haqidagi bilimlar mustahkamlanadi.

#### 4. Mustaqil ish.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni yozing. Qo'shimcha qo'yib to'ldirilgan so'zlarning o'zagi va qo'shimchalarini belgilang.

1. Hunar... qo'l och qolmas. 2. Hunar...da gap ko'p. 3. Baxtni mehnat... topib bo'lmaydi. 4. Bاليq suv... yasholmaydi. 5. Elimning tuprog'i hosil... 6. Odob... bola elga manzur.

Mustaqil ishni tekshirishda nuqtalar o'rniga qanday qo'shimchalar qo'yilgani va shu so'zlarning ma'nolari izohlanadi.

#### 5. Husnixat mashqlari.

Quyidagi gaplarni husnixat qoidalariga rioya qilib yozish o'quvchilariga tavsiya etiladi.

*Zumrad ko'p chiroyli, odobli, muloyim, aqli qiz ekan. U erta bilan barvaqt ko'zasini ko'tarib, soy yoqalab, buloq boshiga borarkan. Yo'lda uchragan lola-gullar bosqlarini egib, unga salom berarkanlar. (Ertakdan.)*

O'quvchilar gaplarni yozib bo'lgach, o'qituvchi: „Solishtirib ko'raylik, kimning xati chiroyli“, deya o'quvchilarning ishlarini kuzatib, bir-biri bilan solishtiradi. Yaxshi yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'quvchilar yozganlarini o'qiydilar. O'qituvchi savollar beradi.

- Bu gaplar qaysi ertakdan olingan?
- Siz „Zumrad va Qimmat“ ertagini o'qiganmisiz?
- Zumrad erta bilan turib nima ishlar qilar ekan?
- Lola-gullar nima uchun Zumradga egilib salom beradi?
- „Zumrad va Qimmat“ ertagidagi qaysi qiz sizga ko'proq yoqadi? Nima uchun yoqadi?

6. Darsni yakunlash va uyga vazifa topshirish.

Dars quyidagi savollar bilan yakunlanadi:

- Bugungi darsimizda qanday qo'shimchalar bilan tanishdik?
- Sifat yasovchi qo'shimchalarni aytинг.
- -li, -kor qo'shimchalarini bilan hosil qilingan sifatlar niman anglatadi?
- -siz qo'shimchasi bilan hosil qilingan sifatlar-chi?
- Sifatlar gapda nimaga bog'lanib keladi?



**Mavzu:** son — so'z turkumi.

**Darsning maqsadi:** a) shaxs-narsalarning sanog'ini bildirgan so'zlarni gap tarkibidan ajratish, ularga so'roq berishga o'rgatish, sonlarni o'zi bog'lanib kelgan so'zlar bilan yozish malakasini rivojlantirish; b) o'quvchilarda do'stlik-o'rtoqlik, mehnat, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash.

**Darsning turi:** bilimlarni hisobga oluvchi, yangi bilim beruvchi.

**Darsning jihizi:** turli narsalarni tasvirlovchi rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. Darsga qadar doskaga yozib qo'yilgan quyidagi matn o'qitiladi.

*Sinfimizda o'ttizta o'quvchi bor. Ular o'n besh qiz, o'n besh o'g'il boladan iborat. Men uchinchi partada, Husan to'rtinchchi partada o'tiramiz. Sinfimizdagi 20 o'quvchi besh bahoga, o'n o'quvchi to'rt va besh bahoga o'qiydi. Ularning hammasi bir-birini hurmat qiladi.*

- Sizning sinfingizda nechta o'quvchi o'qiydi?
- Siz bir-biringizga qanday munosabatda bo'lasiz?
- O'qishda, ishda o'rtog'ingizga qanday yordam ko'rsatasiz?
- Birinchi gapni o'qing. (*Sinfimizda o'ttizta o'quvchi bor.*)
- Nechta o'quvchi? (*O'rtizta o'quvchi.*)
- O'quvchi so'zi nimani anglatadi? (*Shaxsni.*)
- O'ttiz so'zi shaxsning nimasini anglatadi? (*O'ttiz so'zi shaxsning sonini anglatadi.*)
- Ikkinci gapni o'qing. (Ular o'n besh qiz, o'n besh o'g'il boladan iborat.)
- Sinfda qancha qiz, qancha o'g'il bola bor? (O'n besh qiz, o'n besh o'g'il boladan iborat.)
- Qiz, o'g'il so'zları nimani anglatadi? (*Shaxsni.*)
- O'n besh so'zi shaxsning nimasini anglatyapti? (*O'n besh so'zi shaxsning sonini anglatyapti.*)
- Uchinchi gapni o'qing. (*Men uchinchi partada, Husan to'rtinchchi partada o'tiramiz.*)
- Nechanchi partada? (*Uchinchi, to'rtinchchi partada.*)
- Parta so'zi nimani anglatyapti? (*Parta so'zi narsanining nomini anglatyapti.*)

— *Uchinchi, to 'rtinchi so'zi narsaning nimasini anglatyapti?*  
(*Uchinchi, to 'rtinchi so'zi narsaning tartibini anglatyapti.*)

Keyingi gap ham shu tartibda ko'rib chiqiladi. O'qituvchi shaxs va narsalarning sanog'i, tartibini bildirgan so'z son ekanligi, sonlar qancha?, nechta?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lishi, o'ttiz, o'n besh, uchinchi, to 'rtinchi, yigirma, o'n kabi so'zlar son turkumiga kirishini tushuntiradi. Bu haqdagi qoida darslikdan o'qitiladi. O'quvchilar doskadagi matnni yozib, sonlarning tagiga to'lqinli chiziq chizadilar.

N a m u n a : *Sinfimizda o'itiza o'quvchi bor.*

2. Darslik bilan ishslash. 261- mashqni bajarish orqali son haqidagi bilimlar mustahkamlanadi. Mashqda berilgan gaplar o'qilib, har qaysi gapdagi shaxs va narsalarning sanog'ini bildirgan so'zlar aniqlanadi, ular bilan bog'lanib kelayotgan so'zlar birgalikda aytildi. (*Bir tup gul, yuz g'uncha...*) Uchinchi gapni o'qishda sanoq sonlarga -inchi (-nchi) qo'shimchasini qo'shish bilan tartib sonlar hosil bo'lishi suhbat orqali tushuntiriladi.

### 3. Mustaqil ish.

Mustaqil ish uchun topshiriq (mustaqil ish topshirig'i bilan doskaga yozib beriladi). Topishmoqlarni o'qing va javobini topping.

*Pastakkina bo'yim bor,*

*Yetti qavat to'nim bor.*

*O'zi bitta, ko'zi o'nta.*

*O'zi bitta, qulog'i to'rta.*

*Ikki joyda to'rt.*

Ko'chiring. Narsalarning sonini bildirgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

### 4. Husnixat mashqlari.

O'quvchilar quyidagi she'riy parchani husnixat qoidalariga roya qilgan holda doskadan ko'chirib yozadilar.

*Shodlik to 'lsin desangiz,*

*Yuragimga, dilimga,*

*A'lo o'qing muktabda,*

*Mehr qo'yib bilimga. (Uyg'un)*

Savollar orqali she'rning mazmuni ochiladi.

— Ilg'or o'quvchi bo'lish uchun nima qilish kerak?

— Yaxshi baholarga o'qisangiz o'zingizni qanday his qilasiz?

— Sizning burchingiz nima?

5. Darsni yakunlash va egallangan bilimlarni savollar orqali aniqlash.

— Shaxs-narsalarning sanog‘ini bildirgan sonlar qanday son deyiladi?

— Shaxs-narsaning tartibini bildirgan sonlar-chi?

— Sanoq sonlarga qanday so‘roqlar beriladi?

— Tartib sonlarga-chi?

— Tartib sonlar qanday hosil qilinadi?

6. Uyga vazifa: 262- mashq. Mashqdagi „O‘tmishda“ matni o‘qitiladi. O‘qituvchi matn mazmuniga bog‘liq tushuncha beradi: *qadim-qadim zamонлarda boyлarning katta yeri, suvi, juda ko‘p ot, aravalari bo‘lgan. Уlar yerларига мадикорларни yollab ishlatar edilar. Олган hosillarini aravalarda shaharlarga jo‘natib, sotar edilar. Gadoyvoy ana shunday boylardan biri edi.*

Matn mazmuni yuzasidan savollar beriladi va sonlar aniqlanadi.

— Gadoyvoy nechta mardikorni egarchi mahallasiga boshlab keldi?

— Uning qo‘rasida nechta ot, nechta arava turardi?

— Necha kishi otlarni aravaga qo‘shdi?

— Nechanchi aravaga palos yozilib, ko‘rpacha solindi?

Aniqlangan sonlar gapda nimalar bilan bog‘lanib kelayotgанини bilib kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.

7. Darsga faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va bilimlari reyting ball tizimi asosida baholanadi.



## 113- DARS

**Mavzu:** sonlarning otlar bilan bog‘lanishi.

**Darsning maqsadi:** a) o‘quvchilarning son haqidagi tushunchalarini kengaytirish, sonlarga to‘g‘ri so‘roq berishga o‘rgatish, sonlarning otlarga bog‘lanib kelishi haqida tushuncha berish; b) mehmon kutish, mehmonga borganda o‘zini qanday tutish, ovqatlanish, atrofidagilarga qanday munosabatda bo‘lish kabi axloqiy siatlarni rivojlantirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jichozi:** non, un, arpa, bug‘doy, arava.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasini tekshirish orqali o‘quvchilarning son haqidagi tushunchalarini aniqlash.

2. Sonlarning otga bog'lanib kelishi. 263- mashqni bajarish orqali tushuntiriladi.

Anvar Obidjon va Ilyos Muslim qalamiga mansub she'riy par-chalar o'qilib, savollar bilan she'r mazmuni ochiladi.

- O'rtqlari kim?
- Ular nima uchun kelishadi?
- Ular nimalar bilan mehmon qilinadi?
- Mehmonga borganda o'zingizni qanday tutishingiz kerak?
- Atrofdagilarga qanday munosabatda bo'lasiz?
- Mehmon kutishda-chi?
- Mehmonni qanday e'zozlash kerak?
- Arpa-bug'doy ortilgan arava nima qilmoqda?
- Aravada yana nima kelmoqda?
- Qanday un?
- Arpa, bug'doydan nima olinadi?
- Arpa, bug'doy qayerda va qanday qilib unga aylantiriladi?
- Siz qanday tegirmonlarni bilasiz?
- Undan nima qilinadi? (O'qituvchi arpa, bug'doy donlari yoki ularning boshog'i, oq va qora unlarni, ulardan tayyorlangan turli nonlarni ko'rsatib, undan tayyorlanadigan boshqa mahsulotlarni ham ayтиб, nonni isrof qilmaslik, non ulug' ne'mat ekanini uqtiradi.)
- Mehmonlarga nima qo'yilmoqchi? (Non, murabbo.)
- Nechta non? (Uchta non.)
- Qancha murabbo? (To'rt piyola murabbo.)
- N e c h t a ? , Q a n c h a ? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiryapti? (Narsalarning sonini bildiryapti.)
- Nimaning sonini bildiryapti? (Nonning, piyolaning sonini bildiryapti.)
- Non, piyola so'ziga so'roq bering. (N i m a ? )
- Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar qanday so'z turku-miga kiradi? (Ot so'z turkumiga kiradi.)
- Son chapda nimaga bog'lanib kelyapti? (Son chapda otga bog'lanib kelyapti.)

Keyingi to'rtlikdagi *o'n arava, uch arava* birikmasi ustida ham shunday savol-javob o'tkaziladi va ular doskaga yozib boriladi.

(*Uchta non, to'rt piyola, o'n arava, uch arava*). O'quvchilar doskadagilarni daftarlariга ko'chirib yozadilar.

3. Darslik bilan ishlash. 264- mashqni bajarish bilan sonlarning otga bog'lanib kelishi haqidagi tushuncha kengaytiriladi.

Mashq o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ishtiroki bilan avval og'zaki, keyin yozma holda doskada va daftarda bajariladi. Mashqda

berilgan sonlar o'qitiladi. Ularga so'roq beriladi. So'roqlar orqali sanoq va tartib sonlar aniqlab olinadi. Doskada darslikdagi namuna ko'rsatiladi. O'quvchilar navbat bilan doskaga chiqib, avval sanoq sonlarni, so'ngra tartib sonlarni otlar bilan birgalikda yozadilar.

4. 265- mashqni bajarish bilan mavzu mustahkamlanadi. Mashqda berilgan sonlar o'qitiladi. Chiziqlar o'miga gapning mazmuniga mos sonlar tanlab, gaplar qayta tuziladi. Mashq bezagi boshlab chiqilgach, o'quvchilar uni mustaqil yozma bajaradilar.

5. Husnixat mashqlari. Doskaga quyidagi topishmoq yozib boriladi.

*Bittagina onasi,  
O'n ikkita bolasi,  
Har bolaning boshida,  
O'ttiz amma-xolasi.  
(Yil, oy, kun.)*

O'quvchilar topishmoqni javobi bilan husnixat qoidalariga rioya qilib yozadilar.

6. Lug'at so'zlar bilan ishlash. *To'rt murabbo, qirq sahifa, bahona, poyezd* so'zlariga o'quvchilar diqqati qaratiladi. So'zlar o'qilib, ularning talaffuzi bilan imlosi o'rtasidagi farq aniqlanadi va yozilishini esda saqlash ta'kidlanadi.

7. Yoddan yozuv diktanti. Diktant uchun darslikning 94-betidagi Safo Ochilning „Shudring“ she'rini tanlash mumkin. Chunki she'r o'quvchilar tomonidan yod olingan. Shunga qaramay she'r bir necha marta o'qilib, esga olinadi. Ayrim o'quvchilarga yoddan ayttiriladi. So'ngra darsliklar olib qo'yiladi. O'quvchilar she'rni yoddan yozadilar. Yozganlarini kitobdan tekshiradilar.

8. Darsni yakunlash. Dars quyidagi savollarga o'quvchilarning javoblarini eshitish bilan yakunlanadi:

- Bugun darsda nimalar haqida gaplashdik?
- Sonlar gapda nimaga bog'lanib keladi?
- Nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan sonlar qanday son deyiladi?

— Nechta?, Qancha? so'rog'iga javob bo'lgan sonlar-chi?

— Qaysi so'zlarning imlosini o'rgandik?

9. Uyga vazifa: 266- mashq. Mashqda berilgan son, topishmoq o'qitiladi va javobi topiladi. (14 ta qulqoq, 14 ta shox) she'riy topishmoqdagi va topishmoqning javobidagi sonlarni otlar bilan yonma-yon yozish uyda bajariladi.

10. O'quvchilar bilimini reyting ball tizimida baholash.



## 115-DARS. INTERFAOL DARS

**Mavzu:** sifat, son — so'z turkumlari (takrorlash).

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarning sifat, son haqidagi bilimlarini mustahkamlash; b) tabiatga, atrof-muhitga sezgir nazar tashlashga o'rgatish; hamjihat bo'lib ishlashga, do'stona munosabatda bo'lishga yo'l ochish.

**Darsning metodi:** musobaqa-bellashuv, interfaol usulda.

**Darsning jihizi:** rasmlar, tarqatma materiallar.

**Darsning borishi.**

**1- harakat.** Darsning qoidasi bilan tanishtirish.

Intizomli bo'lish; o'zaro hurmat; erkin fikrlash; faol qatnashish; izlanuvchanlik; imkoniyat.

Guruhlarni dars qoidasiga rioya qilishlari kuzatib boriladi.

**2- harakat.** Guruhlarga bo'linish.

Stol ustiga 30 ta o'quvchiga 5 xil rangdagi 5 xil shakl aralash holda qo'yiladi. Shakllar sinfdagi o'quvchilar soniga qarab ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

1. Qog'ozdan qirqilgan 6 ta qizilrangli doiracha.
2. Oltita yashilrangli kvadrat.
3. Oltita havorangli uchburchak.
4. Oltita sariqrangli to'rtburchak.
5. Oltita binafsharangli romb.

O'quvchilar aralashtirib qo'yilgan bu shakllardan xohlaganlarini tanlab oladilar, shakllarga qarab guruh a'zolari, bir-birlarini topadilar va har bir guruh o'zi uchun belgilangan joyni egallaydi. Guruhlar insoniy fazilatlardan kelib chiqqan holda o'zlariga nom tanlaydilar: birinchi guruh „Do'stlik“, ikkinchi guruh „Sadoqat“, uchinchi guruh „Mehribon“, to'rtinchi guruh „Muruvvat“, beşinchi guruh „Ibrat“ degan nomlarni tanlaydi. Guruhlar o'zlariga nima uchun shunday nom tanlaganliklarini izohlab beradilar.

Masalan: „Do'stlik“ guruhi o'z nomini shunday deb izohlaydi: biz hamma bilan do'stlashishni xohlaymiz, hammaga do'stlik qo'lini cho'zmoqchimiz. Chunki do'stlik qudratli kuchdir, kabilar. Boshqa guruhlar ham o'z nomlarini izohlaydilar.

**3- harakat.** Guruhlari ishi.

Guruhlarning har biriga tabiat qo'ynidagi bolalar va kattalar hayotini tasvirlovchi rasmlar tarqatiladi. Rasmning orqa tomonida quyidagicha topshiriq beriladi:

**1- topshiriq.** Rasmga qarab hikoya tuzing. Hikoya uchun mavzu tanlang, reja tuzing. Mavzuni yoritishda sifatlarni ko'proq qo'llang. Shaxs va narsalarning ko'rinishi, holati, ruhiyati u yoki bu narsaga munosabatini olib berishga harakat qiling.

Bu topshiriqni bajarish uchun 12—15 minut vaqt ajratiladi.

**2- topshiriq.** Guruhlar ishining taqdimoti. Guruhlarning tuzgan hikoyalari eshitiladi. Hikoya tuzishga qo'yilgan talablar qanchalik yoritilganligi va hikoyaning mazmuni tahlil qilinadi. O'qituvchi tahlilga qarab guruhlarning ishini baholaydi. Baholashda 3 xil rangdagi doirachadan foydalaniлади (3 ball uchun qizil, 2 ball uchun yashil, 1 ball uchun sariq doirachalar belgilangan.) Shu taxlitda boshqa guruhlar ham taqdimot o'tkazadilar.

**3- topshiriq.** Sifatlarning har biriga 3 tadan belgi bildirgan so'zlar tanlab, birgalikda yozing:

- Qanday daryo? —
- Qanday havo? —
- Qanaqa bino? —
- Qanaqa bola? —
- Qanday o'rmon? —
- Qanday ona? —
- Qanday tog? —
- Qanday suv? —

Boshqa guruhlarga ham xuddi shunday topshiriqli kartochka beriladi. Topshiriqni bajarish uchun 5—6 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt tugagach, topshiriqni birinchi bo'lib bajargan g'olib guruh, bajargan ishini o'qiydi. Boshqa guruhlardagi o'quvchilar ishning bajarilishi haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Ayrim o'rinalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadilar.

**4- topshiriq.** Shaxs-narsa sanog'ini bildirgan 6 ta, shaxs-narsa tartibini bildirgan 4 ta so'z topib, ularni otlar bilan birgalikda yozing.

Topshiriqni bajarishga 5 daqiqa vaqt beriladi. G'olib guruh, ya'ni birinchi bo'lib ishni bajargan guruh yozganlarini o'qiydi. Boshqa guruhlar uni o'zlarining ishlari bilan taqqoslaidilar. U guruhi ishida uchramagan son ot birikmasini qoldirib, boshqalari ni o'chiradilar.

**4- harakat.** Guruhlarning ishini yakunlash. O'qituvchi guruhlarning qanday ishlagini, dars qoidasiga rioya qilganlari, o'tilgan mavzularni takrorlab mustahkamlashda bugungi darsning ahamiyati haqida so'zlaydi.

Har bir guruhdagi faol o'quvchilar baholanadi. Har qaysi guruhning to'plagan ballari umumlashtirilib, e'lon qilinadi, interfaol usuldagagi dars ishi yakunlanadi. O'quvchilar bugungi interfaol darsning qanday o'tganligi haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadilar.

### Fe'l (10 soat)

„Fe'l“ haqida tushuncha berish, fe'l turkumiga oid so'zlarning muhim belgilarini aniqlash bilan bog'liqidir. Aniq shaxs-narsaning harakatini bildirish fe'lning grammatik ma'nosi bo'lishi bilan birga, shu turkumdagagi so'zlarning leksik ma'nosi ham hisoblanadi (*yurmoq, suzmoq, uchmoq, ekmoq...*). Fe'lning leksik ma'nosi bu bilan chegaralanmaydi; shaxs-narsa holati (*sevinmoq, charchamoq, etmoq...*) shaxs-narsalararo munosabat (*sevmoq, salomlashmoq, hurmatlamoq...*) kabi ma'nolarni ham anglab kela oladi. Fe'llarning leksik-semantik ma'nosi xilma-xil bo'lsa ham, grammatik ma'nosi shaxs-narsa harakatini bildirishdir. Shaxs-narsa harakatini bildirgan so'zlar *nima qildi?*, *nima qilyapti?*, *nima qiladi?*, *nima qilmuoqchi?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Harakatning shaxs, son, zamon, mayl va daraja shaklari holda ifodalanishi fe'lning o'ziga xos belgisidir. 3- sinfda fe'lning zamon, shaxsga ko'ra o'zgarishi haqida ma'lumot berilmaydi. Lekin mashqlar orqali fe'lning tuslanishi bilan bog'liq tushunchalar singdirilib boriladi. Masalan, fe'llarni so'roqlar yordamida aniqlashda zamon shakliga ishora qilinadi (*Nima qildi?*, *Nima qilyapti?*, *Nima qiladi?*...), biroq asosiy termin ishlatilmaydi.

O'quvchilarning o'z nutqlarini fe'lllar bilan boyitishlari, so'zlashuvda esa fe'llarni aniq, o'z o'rniда ishlatishlariga erishish lozim. Bunga fe'l va uning semantik guruhlari yuzasidan turli tipdagi mashg'ulotlar o'tkazish orqali erishiladi. Nutqdaqaramaqarshi va yaqin ma'noli fe'llarning ishlatilishi yuzasidan ham amaliy mashqlar o'tkazilishi lozim. O'quvchilar o'z fikri, maqsadlarini aniq bildirish uchun yaqin ma'noli fe'llardan samarali foydalana bilishlari kerak.

Shunday qilib, o'quvchilar 3- sinfda, 2- sinfda fe'l haqida olgan bilimlarini chuqurlashtiradilar, fe'llarning bo'lishli va bo'lishsizlik shaklida qo'llanilishini o'rganadilar va fe'llarni o'z

nutqlarida to'g'ri ishlatish malakasini takomillashtiradilar. Shu bilan birga, imloga doir mashqlar, gap tuzish, gap tarkibi haqida ham mashg'ulotlar olib boriladi.



## 116- DARS

**Mavzu:** fe'l haqida ma'lumot.

**Darsning maqsadi:** a) fe'l — so'z turkumi ekanligini haqida ma'lumot berish; shaxs va narsaning harakatiga qarab fe'llarga to'g'ri so'roq qo'yish malakasini shakllantirish; fe'llarni to'g'ri yozish, nutqda to'g'ri qo'llashga o'rgatish; b) fikrlashuvda madaniy munosabatda bo'lish; har bir ishga to'g'ri yondashish hissini tarbiyalash.

**Darsning turi:** yangi bilim berish.

**Darsning metodi:** deduktiv metod.

**Darsning jahozi:** shifokor bemorni eshitayotgan, qishdag'i qushlarning holatini tasvirlovchi rasmlar, samolyot, poroxod, kir yuvish mashinasi, dazmol kabilar tasviri tushirilgan rasmlar.

**Darsning borishi.**

1. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini kuzatish.

2. Rasm bilan ishslash.

Doskaga shifokor bemorni davolayotgan, qishdag'i qushlarning hayotiga doir rasmlar osiladi. Rasm yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

— Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? (Shifokor, bemor, qushlar, daraxtlarni ko'ryapmiz.)

— Shifokor bemorni nima qiladi? (Davoladi.)

— Qishda qushlarga nima uchun qiyin bo'ladi? (Qishda sovuq, qushlarga don yo'q, qishda qushlar don izlaydi.)

— Qishda qushlarga nima qilish kerak? (Qushlarga don sepib turish kerak.)

3. 273- mashqdagi gaplar yozilgan plakat doskaga osiladi.

O'qituvchi gaplarga so'roq berib o'qitadi.

— Shifokor bemorni nima qildi? (Davoladi.)

— Davoladi so'zi nimani bildiradi? (Harakatni.)

— Kim davoladi? (Shifokor.)

— Shifokor so'zi nimani bildiradi? (Shaxsni.)

— Qor tinmay nima qilyapti? (Yog'yapti.)

— Yog'yapti so'zi nimani bildiryapti? (Harakatni.)

— Nima yog'yapti? (Qor.)

- *Qor so'zi nimani anglatyapti?* (Narsani.)  
Keyingi gap ham shu tarzda tahlil qilinadi.
- *Davolaydi, yog'yapti, izlaydi* so'zlari nimani bildiradi? (Harakatni.)

- Nimaning harakatini? (Shaxs va narsalarning.)
- Javoblar umumlashtirilib, narsa-shaxs harakatini bildirgan so'zlar fe'l turkumiga oid so'zlar ekanini tushuntiradi.

243- mashqda berilgan gaplarni ko'chirib yozadilar. Fe'llarning tagiga chizadilar.

### 3. Husnixat mashqlari.

Husnixat qoidalari eslatilgach, o'quvchilar quyidagi she'rni ko'chirib yozadilar.

*So'zlarining,  
Joylab dilga,  
O'tlanaman,  
Porloq yo'iga!*

*Siz quvonchim,  
Hayajonim,  
Mehribonim  
Ayajonim!*

*Umarali Qurbonov*

O'quvchilar ishni tugatgach, she'r o'qitiladi va savollar beriladi.

- Siz ham onangizni yaxshi ko'rasizmi?
- Ularni qanday hurmat qilasiz?
- Maktabga ketayotganingizda onangiz nimalarni tayinlaydilar?

### 4. Darslik bilan ishslash.

174- mashqdagi matn o'qiladi. Matn yuzasidan savollar beriladi.

- Texnika deganda nimalarni tushunasiz?
- Siz hayotingizda qanday texnik asboblardan foydalanasiz?
- Texnikaviy mo'jizalarни bilasizmi? (Internet, uyali aloqa vositasi.)

Doskaga samolyot, paroxod, kir yuvish mashinasи, dazmol kabilarning rasmlari osib qo'yiladi, bulardan qachon va qaysi vaqtarda foydalanish haqida suhbat uysushtiriladi. Bu asboblardan insonlar qachon foydalanadilar?

- Bu narsalar inson hayotida qanday xizmat qiladi?
- Samolyot uzoqlarga uchdi.
- Samolyot nima qildi? (Uchdi.)
- Uchdi so'zi samolyotning nimasini bildiryapti? (Harakatini.)

— Demak, bu narsalar inson hayotida kundalik ro'zg'orda hamisha ishlataladigan narsalar ekan.

Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq beriladi. Shaxs va narsaning harakatini bildirayotgan so'zlar aniqlanadi. O'quvchilar matnni kitobdan ko'chirib yozadilar, yozganlarini tekshiradilar: fe'llarning tagiga ikki chiziq chiziladi.

### 5. Darsni yakunlash.

— Harakatni bildirgan so'zlarga qanday so'roqlar beriladi?

— *Allalaydi* so'ziga so'roq bering. (*Nima qiladi?*)

— *Qayg'uradi* so'ziga so'roq bering. (*Nima qiladi?*)

— *Erkalaydi* so'ziga so'roq bering. (*Nima qiladi?*)

— *Allalaydi, qayg'uradi, erkalaydi* so'zları kimga xos? (Onaga.)

— Ona ulug' shaxs.

— Shaxs va narsalarning harakatini bildirgan so'zlar nima deyiladi? (Fe'l deyiladi.)

6. Uyga vazifa: 275- mashq. „Qurilishda“ mavzusida matn o'qilib, mazmuni yoritiladi. Mashqni bajarish uchun namuna ko'rsatiladi: *Hozir quruvchilar tez va soz qurishyapti.*

## Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar

(5 soat)

O'quvchilarga harakatning bajarilganligini bildirgan fe'llar bo'lishli fe'l, harakatning bajarilmaganini bildirgan fe'llar bo'lishsiz fe'l ekanini tushuntirishda so'zlarni taqqoslash yaxshi natija beradi. Buning uchun doskaga bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar ishtirok etgan gaplar yoziladi; fe'llar aniqlanib, ularning ma'nosi qiyoslanadi: *Qarmoq tortildi—qarmoq tortilmadi.*

Shu tarzda *keldi, bordi, yurdi va kelmedi, bormadi, yurmadi* fe'llari yonma-yon yozilib, o'quvchilarga o'qitiladi. Savollar be-rish orqali harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganligi aniqlanadi. O'qituvchi yangi mavzuni suhbat yo'li bilan tushuntiradi. Bo'lishli fe'llarga -**ma** qo'shimchasini qo'shish bilan bo'lishsiz fe'l hosil qilinishini misollar orqali tushuntirib beradi.

Fe'llardagi bo'lishli va bo'lishsizlik hodisasi murakkab grammatik kategoriya bo'lib, 3- sinfda -**ma** affaksi, uning inkor ma'no bildirishi va yozilishi bilan bog'liq bo'lgan leksik-grammatik hodisani to'g'ri anglay olsalar, maqsadga erishilgan bo'ladi.

Mavzuni o'rghanish jarayonida quyidagilarga erishish lozim:

- 1) bo'lishli fe'llardan bo'lishsiz fe'llar hosil qila bilish;
- 2) fe'lning leksik ma'nosidan harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganini aniqlay bilish; 3) bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga to'g'ri so'roq qo'ya olish; 4) bo'lishsiz fe'llar yordamida gaplar tuza olish.



## 126- DARS

**Mavzu:** bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarga bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar haqida tushuncha berish; bo'lishsiz fe'llarni bo'lishli fe'llardan farqlash; ularga so'roqlarni to'g'ri qo'ya bilish, bo'lishli fe'llardan bo'lishsiz fe'llar hosil qilishni o'rgatish; b) do'stlik, mehr-oqibatlilik kabi insoniy fazilatlarni o'stirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jihizi:** „bemor bola va uni ko'rgani kelgan bolalar“ni tasvirlovchi rasm.

**Darsning borishi.**

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Yangi mavzuni bayon etish. Mavzu 301- mashqni bajarish orqali tushuntiriladi. Rasm doskaga osilib, suhbat o'tkaziladi.

— Bolalar kimni ko'rgani kelishdi?

— O'rtog'i nima uchun maktabga bormadi?

— Bolalar nimalar haqida suhbatlashishdi?

— Siz o'qishda o'rtog'ingizga qanday yordam berasiz?

„Mehribon o'rtoqlar“ matni o'qilib, savollar yordamida fe'llar aniqlanadi. So'ngra matn ostida berilgan fe'llarga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Fe'llar o'qilib, harakat bajarilgan, bajarilmaganligiga qarab, ular ikki ustunga ajratib yoziladi.

— *Keldi* so'ziga so'roq berish. (Nima qildi?)

— *Keldi* fe'lida harakat nima qilgan? (Harakat bajarilgan.)

— *Kelindi* fe'lida-chi? (Harakat bajarilmagan.)

— *Bordi* fe'lida harakat bajarilganmi yoki bajarilmaganmi? (Harakat bajarilgan.)

— *Bormadi* fe'lida-chi? (Harakat bajarilmagan.)

— Bo'lishsiz fe'llar bo'lishli fe'llardan qaysi tomoni bilan farq qilyapti? (Bo'lishsiz fe'llar -ma qo'shimchasi bilan bo'lishli fe'llardan farq qilyapti.)

— Bo'lishsiz fe'lllar qanday hosil qilinadi? (Bo'lishli fe'llarga -ma qo'shimchasini qo'shish bilan bo'lishsiz fe'lllar hosil qilinadi.)

Bu haqdagi qoida darslikdan o'qitiladi.

Keyingi fe'llarning qaysi birida harakat bajarilgan, qaysi birida harakat bajarilmagani aniqlanib, ular doskaga quyidagicha yozib boriladi:

### harakat bajarildi

*keldi  
bordi  
aytdi  
ko'rishdi  
suhbatlashdi  
gapirdi*

### harakat bajarilmadi

*kelmadi  
bormadi  
aytmadi  
ko'rishmadi  
suhbatlashmadi  
gapirmadi*

O'quvchilar doskadagi fe'llarni ko'chirib yozadilar.

3. Darslik bilan ishslash. 302- mashqni bajarish. Matn o'qiladi. Matn yuzasidan savollar beriladi.

- Matnda nechta gap bor?
- Ular qanday gaplar?
- Nima uchun ularni darak gaplar deb o'ylaysiz?
- Ozoda nechanchi sinfda o'qyidi?
- U nimadan hech qolmaydi?
- Ozoda o'quv qurollarini qanday saqlaydi?
- U topshiriqlarni mustaqil nima qiladi?
- Ozoda o'rtoqlaridan nimasini ayamaydi?

So'ngra matnni ko'chirib, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tagiga ikki chiziq chizish topshiriladi.

N a m u n a : *Ozoda uchinchi sinfda o'qydi.*

4. Mustaqil ish.

Berilgan gaplarning mazmuniga mos fe'lllar tanlab yozing.

*Osmonga qora bulut \_\_\_\_\_, lekin yomg'ir \_\_\_\_\_.*

*Ertalab quyosh charaqlab \_\_\_\_\_.* *Osmonda bulutlar \_\_\_\_\_.* *Men Qudrat bilan kutubxonaga \_\_\_\_\_.*

*Qo'yish uchun so'zlar: bordim, ko'rinnadi, chiqdi, yog'madi, ko'rindi.*

O'quvchilar yozganlarini o'qib, chiziqlar o'rniga qo'yilgan fe'llarning qaysi biri bo'lishli, qaysi biri bo'lishsiz ekani, bo'lishsiz fe'lllar qanday hosil bo'lishini tushuntirib beradilar.

## 5. Husnixat mashqlari.

Chiroyli yozuv qoidalari eslatiladi. O'quvchilar quyidagi gaplarni doskadan ko'chirib yozadilar. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar aniqlanadi.

*Ona tuni bilan uxlamadi. Tongga yaqin farzandlarning harorati biroz pasaydi. Onaning yuragi tinchlandi.*

6. Darsni yakunlash va o'tilgan mavzuni savollar bilan mustahkamlash.

- Qanday fe'llar bo'lishli fe'l deyiladi?
- Bo'lishsiz fe'l deb qanday fe'llarga aytildi?
- Bo'lishsiz fe'llar qanday hosil qilinadi?
- -ma qanday qo'shimcha?
- Bo'lishli, bo'lishsiz fe'llar ishtirok etgan gaplar tuzib aytинг.

7. Uyga vazifa: 303- mashq. Bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz fe'llarga aylantirib yozish yuzasidan doskada namuna ko'rsatiladi. Bo'lishsiz fe'lni hosil qilgan qo'shimchaning tagiga chizish tushuntiriladi. (*Yozdi—yozmadni.*)



## 132- DARS

**Mavzu:** fe'l yasovchi qo'shimchalar.

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarni fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish, -la, -illa qo'shimchalarini qo'shib fe'llar hosil qilish, fe'llardagi o'zak va qo'shimchalarni belgilash, fe'llarga so'roq berish, test bilan ishslash malakalarini o'quvchi ongiga singdirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi.

**Darsning metodi:** suhbat.

**Darsning jahozi:** hayvon va parrandalarning rasmlari.

**Darsning borishi.**

1. Darsni tashkil etish. O'quvchilarning darsga hozirlanishlari ni kuzatish.

2. Uy vazifasini tekshirish: o'quvchilarning bahorgi ta'tilni qanday o'tkazganliklari haqida qisqacha suhbat o'tkazib, ta'til taassurotlari haqida yozilgan insholardan eshitiladi. Eng yaxshi yozilgan insholardan 2—3 tasi o'quvchilarning ijodiy ishlari to'plamlari uchun tanlab olinadi. Insho egalari rag'batlantiriladi. O'quvchilarning insholari tekshirish va baholash uchun yig'ib olinadi.

3. Mavzuni bayon etish. Mavzu 310- mashq ustida ishslash orqali tushuntiriladi. Mashqda berilgan gaplar o'quvchilarga

o'qitilib, har qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Suhbat orqali so'zlarining ma'nolaridagi farqlarini aniqlash, o'zaklari bir xil bo'lgan so'zlarini yonma-yon yozish, ularning o'zak va qo'shimchalarini belgilash bilan so'z asosi o'zaklarga -la, -illa yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali fe'llar hosil qilish lozimligi tushuntiriladi. O'quvchilar doskadagi so'zlarini ko'chirib yozadilar.

*ko'z — ko'zla; so'z — so'zla; qars — qarsilladi; qag' — qag'illadi; bosh — boshla; miyov — miyovladi.*

4. 311- mashq shartiga ko'ra og'zaki bajariladi. Birinchi to'rtlik o'qilib, so'roqlar berilib, fe'llar (o'ylayman, kuylayman) aniqlanadi. Ulardagi o'y, kuy so'zlariga -la, ikkinchi to'rtlik o'qilib, *shap, taq, ak, laq* so'zlariga -illa qo'shimchasini qo'shish bilan *shapillatar, taqillatar, akillatar, laqillatar* fe'llari hosil qilinganini o'quvchilar bilib oladilar.

5. She'rning mazmuniga ko'ra o'qituvchi o'quvchilardan quyidagi savollarga javob oladi:

- Siz qaysi kasbni yoqtirasiz?
- Nimaqaga qiziqasiz?
- Biror kasbni egallash uchun hozir nimalarni o'tganyapsiz?
- Kelajakda kim bo'lishni xohlaysiz?
- Odobli bolalar qanday bo'ladi?
- „Odobni beodobdan o'rgan“, degan maqolni qanday tushunasiz kabilar.

5. Saylanma diktant. Diktantda quyidagi gaplarni o'qituvchi bir-ma-bir o'qiydi. O'quvchilar gapdagi yasama fe'llarni yozadilar.

1. *Avval o'yla, keyin so'yla. 2. Ona farzandini „shirintoyim“, „asalginam“, „toychoqqinam“ so'zlarini bilan erkaladi. 3. Sora qo'g'irchog'ini allaladi. 4. Qish kunlari o'rmonda shamol g'uvillaydi.*

Yasama fe'llar: *o'yla, so'zla, erkaladi, allalaydi, g'uvillaydi.*

6. Husnixat mashqlari.

O'quvchilar quyidagi she'riy parchani doskadan chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilib ko'chiradilar.

*Dunyo yuzi yana tinch-u,  
keng bo'lsa,*

*Har bolaning  
Baxti doim*

*Teng bo'lsa:*

*— Bu juda soz,  
Juda soz. (Po'lat Mo'min)*

7. O'quvchilar egallagan bilimlarni aniqlash maqsadida test o'tkaziladi.

Yasama fe'llar qaysi qatorda berilgan?

- a) boshchi, ishchi, ishchan;
- b) boshla, shovulla, pichirla;
- d) boshliq, ishsiz, ishla.

O'quvchilar testdagi to'g'ri javobni kesma harflar bilan ko'rsatsalar ham bo'ladi.

8. Darsni yakunlash va uya vazifa topshirish. Uya 312- mashq topshiriladi. Mashqni namunada ko'rsatilgandek bajarishi kerakligi tushuntiriladi.

### Yil davomida o'tilganlar yuzasidan interfaol dars



#### 164- DARS

**Mavzu:** yil davomida o'tilgan mavzular yuzasidan interfaol dars.

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarning yil davomida egallagan bilimlarini esga tushirish, mustahkamlash, nutqini o'stirish, tinglash qobiliyatini rivojlantirish; b) topqirlik, ziyraklik, chaqqonlik tuyg'ularini tarbiyalashi, hamkorlik, jamoatchilik, tirishqoqlik hissini rivojlantirish, o'zaro bir-birini hurmat qilishga o'rgatish.

**Darsning metodi:** musobaqa, bellashuv.

**Darsning jahozi:** tarqatma materiallar.

**Darsning borishi.**

**1- harakat.** Mashg'ulot qoidasi bilan tanishtirish.

- vaqtidan unumli foydalanish;
- o'zgalarning fikrini qadrlash;
- bir-birini hurmat qilish;
- yangilik kiritishga harakat qilish;
- faol ishtiroy etish.

**2- harakat.** O'quvchilarni guruhlarga bo'lish.

Har bir guruhda 6 yoki 8 o'quvchi bo'lishi kerak.

Guruhlarning nechta bo'lishi sinfdagi o'quvchilar soniga bog'liq. Guruhda 6 o'quvchi bo'lishi ko'zda tutilgan bo'lsa, oltita, sakkiz o'quvchi ko'zda tutilgan bo'lsa, sakkizta qog'ozga avvaldan belgilangan nomlar yozib tayyorlanadi. Guruhlarga bo'lish uchun bu qog'ozlar teskari tomoni bilan stol ustiga qo'yiladi. O'quvchilar

ulardan istaganlarini oladilar. Masalan, *ziyraklar* deb yozilgan qog'ozni kimlar olgan bo'lsa, ular birlashib, bir guruhni tashkil etadi. Topqirlar deb yozilgan qog'ozni olgan o'quvchilar yig'ilib, yana bir guruhni tashkil etadilar va h.k.

**1- guruh:** chaqqonlar.

**2- guruh:** ziyraklar.

**3- guruh:** topqirlar.

**4- guruh:** bilimdonlar degan nomga ega bo'ladilar. Har qaysi guruh o'zi uchun belgilangan joyga noan'anaviy holda o'tiradilar.

**3-harakat.** Guruhlar ishi.

**1- topshiriq.** Berilgan so'zlardan ikkita gap tuzib yozing. Gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab, ularni odadagidek belgilang. (Har qaysi guruh bajaradigan ishi yuzasidan ana shunday topshiriq yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Lekin gap tuzish uchun boshqa so'zlar beriladi.)

**Chaqgonlar guruhiqa:** *o'rtasida, gubkan, yalanglik, yonmaqda, kattakon, qizi, gulxanning, o'gay, onaning, oldiga, keldi.*

**Ziyraklar guruhiqa:** *O'sarjon, nom, deb, kuchukchasiga, qo'ydi, tez, bo'ldi, katta, kunda.*

**Topqirlar guruhiqa:** *katta, bahorda, qozonda, pishiriladi, sumalak, toza, eng, donidan, tayyorlanadi, sumalak, bug'doy.*

**Bilimdonlar guruhiqa:** *har, xil, bog'imizda, ochiladi, gullar, bahorda, otam, turli, ko'chatlaridan, yil, ham, gul, bu, ekdilar so'zlar beriladi.*

Topshiriqnini bajarish uchun 5—6 daqiqa vaqt beriladi. Guruhlar vazifani bajarib bo'lishgach, qo'l ko'tarib, ishning tugagani haqida xabar beradilar. O'qituvchi ishni ko'rib chiqib, baholaydi.

Baholash mezoni quyidagicha: binafsha rasmi kartochka 3 ball, lola rasmi kartochka 2 ball, qoqi o't rasmi kartochka 1 ballni bildiradi. Guruhlarning ishi qanday va qancha vaqt ichida bajarilganligiga qarab baholanadi.

**2- topshiriq.** Gapni o'qing, ulardagi bosh bo'laklarni aniqlab, tagiga chizing. Ega va kesimga so'roq bering. Bu bo'laklarga bog'lanib kelayotgan so'zlarni savollar bilan yozing. (Har qaysi guruhga shu topshiriq bilan boshqa-boshqa gaplar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.) **Chaqgonlar guruhiqa:** *rang-barang gullar ko'zni qu-vontiradi.* **Ziyraklar guruhiqa:** *Ola quyon o'zini eshikka urdi.* **Topqirlar guruhiqa:** *Gulzordan yoqimli hid atrofga taraladi.* **Bilimdonlar guruhiqa:** *Osmonni qora bulut qopladi gaplari beriladi.*

Topshiriqni bajarish uchun 5—6 daqiqa vaqt ajratiladi.

**3- topshiriq.** Berilgan so'zlar bilan o'zakdosh so'zlar tuzing. O'zakdosh so'zlarning o'zak va qo'shimchasini odatdagidek belgilang. O'zakdosh so'zlardan qatnashtirib, gap tuzing. Tuzgan gapningizni yozing. Gapdag'i so'zlarning o'zak, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarini odatdagidek belgilang. (Guruhlarga shu topshiriq bilan boshqa so'zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.)

„Chaqqonlar“ guruhiga bosh, ish, „Ziyraklar“ guruhiga paxta, kuch, „Topqirlar“ guruhiga qatiq, gul, „Bilimdonlar“ guruhiga tuz, suv so'zları yozilgan kartoshkalar beriladi.

**4- topshiriq.** Boshlab berilgan hikoyani davom ettiring. Hikoyangizda sifatlarni ko'proq qo'llashga harakat qiling, bo'lishsiz fe'llardan ham foydalaning. Hikoyani qanday davom ettirishni yaxshilab o'yab oling. Hikoyaga sarlavha tayyorlang. Tanlagan sarlavhangizni qo'yib, hikoyani yozing.

„Chaqqonlar“ guruhiga: *Yoz kunlarining birida Zokir bilan Faxridin baliq oviga borishdi. Ularga Zokirning Olapar ismli iti ham ergashdi. Faxriddin ariq bo'yiga o'tirib, suvga qarmoq tashladi. Shu payt...*

„Ziyraklar“ guruhiga: *Saxiy kuz. Bog'larda mevalar g'arq pishgan. Men o'rtoqlarim bilan bog'bonlarga yordam berish uchun bog'ga bordim. U yerda...*

„Topqirlar“ guruhiga: *Qahraton qish. Ilhom Bahrom bilan yalanglikka chana uchgani ketayotgan edi. Yo'llar muzlagan. Mashinalar asfalt yo'lda zo'rg'a yurardi. Birdan...*

„Bilimdonlar“ guruhiga: *Zumrad bahor boshlandi. Tabiat uyg'ondi. Hamma yoqqa ko'm-ko'k gilam to'shalgan. O'qituvchimiz bilan lola sayliga chiqdik. Biroq u yerda...*

Guruhlarning inshosi eshitiladi. Tanlangan mavzuning yoritishi muhokama etiladi. Muhokamaga ko'ra insholar baholanadi.

**5- harakat.** Guruhlar to'plagan ballar umumlashtiriladi. G'oliblar taqdirlanadi.

Interfaol darsni savollar bilan yakunlash.

— Dars sizga yoqdimi? Nima uchun yoqdi?

— Bugungi darsimizda qaysi mavzularni takrorladik? Qanday ishlarni bajardik?

— Hikoya tuzishda nimaga asoslandingiz?

— Guruhingiz to'plagan ballardan xunsandmisiz?

— Qaysi guruhni yaxshi ishladi deb o'ylaysiz? Nima uchun?

## MUNDARIJA

<b>Mualliflardan</b>	3
<b>Materialning asosiy mazmuni va uni izchil o'rganish</b>	4
<b>Ikkinchisinfda o'tilganlarni takrorlash</b>	7
<b>Bilimlar kuni</b>	8
1- dars	10
2- dars	13
3- dars	15
7- dars. Interfaol dars	17
10- dars	20
14- dars	22
15- dars	25
18- dars. Interfaol dars	27
20- dars	30
23- dars	31
<b>Gap</b>	33
25- dars	33
27- dars	36
28- dars	38
30- dars	40
33- dars	42
35- dars	44
36- dars	46
<b>Gap bo'laklari</b>	49
40- dars	49
42- dars	52
47- dars	55
<b>Gapda so'zlarning bog'lanishi</b>	59
49- dars	61
50- dars	64
<b>So'zning tarkibi. So'zning o'zagi va o'zakdosh so'zlar</b>	66
54- dars	67
57- dars	69
<b>So'z yasovchi qo'shimchalar</b>	71
61- dars	71
62- dars	73
<b>So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar</b>	75
66- dars	76

73- dars. Interfaol dars .....	78
<b>So‘z turkumlari .....</b>	<b>81</b>
74- dars .....	81
75- dars .....	84
<b>Ot .....</b>	<b>88</b>
82- dars .....	89
<b>Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi .....</b>	<b>92</b>
90- dars .....	93
96- dars .....	95
97- dars .....	98
<b>Sifat — so‘z turkumi .....</b>	<b>100</b>
101- dars .....	100
102- dars .....	102
106- dars .....	106
<b>Son — so‘z turkumi .....</b>	<b>108</b>
110- dars .....	108
113- dars .....	110
<b>115- dars. Interfaol dars .....</b>	<b>113</b>
<b>Fe’l .....</b>	<b>115</b>
116- dars .....	116
<b>Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar .....</b>	<b>118</b>
126- dars .....	119
132- dars .....	121
<b>Yil davomida o‘tilganlar yuzasidan interfaol dars .....</b>	<b>123</b>
164- dars .....	123

MATLUBA XUDOYBERGANOVA, SIDDIQ FUZAILOV,  
MUKAMBAR MUXTOROVA

### 3- SINFDA ONA TILI DARSLARI

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma

Toshkent „O'qituvchi“ 2004

Tahririyat mudiri *S. Ochil*

Muharrir *H. Yusupova*

Badiiy muharrir *Sh. Qahhorov*

Texn. muharrir *S. Tursunova*

Musahhih *M. Ibrohimova*

Kompyuterda sahifalovchi *E. G'ulomova*

IB №8396

2004 yil 24 avgustda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma  
usulida bosildi. Bosma t. 8,0. Nashr t. 8,0. Shartli b.t. 7,2.

10 100 nusxada bosildi. Buyurtma № 361.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-  
matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30 // Toshkent,  
Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy. 2004.  
Shartnoma № 12—107—04.

**Maktab kutubxona jamg'armasiga kiritilgan.**